QO'YSINOVA
FAZILAT ORIPOVNA

# RADIKALIZM FENOMENI:

## ZAMONAVIY TAHDIDLAR, NAZARIY YONDASHUVLAR VA ILMIY TALQINLAR

(MONOGRAFIYA)



Scanned with CamScanner

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI DIN ISHLARI BO'YICHA QO'MITASI

O'ZBEKISTON XALQARO ISLOMSHUNOSLIK AKADEMIYASI

QO'YSINOVA FAZILAT ORIPOVNA

# RADIKALIZM FENOMENI: ZAMONAVIY TAHDIDLAR, NAZARIY YONDASHUVLAR VA ILMIY TALQINLAR

(MONOGRAFIYA)

Toshkent – 2026

Scanned with CamScanner

UO‘K:323.28

KBK:66.4(0),304

Q87

Qo‘ysinova. F. O. Radikalizm fenomeni: zamonaviy tahdidlar, nazariy yondashuvlar va ilmiy talqinlar [Matn]: monografiya. – T.: «SCIENCE PRINT» MCHJ», – Toshkent, 2026, 144 b

ISBN:978-9910-5172-1-1

Ushbu monografiyada radikallashuv kabi salbiy tendensiyalarning oldini olishning siyosiy va mafkuraviy jihatlari tahlil etilgan. Unda radikallashuv va uning xavflilik darajasi tadqiqining nazariy va metodologik jihatlari o‘rganilib, radikallashuv xavfli siyosiy, ijtimoiy, ma’naviy va mafkuraviy hodisa sifatida tadqiq etilib, globallashuv va mafkuraviy jarayonlarda radikalizm muammosi, radikalizmni oldini olish va unga qarshi kurashish bo‘yicha ilg‘or amaliyotlar, destruktiv tendensiyalar va ularning inson hayotiga ta’sirini o‘rganish bilan bog‘liq konsepsiyalar yoritilgan. Shuningdek, mafkuraviy va ma’naviy tahdidlar bilan bog‘liq jarayonlar tahlili, global axborot makonining shaxslar ma’naviy dunyoqarashiga ta’siriga doir konseptual muammolar, radikallashuv hodisalardan himoya qilishning mafkuraviy va siyosiy vazifalari belgilangan.

Monografiya materiallaridan siyosatshunoslik, xalqaro munosabatlar, pedagogika va psixologiya, yo‘nalishlari bo‘yicha olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlarda, shuningdek, mazkur sohalarda faoliyat yuritayotgan mutaxassislar ma’ruzalarida foydalanishlari mumkin.

**Mas’ul muharrir:**

**B.Berdiyev**
siyosiy fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**Taqrizchilar:**
**X.Axmedov**
siyosiy fanlar doktori, professor

**F.Jo‘raqulov**
siyosiy fanlar doktori, professor

*Monografiya O‘zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi Ilmiy kengashining 2026-yil 27-martdagi 7-sonli bayonnomasi asosida nashrga tavsiya qilingan*

**© Qo‘ysinova F.O.2026.**
**© «SCIENCE PRINT», 2026.**

Scanned with CamScanner

# MUNDARIJA

KIRISH........................................................................................ 4
I BOB. RADIKALLASHUV MUAMMOSINI TADQIQ QILISHNING NAZARIY VA METODOLOGIK JIHATLARI ........................................................................................................ 6
§1.1. Radikallashuv xavfli siyosiy, ijtimoiy, ma'naviy va mafkuraviy hodisa sifatida ................................................................................ 6
§1.2. Radikalizm muammosining oldini olish hamda unga qarshi kurashish borasidagi ilg'or amaliyotlar ............................................ 25
§1.3. Destruktiv tendensiyalar va ularning inson hayotiga ta'sirini o'rganish bilan bog'liq konsepsiyalar ............................................ 53

II BOB. MAFKURAVIY VA MA'NAVIY TAHDIDLAR BILAN BOG'LIQ JARAYONLAR TAHLILI ............................ 67
§2.1. Ma'naviy va mafkuraviy tahdidlar klassifikatsiyasi, mafkuraviy tahdidlarning namoyon bo'lish omillari.......................... 67
§2.2. Radikalizmning milliy xavfsizlikka ta'siri ............................ 85
§2.3. Radikallashuvning yoshlar ongida aks etishi bilan bog'liq salbiy oqibatlar tahlili ................................................................ 100
§2.4. Radikalizmga qarshi kurashish tizimini takomillashtirishning strategik yo'nalishlari va mafkuraviy asoslari ................................ 113

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI ................. 123



Scanned with CamScanner

QO'YSINOVA FAZILAT ORIPOVNA

# RADIKALIZM FENOMENI: ZAMONAVIY TAHDIDLAR, NAZARIY YONDASHUVLAR VA ILMIY TALQINLAR
(MONOGRAFIYA)

**Toshkent - «SCIENCE PRINT» MCHJ – 2026**

| | |
|---|---|
| **Muharrir:** | **S.Alimbayeva** |
| **Texnik Muharrir:** | **A. Ergashev** |
| **Kompyuterda sahifalovchi:** | **A.Ismailov** |
| **Musavvir:** | **A. Umarov** |

**Nashriyot litsenziyasi:**

**Email:axrorer42@gmil.com Тел:+99890 118-75-75**

**Bosishga ruxsat etildi 8.05.2026**

**Bichimi 60x84 1/16. « Times New Roman » garniturasi.**

**Ofset bosma usulida bosildi.**

**Shartli bosma tabog'i: 10. Adadi: 100.**

**Buyurtma №91/2026**

Scanned with CamScanner

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI DIN ISHLARI BO‘YICHA QO‘MITASI**

**O‘ZBEKISTON XALQARO ISLOMSHUNOSLIK AKADEMIYASI**

**QO‘YSINOVA FAZILAT ORIPOVNA**

# RADIKALIZM FENOMENI: ZAMONAVIY TAHDIDLAR, NAZARIY YONDASHUVLAR VA ILMIY TALQINLAR

(MONOGRAFIYA)

**UO‘K:323.28**

**KBK:66.4(0),304**

**Q87**

**Qo‘ysinova. F. O. Radikalizm fenomeni: zamonaviy tahdidlar, nazariy yondashuvlar va ilmiy talqinlar [Matn]: monografiya. – T.: «SCIENCE PRINT» MCHJ», – Toshkent, 2026, 144 b**

**ISBN:978-9910-5172-1-1**

Ushbu monografiyada radikallashuv kabi salbiy tendensiyalarning oldini olishning siyosiy va mafkuraviy jihatlari tahlil etilgan. Unda radikallashuv va uning xavflilik darajasi tadqiqining nazariy va metodologik jihatlari o‘rganilib, radikallashuv xavfli siyosiy, ijtimoiy, ma’naviy va mafkuraviy hodisa sifatida tadqiq etilib, globallashuv va mafkuraviy jarayonlarda radikalizm muammosi, radikalizmni oldini olish va unga qarshi kurashish bo‘yicha ilg‘or amaliyotlar, destruktiv tendensiyalar va ularning inson hayotiga ta’sirini o‘rganish bilan bog‘liq konsepsiyalar yoritilgan. Shuningdek, mafkuraviy va ma’naviy tahdidlar bilan bog‘liq jarayonlar tahlili, global axborot makonining shaxslar ma’naviy dunyoqarashiga ta’siriga doir konseptual muammolar, radikallashuv hodisalardan himoya qilishning mafkuraviy va siyosiy vazifalari belgilangan.

Monografiya materiallaridan siyosatshunoslik, xalqaro munosabatlar, pedagogika va psixologiya, yo‘nalishlari bo‘yicha olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlarda, shuningdek, mazkur sohalarda faoliyat yuritayotgan mutaxassislar ma’ruzalarida foydalanishlari mumkin.

**Mas’ul muharrir:**

**B.Berdiyev**
siyosiy fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**Taqrizchilar:**
**X.Axmedov**
siyosiy fanlar doktori, professor

**F.Jo‘raqulov**
siyosiy fanlar doktori, professor

*Monografiya O‘zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi Ilmiy kengashining 2026-yil 27-martdagi 7-sonli bayonnomasi asosida nashrga tavsiya qilingan*

**© Qo‘ysinova F.O.2026.**
**© «SCIENCE PRINT», 2026.**

# MUNDARIJA

**KIRISH**........................................................... 4
**I BOB. RADIKALLASHUV MUAMMOSINI TADQIQ QILISHNING NAZARIY VA METODOLOGIK JIHATLARI** ........................................................................................ 6
§1.1. Radikallashuv xavfli siyosiy, ijtimoiy, ma’naviy va mafkuraviy hodisa sifatida ........................................................................ 6
§1.2. Radikalizm muammosining oldini olish hamda unga qarshi kurashish borasidagi ilg‘or amaliyotlar .......................................... 25
§1.3. Destruktiv tendensiyalar va ularning inson hayotiga ta’sirini o‘rganish bilan bog‘liq konsepsiyalar ............................................... 53

**II BOB. MAFKURAVIY VA MA’NAVIY TAHDIDLAR BILAN BOG‘LIQ JARAYONLAR TAHLILI** ............................ 67
§2.1. Ma’naviy va mafkuraviy tahdidlar klassifikatsiyasi, mafkuraviy tahdidlarning namoyon bo‘lish omillari…...................... 67
§2.2. Radikalizmning milliy xavfsizlikka ta’siriri ........................... 85
§2.3. Radikallashuvning yoshlar ongida aks etishi bilan bog‘liq salbiy oqibatlar tahlili ................................................................... 100
§2.4. Radikalizmga qarshi kurashish tizimini takomillashtirishning strategik yo‘nalishlari va mafkuraviy asoslari .................................. 113

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI** .................. 123

# KIRISH

Dunyoda global va mintaqaviy miqyosda geosiyosiy jarayonlarning yangi kuch hamda murakkab shakllarda namoyon boʻlishi har bir mamlakatdan oʻz ichki va tashqi siyosatini modifikatsiya qilishni talab qiladi. Bu, eng avvalo, jahonda keng avj olayotgan radikalizm va uning gʻoyaviy-mafkuraviy fenomenini ijtimoiy-siyosiy va sotsial-iqtisodiy jarayonlarda aks etishi hamda uning jamiyatda va davlatda, davlatlararo va xalqaro, shuningdek, millatlararo hayotda ijtimoiy, milliy, etnik, diniy asosda nizoli vaziyatlarning shakllanishiga olib kelmoqda. Mafkuraviy oʻzgarishlarning sodir boʻlayotganligi, ma'naviy transformatsiya jarayonlarining shiddatli ta'sirlar natijasida jadallashib borayotganligi radikal gʻoyalarning salbiy ta'sirini kuchayishi va murakkablashuviga asos boʻlmoqda. Radikal gʻoyalarning salbiy ta'sirlaridan nafaqat jamiyatning har bir a'zosi, balki davlat xizmatchilarining ham kafolatli darajada himoyalanmaganligi namoyon boʻlmoqda. Bu tendensiya nafaqat ilmiy-konseptual jihatdan, balki deradikalizatsiya jarayonlarini kuchaytirish nuqtai nazaridan ham dolzarb boʻlib bormoqda.

Jahonda yetakchi mamlakatlarning oliy ta'lim muassasalari va ilmiy tadqiqot markazlari tomonidan radikallashuv va terrorizmning oldini olishga qaratilgan eng samarali usul hamda dasturlarni ishlab chiqish boʻyicha tadqiqotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, Buyuk Britaniya, Turkiya, Malayziya, Indoneziya mamlakatlarida "Contest" strategiyasi dorasida, Birlashgan Arab Amirliklarida "Hidoya", "Savob" markazlari, Saudiya Arabistonida "Munasaxa", Misr Arab Respublikasida esa "al-Azhar observatoriyasi", Qozogʻiston Respublikasida faoliyat yurituvchi "Ansar" markazlarida radikalizm va ekstremizm gʻoyasiga qarshi kurashish va deradikallashuv dasturi boʻyicha eng yaxshi amaliyotni ishlab chiqish muammosi doirasida ilmiy tadqiqotlar olib borilayotganligi alohida ahamiyatga molikdir. Shu jihatdan jamiyatda radikalizmning shakllanishiga sabab boʻluvchi omillarni aniqlash, deradikallashtirishning istiqbolli dasturlarini ishlab chiqish va sinovdan oʻtkazish, bu borada ilgʻor xorijiy tajribalarni qoʻllash hamda

radikallashuv jarayonini obektiv baholash usul va metodlarini ishlab chiqish kabi yo‘nalishlarda olib borilayotgan tadqiqotlarga ustuvor darajada qaralmoqda.

Mamlakatimizda radikallashuvga qarshi samarador texnologiyalarni yaratish, uni jamiyat va davlat barqarorligining muhim tarkibiy qismiga aylantirish maqsadida bir qator mexanizmlar ishlab chiqilmoqda. Chunki, bugungi kunda ijtimoiy holati beqaror va kuchsiz davlatlarning radikalizm o‘chog‘iga aylanishi tahdidi yuqori bo‘lib qolmoqda. Bunda radikalizmni oldini olish borasida kuchli davlat hokimiyati sharoitida dasturlarni ishlab chiqish va ularni muvaffaqiyatli amalga oshirish talab etiladi. Zero, Prezident Sh.Mirziyoyev tomonidan “Yosh avlodni ekstremistik g‘oyalar ta’siridan himoya qilish maqsadida yoshlarning radikallashuviga qarshi kurashish sohasidagi hamkorlik bo‘yicha Mintaqaviy kompleks dastur ishlab chiqish”[1] kabi vazifalarning belgilanishi mavjud muammolarni yechish va kamchiliklarni bartaraf etishga qaratilgan siyosatdan dalolat beradi.

Bugungi kunda radikal mafkurasining tarqalishi, insonlarning siyosiy, diniy, ijtimoiy, milliy, hududiy, etnik manfaatlarini manipulyatsiya qilish orqali sodir bo‘lmoqda. Radikalizm nafaqat jamiyat barqarorligiga, balki davlatchilikning fundamental asosi hisoblangan xavfsizlikning institusional tuzilmalariga ham tahdid solmoqda. Bunda radikalizmning milliy xavfsizlikka ta’sirini o‘rganish, radikallashuvga sabab bo‘ladigan salbiy axborotlarning ko‘lami va xususiyatlarini aniqlash, radikallashuvni oldini olishga doir samarador texnologiyalar tizimini takomillashtirish, shaxslarda radikallashuvga qarshi mafkuraviy immunitetni rivojlantirishning samarali mexanizmlarini joriy qilish kabi yo‘nalishlarda ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirish alohida ahamiyat kasb etadi.

[1] Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг 2023 йил 14 сентябрдаги Марказий Осиё давлатлари раҳбарларининг Маслаҳат учрашувидаги нутқи https://president.uz/uz/lists/view/6658

# I BOB. RADIKALLASHUV MUAMMOSINI TADQIQ QILISHNING NAZARIY VA METODOLOGIK JIHATLARI

## 1.1. Radikallashuv xavfli siyosiy, ijtimoiy, ma'naviy va mafkuraviy hodisa sifatida

Globallashuv sharoitida radikalizm va ekstremizm jamiyat barqarorligi, milliy xavfsizlik va ijtimoiy totuvlikka jiddiy tahdid solayotgan salbiy hodisalardan biri hisoblanishi bois, dunyoda radikal-qarashlar, ekstremizm mafkurasi va amaliyotining tarqalishi bilan bog'liq jarayonlarni bartaraf etish masalasining dolzarbligi oshmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev ta'kidlaganidek "Biz radikalizm va ekstremizmning har qanday ko'rinishlariga, turli millat va xalqlarning diniy qadriyatlariga nisbatan hurmatsizlik ko'rsatishga mutlaqo qarshimiz"[2]. Globallashuv davrida yuz berayotgan siyosiy jarayonlar o'z navbatida nizolarni yoki qurolli to'qnashuvlarni yangi bosqichga olib chiqdi.

Ayrim xalqaro o'yinchilar o'zlarining geosiyosiy manfaatlaridan kelib chiqib, mintaqalardagi ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy vaziyatni beqarorlashtirmoqda. Natijada, "yosh avlodning kelgusida hayotda o'z munosib o'rnini topishiga bo'lgan ishonchi va qat'iyati susaymoqda. Shuningdek, minglab yoshlarning ongu tafakkuriga buzg'unchi va radikal mafkuralar ta'siri ham tobora kuchaymoqda"[3]. Vaziyatning keskinlashuvi radikal mafkuraning tarqalishi, insonlarning siyosiy, diniy, ijtimoiy, milliy, hududiy, etnik manfaatlarini manipulyatsiya qilish orqali sodir bo'lmoqda. Radikalizmning xalqaro miqyosda keng tarqalishi, global muammolardan biri sifatida qayd etilmoqda.

Shu bois, jahon ilm fanida zamonaviy jamiyat hayoti bilan chambarchas bog'liq bo'lgan keng ko'lamli ijtimoiy-siyosiy hodisalar, jamiyatga salbiy ta'sir o'tkazayotgan radikalizm g'oyalari bilan bog'liq mafkuraviy va ma'naviy qadriyatlarga doir muammolar yuzasidan tadqiqotlar olib borilishiga ehtiyoj oshmoqda. Radikalizmga oid muammoni batafsil o'rganish maqsadida sotsiologik,

---

[2] https://www.gazeta.uz/uz/2023/07/05/mirziyoyev/

[3] Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг 2023 йил 2 мартда ўтказилган Қўшилмаслик ҳаракати Мулоқот гуруҳи саммитидаги нутқи

psixologik, siyosiy tahlillar, ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilmoqda. Mavzuning mantiqiy davomi sifatida radikalizm atamasi talqini va radikalizm haqidagi qarashlar tahliliga e'tibor qaratish maqsadga muvofiqdir.

Izohli lug'atlarda radikalizm terminiga quyidagicha ta'riflar keltirilganligi o'rganildi: Radikalizm (lotin tilidan radicalis – tub, lot. radix – ildiz ma'nosini bildiradi) – har qanday bahs yoki faoliyatda to'liq natijani qo'lga kiritish va hech qanday murosasiz xatti-harakatlarga asoslanishni anglatadi[4]. Radikalizm (lot. radicalis — ildiz) – mavjud davlat tuzumini tanqid ostiga olib, radikal o'zgarishlar va islohotlar o'tkazishni talab etuvchi siyosiy harakat hisoblanadi[5]. Demak, radikalizm tushunchasi o'z qarashlarini boshqalarga nisbatan keskin va murosasiz qarama-qarshi qo'yishni anglatib siyosiy tuzum va ijtimoiy institutlarni tubdan o'zgartirishga qaratilgan g'oya va harakatlarni ifodalaydi.

Radikalizatsiya va deradikalizatsiya masalasi tadqiqi doimiy ravishda ko'pgina xorijlik va o'zbekistonlik olimlar va mutaxassislarning, ayniqsa tarixchi va siyosatshunoslarning e'tiborini o'ziga tortib keladi. Bugunga qadar amalga oshirilgan mavzuga aloqador tadqiqotlar tahlilda Muammoning obyekti va predmetini o'rganishga oid yondashuvlar ayrim hollarda o'xshab ketsada, olimlarning masalani yoritishda o'ziga xos qarashlari turli yo'nalishlarni qamrab olishi bilan ajralib turadi. Masalan, nemis olimi Daniyel Kyoler radikalizatsiya va deradikalizatsiya masalasini, Karolin Goerzik va Xolid al-Hoshimiy Yevropa davlatlaridagi radikallashuv jarayonini, Daan Veggemans, Beatris de Graaf, Inmakulado Marero Rocha, Umberto M. va Truxillo Mendozalar jazoni o'tash muassasalarida mahkumlarning radikallashuvi muammolarini ko'rib chiqishgan[6].

---

[4] Ўзбек тилининг изоҳли луғати. А.Мадвалиев таҳрири остида. - Тошкент. "Ўзбекистон миллий энциклопедияси" (2006-2008). – Б.337. https://n.ziyouz.com/books/uzbek_tilining_izohli_lugati/O'zbek%20tilining%20izohli%20lug'ati%20-%20R.pdf

[5] Бегматов Э. Ўзбек тилининг изоҳли луғати.-Тошкент. Давлат илмий нашриёти, 2007.–Б. 337.

[6] Koehler D. Understanding Deradicalization: Methods, Tools and Programs for Countering Violent Extremism. – NY.: Routledge, 2016. – 322 p; Görzig C., Al-Hashimi K. Radicalization in Western Europe: Integration, Public Discourse and Loss of Identity among Muslim Communities. – NY.: Routledge, 2015. – 192 p.; Weggemans D., De Graaf B. Reintegrating Jihadist Extremist Detainees: Helping Extremist Offenders Back into Society. – NY.: Routledge, 2017. – 165 p.; Rocha I.M., Mendoza H.M.T. Jihadism, Foreign Fighters and Radicalization in the EU: Legal, Functional and Psychosocial Responses. – NY.: Routledge, 2018. – 278 p.

Jihodchilarni deradikalizatsiya qilish jarayoni Umar Ashur tadqiqotida ilmiy asoslantirgan. Olim tadqiqotida muvaffaqiyatli deradikalizatsiya sodir boʻlishi mumkin boʻlgan oʻziga xos jihatlarni tahlil qilingan.

Quyidagi omillar, manbalarda insonlarni radikallashuviga olib keladigan sabablar sifatida keltirilgan:

Ijtimoiy omillar: Yashash sharoiti, iqtisodiy holat, ijtimoiy jihatlar, siyosiy yoʻnalishlar, kuchli hissiyotlar kabi sotsial omillar radikalizmni oʻsishiga olib keladi.

Siyosiy omil: Siyosiy muhit va mamlakatdagi hukumatning siyosiy boshqaruv shakli, siyosiy sohadagi muhofaza va bu yoʻnalishdagi amalga oshirilgan yangi oʻzgarishlar radikal fikrlarninf oʻsishiga olib keladi.

Diniy omil: Diniy oqimlar ta’siri, dinning siyosiylashuvi diniy radikalizmni vujudga keltiradi.

Ta’lim va tarbiya omili: Ta’lim tizimi va shakllari, tarbiya va oʻqitish metodlarida boʻladigan muhim oʻzgarishlar radikalizmni oshirishi mumkin.

Radikalizmning xalqaro miqyosda yoyilishi, global muammolarning ushbu ijtimoiy hodisaga ta’siri masalasi N.Jdanov, S.Samoylov, A.Arystanbekova, E.Tukumov va boshqalar olimlar tadqiqotlarida yoritilgan[7].

Markaziy Osiyo ekspert va olimlari Z.Shaukenova, S.Qushkumboyev, E.Karin, M.Laumulin, M.Abisheva, T.Shaymergenova, M.Sydyknazarov, A.Sadvokasova, A.Ospanova, L.Karatayeva, E.Chernix, M.Bektenova, E.Nechayeva, M.Onuchkolar tadqiqotida xalqaro xavfsizlik muammolari tadqiq etilib radikallashuv, ekstremizm, terrorizm masalalariga alohida e’tibor qaratilgan[8].

---

[7] Жданов Н.В. Исламская концепция миропорядка. – М.: Междунар. отношения, 2003. – 568 с.; Самойлов С.Ф. К проблеме разграничения понятий социального и политического радикализма // Общество: политика, экономика, право. - 2008. - № 2. - С. 81-87.; Арыстанбекова А.Х. Глобализация. – Алматы: Дайк Пресс, 2007. – 304 с.; Тукумов Е.В. Религиозно-политический экстремизм как угроза региональной, национальной безопасности стран Центральной Азии: Автореф. ... канд. полит. Наук. – Алматы, 2004. – 29 с

[8] Кушкумбаев С.К. Ислам в Казахстане: между общностью и размежеванием // В кн.: Центральная Азия: пространство «шелковой демократии». Ислам и государство. – Алматы: Фонд им. Фридриха Эберта, 2017. – С. 24-34.; Карин Е.Т. Операция "Жусан". – Алматы: Print House Gerona, 2020 – 272 с.; Лаумулин М.Т. Эволюция восприятия террористической и экстремистской угрозы // Профилактика экстремизма. Успехи и

D.Kurbanov “Markaziy Osiyo mutafakkirlari ilmiy merosining tinchlik va barqarorlikni ta’minlashdagi falsafiy qarashlarining “Jaholatga qarshi ma’rifat” konsepsiyasi bilan farovonlikni targ‘ib qilish, ezgulikka da’vat etish, yoshlarni radikallashuv va zo‘ravonlik “virusi” dan har tomonlama himoya qilishda hozirgi davr bilan uyg‘unligi hamda dialektik aloqadorligi ochib berilgan”[9].

Bugungi kun siyosiy fanlari va voqeliklarida o‘ta muhim ahamiyat kasb etayotgan, juda katta muammo keltirayotgan kategoriyalardan biri bo‘lgan radikalizmning rivojlanishining tarixiy-teologik jihatlari, mohiyati va xususiyatlari tadqiqida quyidagi jihatlar aniqlandi.

Radikal o‘zgarishlar, ijtimoiy, siyosiy, diniy yoki boshqa sohalarda ro‘y berishi mumkin. Bu o‘zgarishlar, odatiy aniq talablar, qoidalar, qonunlar, davlatlar yoki guruhlar tomonidan ko‘rsatilmaydigan va amalga oshirilmaydigan xususiyatlarga ega bo‘lishi mumkin. Radikallashuv odatda mavjud tizimga qarshi bo‘lib, uni o‘zgartirishga intiladi. Masalan, Ahmad ibn Taymiya’ning (1263-1328 yy) tavhid, bid’at va jihodga oid qarashlari radikal ahamiyat kasb etgan. Unga ko‘ra, tavhidning uchta mezonidagi qat’iy talablarni bajarmaganlar kofir, deb e’lon qilingan[10]. Jamoliddin al-Afg‘oniy o‘zining diniy-siyosiy qarashlarida siyosiy maydonga islomning dastlabki asoslariga qaytish va

---

трудности: матер. междунар. науч.-практ. конф. – Нур-Султан: КИСИ при Президенте РК, 2019. – С. 141-148.; Абишева М.А., Шаймергенов Т.Т. Религиозно-политический экстремизм в странах Центральной Азии: анализ причин распространения // Центральная Азия и Кавказ. – 2006. – № 6(48). – С. 50-64.; Сыдыкназаров М.К. Влияние пандемии Covid-19 на религию и религиозные практики // http://religions-congress.org/ru/news/novosti. 16.02.2021. Садвокасова А.К. История межэтнических, межконфессиональных отношений в Республике Казахстан, включая историю наиболее крупных этносов: ОСН // edu.e-history.kz. 24.02.2021.; Оспанова А.Н., Рахматулин О., Утанов Б. Внешнеполитическая стратегия США в Центральной Азии в контексте борьбы с международным терроризмом // http://www.rusnauka.com/pdf/252317.pdf. 05.12.2020.; Каратаева Л. Драйверы насильственного экстремизма и проблемы противодействия вовлечению граждан в экстремистские и террористические сети // Профилактика экстремизма. Успехи и трудности: матер. междунар. науч.-практ. конф. – Нур-Султан: КИСИ при Президенте РК, 2019. – С. 14-28.; Черных И.А. Контртеррористические нарративы: практики Казахстана. В стране используется многосторонний подход // https://perconcordiam.com/ru/. 05.12.2020.; Онучко М.Ю. Религиозный экстремизм среди молодежи в Центральной Азии: особенности проблемы и пути решения // Центральная Азия и Кавказ. – 2019. – № 3. – С. 123-137.

[9] Kurbanov D.D. Markaziy Osiyo ijtimoiy-falsafiy tafakkuri tarixining diniy fundamentalizm va ekstremizmga qarshi kurashdagi ahamiyati: Fals. f-i bo‘y. fal. d-ri (PhD) diss. ... avtoref. – Buxoro, 2023. – B.7. 52 b/

[10] Родионова М.М. Суфийская концепция избранничества (вилайа) уибн‘Араби и ее критика со стороны представителя салафизма ибн Таймийи / М.М. Родионова // Вестник Российского университета дружбы народов. Серия: Всеобщая история. – 2014. – № 3. – С.79.

musulmon xalqlari ozodligi uchun kurash g‘oyasi bilan chiqqan[11]. Bolsheviklar tomonidan O‘rta Osiyo hududlarini radikal harbiy choralar asosida egallanishi va ular tomonidan olib borilgan shafqatsiz siyosat ham mohiyatan radikalizmning bir ko‘rinishidir. Chunki, bolsheviklar siyosiy jihatdan ong va dunyoqarash shakli orqali aniq ifodalangan maqsadga yo‘nalgan katta radikal klub vakillaridan shakllangan. “Tolibon” radikal harakatining Afg‘onistonda radikalizmga asoslangan davlat boshqaruvi, yoki radikal tamoyillarga asoslangan siyosiy tuzumni barpo etganligi ham yuqorida keltirilgan fikrlarga asos bo‘ladi.

Manbalarda qayd etilishicha radikalizm odatda har qanday qarashlarga, fikrlash tarziga, konsepsiyaga o‘ta murosasiz amal qilish deb tushuniladi. Y.Yaxyayev ta’kidlashicha radikalizm o‘ta tajovuzkor mafkuraga, o‘ta buzg‘unchi harakatlarga asoslangan ijtimoiy-siyosiy faoliyat bo‘lib, u butun ijtimoiy-siyosiy tuzumni o‘zgartirishga yo‘naltiriladi[12].

O‘zining dastlabki ma’nosida radikalizm murosasizlikni anglatgan bo‘lsada, uni zo‘ravonlik xususiyatiga ega, faqat buzg‘unchilikka yo‘naltirilgan voqelik deb tushunish to‘g‘ri emas. Ko‘pgina mualliflar radikalizmni nafaqat destruktiv, balki taraqqiyotni tezlashtiradigan ijobiy hodisalarning katalizatori deb qayd etishgan.

Shuningdek, radikalizm muammosiga bag‘ishlangan ayrim tadqiqotlarda bu atamaning ta’rifi va mazmuniga nisbatan boshqacha yondashuvlar mavjud bo‘lib unda radikalizmning ajralmas elementlari sifatida tajovuzkorlik va buzg‘unchilik keltirilib, ular g‘oya toifasidan radikal, ko‘pincha noqonuniy faoliyat toifasiga o‘tishi asoslantirilgan. Olim S.Samoilovning fikricha quyidagilar radikalizmga xos bo‘lgan asosiy xususiyatlar hisoblanadi: ma’lum bir ta’limot talablariga fundamental rioya qilish; utopik g‘oyalarning mavjudligi; zo‘ravonlik harakatlarining muqarrarligini e’lon qiluvchi inqilobiy ruh[13]. “Radikalizm” tushunchasi tahlilida I.Muxametzyanov, V.Xolodnov, F.Nuriaxmetovalar ushbu

---

[11] Фундаментализм. / Отв. ред. З.И. Левин -М.: «Крафт+», 2003. -С.28

[12] Яхъяев М.Я. Причины радикализации ислама в современном мире // Исламоведение. - 2012. - № 2. - С. 4-14.

[13] Самойлов С.Ф. К проблеме разграничения понятий социального и политического радикализма // Общество: политика, экономика, право. - 2008. - № 2. - С. 81-87.

atamani kvalifikatsiya qilish mumkin bo‘lgan sinonim sifatida, ijtimoiy xavfli harakat sifatida qo‘llaganlar[14].

Radikalizm atamasi ko‘proq siyosiy va ijtimoiy sohalarda, mavjud ijtimoiy tuzilma va institutlarni tubdan o‘zgartirilishiga zaruriyat bo‘lganda qo‘llaniladi. Miloddan avvalgi I asrda Falastinda yahudiylik dinida radikal qarashlarga ega bo‘lgan Sikariy va Zelotlar (ibroniycha “sikarii” – qilich taqqan, “zelot” - g‘azablangan) sektasining hukumatga qarshi qo‘zg‘oloni diniy ekstremizm amaliyot bilan asoslangan[15].

Radikalizm termini garchi, lotin tilidan olingan bo‘lsada, XVIII asrda Angliyada qo‘llanila boshlandi va XIX asrga kelib butun Yevropa qit’asida ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy va madaniy o‘zgarishlar va ularga mos bo‘lgan islohotchilik amaliyotiga qaratilgan ijtimoiy va siyosiy falsafiy firklarni anglatadigan ibora sifatida tarqala boshlagan[16]. Y.Tushkova “Radikalizm mavjud siyosiy tizimni qayta qurish maqsadini ko‘zlaydi” deya keltiradi[17]. Masalan, “Angliyada “xalq” radikalizmi tarafdorlari o‘z sinfining ehtiyojlarini qondirish uchun mamlakatda keng ijtimoiy islohotlar o‘tkazish g‘oyasini ilgari surdilar. Ularning siyosiy qarashlari va faoliyatida muammolarni hal qilishda islohot usulidan foydalanish taklif qilinib, siyosatda zo‘ravonlik usullarini qo‘llashga qarshi chiqishdi”[18].

Radikalizm XVIII asrning oxirlaridagi Fransuz inqilobiga o‘sha vaqtdagi an’anaga aylangan traditsionalizm, konservatizm, klerikal-monarxik avtoritarizmga yoki o‘sha vaqtdagi cherkovning turli manifestlariga nisbatan bir muncha jiddiy javob sifatida o‘z o‘rniga ega bo‘lgan edi. Ayniqsa, u sanoat

---

[14] Мухаметзянов И., Холоднов В., Нуриахметова Ф. К соотношению понятий «радикализм» и «экстремизм» в процессе формирования правосознания студенческой молодежи // Казан. пед. журн., 2016. – № 6. –С. 21-28.

[15] Тойнби А.Дж. Исследование истории: Возникновение, рост и распад цивилизatsiй/ Арнольд Дж. Тойнби; пер. с англ. К.Я. Кожурина. -М.: Асгмосква., 2009. -С.449.

[16] Halery E. La formation du radicalism philosophique, v. 1–3, P. 1901–04

[17] Тушкова Ю.В. Отличия и сходства в понятиях радикализм и экстремизм в законодательстве и социальных науках Великобритании // Молодой ученый. - 2014. – № 5. – С.435-437

[18] Романова М.И. Парламентская реформа 1832 года в Англии и ее последствия. - http://articles.excelion.ru/science/history/world/55306751.html.

taraqqiyoti va burjua antifeodal ijtimoiy inqilobi davrida Yevropada XIX - XX asrdagi ijtimoiy va siyosiy qarashlarda, shuningdek, siyosiy amaliyotda mustahkam oʻrnashgan jamiyatning tadrijiy rivojlanishining muqobil varianti sifatida maydonga chiqdi. Chunki u nafaqat inqilobning, balki uning barcha shakllari uchun kuchli muqobilga aylangan edi[19].

Dunyoning nisbatan taraqqiyotga erishgan qismida (Yevropa, AQSh, Avstraliya, Kanada, hattoki Rossiya'ni ham kiritish mumkin) ikki xil, ya'ni Platonning inqilobiy (va utopik) yoʻli hamda Aristotelning doimiy va bosqichma-bosqich oʻzgarish yoʻli kabi qarashlar raqobati va navbatma-navbat hukmronlik jarayoni ikki yuz yil davomida taraqqiyotni belgilab bermoqda.

Jadallashgan ommaviy iqtisodiy, siyosiy, madaniy, ilmiy-texnikaviy jarayonlar jamiyatning yuqori darajadagi inqiroziga qarshi moslashuvi sharoitida dinamik ijtimoiy barqarorlikning yangi turi yaralishiga imkon berdi.

Oʻrta asrlar soʻnggi va Yangi davri boshida radikallar demokratiya shiorlari bilan tanilgan. Uning tarafdorlari (Lokk, Russo va boshqa) noodatiy ijtimoiy munosabatlar va sharoitlarni radikal tarzda oqilona tartiblar bilan almashtirish gʻoyasini ilgari surgan. Anarxistlar esa jamiyatdagi huquqni himoya qiluvchi idoralarning ortiqchaligi, inson erkini tubdan kengaytirish lozimligini yoqlab chiqishgan. Ularning gʻoyaviy rahnamosi U.Godvin "inson aql-zakovat va erkinlik ramzidir, shuning uchun uning erkini cheklash kerak emas, degan gʻoya'ni ilgari surgan".

Radikalizmning xuddi inqiloblar singari XVIII – XIX asrlarda vujudga kelishi Yevropada boshlangan Uygʻonish davrining insonga, uning ongu-shuuriga, ijtimoiy mavjudligiga, sanoat taraqqiyotiga, individualizm gʻoyalarining kengayishiga, monarxiya avtoritarizmiga qarshi kurashishga (radikalizmning vatani hisoblangan Angliya va Amerika singari davlatlar mustamlakalardagi ozodlik harakatlariga) nisbatan yangi talablar ta'siri ostida roʻy berdi. Turli

[19] Nitti T.S. Partito radicale e le prime linee di un programma del Partito Radicale. Torino–Roma, 1907

davrlarda o‘z fikrini keskin ifoda etgan, jamiyatning ayrim qatlamlari manfaat-larini himoya qilgan jamoat arboblarini radikallar deb atashgan.

Ingliz (bu yerda Angliyadagi radikalizm nazarda tutilyapti) radikalizmi I.Bentam va Dj.S.Mill singari nazariyotchilarning utilitarizm g‘oyasi ta’siri ostida shakllanib unda Qirollik hokimiyatini cheklash, sud islohotlari dasturlari, har qanday siyosiy faoliyatning fundamental umumiy farovonlikning bentam konsepsiyasi, xalqning siyosiy suverenitetini va uning parlamentdagi vakilligini ta’minlashga qodir bo‘lgan umumiy saylov huquqiga bo‘lgan talablarda aniqlashtirilgan.

Fransiyada esa Lui-Filipp va Napoleon III ning “liberal imperiyasi” boshqaruvining restavratsiya davrida radikalizm harakati barcha haqiqiy respub-likachilar tarafdorlarini, sobiq “yakobinchilarni” va jamiyatni demokratlashtirish, siyosiy tartibotni liberallashtirish uchun kurashgan siyosiy ta’qibning salohiyatli qurbonlarini o‘z atrofida birlashtirgan edi.

Italiyada radikalizm A.Bertani boshchiligidagi respublikachilar va milliy ozodlik g‘oyalaridan ilhomlangan Dj.Madzini va K.Kattaneolarning siyosiy qarashlari asosida vujudga keldi. Ular umumiy Yevropa radikalizmi uchun siyosiy va ijtimoiy taraqqiyot kurashini (soliq islohotlari, hamma uchun teng umumiy boshlang‘ich ta’lim, cherkovning siyosatga aralashuvini to‘liq cheklash va hokazo) olib bordilar[20].

Radikallar umume’tirof etilgan an’analarga butunlay zid munosabatda bo‘lib, keskin harakatlarni yoqlab chiqadi. Lekin, tarixda bu atama mo‘tadil islohotlar tarafdorlariga nisbatan ham qo‘llanilgan. Masalan, Buyuk Britaniyada (1832) “Islohotlar to‘g‘risidagi Bill”ning muholiflariga nisbatan radikalizm atamasi qo‘llangan. Keyinroq esa utilitarizm asoschilaridan I.Bentam va uning izdoshlari “falsafiy radikallar” deb atalgan. Hozirgi kunda so‘l siyosiy partiyalarga nisbatan ham radikallar tushunchasi qo‘llanadi.

---

[20] Murri R. Il partito radicale e il radicalismo italiano. Roma, 1913

Tuzilishi va tashkiliy jihatdan zaifligiga qaramasdan, yevropa radikalizmi o‘z davrida ijtimoiy o‘zgarishlarning mafkuraviy va madaniy katalizatori sifatida maydonga chiqqan. Radikallarning sochilib ketgan guruhlari o‘z mamlakatlarining taraqqiyparvar siyosiy madaniyatini belgilab bergan taniqli jamoatchilik faollari atrofida birlashdilar. Angliyada XIX asr boshlarida radikal-qarashlarga ega bo‘lgan arboblarni o‘ziga jalb qiladigan asosiy markaz – bu “Westminster reviyew”, 1816- yildan boshlab U.Kobbettning “Political Weyekly” jurnallari bo‘ldi. Ushbu davrda faol islohotchi shaxslar sifatida Angliyada YE.Chedvik, J.Proupp, F.Pleys, J.Xyum, J.F.Rebek, Fransiyada esa L.Gambetta, J.Klemanso, P.Pelleton, Sh.Floke va boshqalarni alohida qayd etish mumkin[21].

XIX asrning so‘nggiga qadar radikallar hech bir mamlakatda birlasha olmadilar va ular tomonidan biror bir siyosiy partiyaga asos solinmadi. Ingliz radikallarining mamlakatdagi vigilar va torilar, liberallar va konservatorlar bilan hamkorligi o‘tgan asrning boshlarida ularning leyboristlar bilan qo‘shilishi bilan barham topdi. Fransiyada esa radikallar uchun vaziyat bir muncha yengil amalga oshdi[22]. 1901-yilda fransuz radikallarining sochilib yotgan turli guruhlari Respublika radikal va radikal-sotsialistik partiyasiga birlashdilar va hattoki, XX asrning birinchi yarmida bir necha bor hukmron partiyaga aylandi[23]. Italiyada 1904-yilda radikallarning monarxiya partiyasi vujudga keldi[24]. Manbalar tahlilida shuni kuzatish mumkinki XIX-XX asrlardagi barcha ijtimoiy, madaniy va siyosiy o‘zgarishlar faqatgina inqiloblar natijasida emas, balki radikal islohotchilarning zo‘r berib qilgan harakatlari natijasida ro‘y berdi.

Odatda, inqiloblar natijasida islohotlar ijobiy o‘zgarish sifatida ko‘rsatitiladi yoki inqiloblar islohotlarning amalga oshishi uchun sharoit yaratiladi. Inqilobni reformatorlar (islohotchilar) ijtimoiy taraqqiyot uchun kurashda amalga oshiradilar. Bunga misol sifatida uzoq muddatli parlament kurashlari bo‘lib o‘tgan

[21] Maccoby G. English Radicalism. L., 1938
[22] Michaud F. Histoire du radicalism. P., 1951
[23] Nicolett C. Bibliographie du radicalisme. – «Cahiers de la Republique», 1956, № 2
[24] Kaiser I. Les grandes batailles du radicalism (1820–1901). P., 1962

Angliyadagi tub islohotlar, saylov huquqi islohotlari, ishchi tashkilotlarni taqiqlashning bekor qilinishi, ijtimoiy sog'liqni saqlash asoslarini yaratish, umumiy boshlang'ich ta'lim tizimi, mustamlaka siyosatining liberallashuvi, Dizraili yangi saylov islohotlari va boshqalarni keltirishimiz mumkin. Ushbu jarayonlar boshqa mamlakatlarda ham o'ziga xos tarzda ro'y berganligi kuzatiladi.

Sharqda siyosiy qarashlardagi keskin burilish va faollikning kuchayishi xronologik nuqtai nazardan, Birinchi jahon urushi davriga kelib taqaladi. Aynan shu yillarda Sharq dunyosining siyosiy istiqboli va ijtimoiy muhitida yirik o'zgarishlar sodir bo'lgan.

Jumladan, "XX asr birinchi choragida Yaqin va O'rta Sharq, O'rta yer dengizi sohili, Markaziy va Janubiy Osiyo mamlakatlari qolaversa, butun dunyo rivojini belgilovchi voqea sodir bo'ldi, ya'ni butun arab-musulmon dunyosini qamrab olgan Usmoniylar imperiyasi barham topdi"[25]. "Mazkur imperiya tasarrufiga kirgan hududlarning aksariyat qismi rasman Buyuk Britaniya mustamlakalari deb tan olingan bo'lsa, qolgan qismida Fransiya'ning «trikolori» — milliy bayrog'i hilpiradi. Sobiq Usmoniylar imperiyasida tarixiy hamda geosiyosiy o'zgarishlar ro'y berdi"[26]. Ammo bu siyosiy geografik o'zgarish edi xolos. Bir necha o'n yillar mobaynida, yerli xalq ijtimoiy hayoti hamda ruhiyatida chuqur salbiy iz qoldirgan voqealar bo'lib o'tgan.

Xususan, "mazkur makon Usmoniylar barham topmasdan ancha ilgari G'arbdagi mustamlakachi davlatlar o'rtasida xalqlar (arablar, turklar, kurdlar va boshqalar) xohish-irodasi va g'ururiga zid holda, ulkan geosiyosiy raqobat maydoniga aylanib ulgurgan edi. Olim Sh.Aripov ta'kidlaganidek "Intellektual salohiyatiga ko'ra, tarixda muhim o'ringa ega qadimiy makonning nafsoniyati oyoq osti etilib, "qo'ldan-qo'lga o'tish» obyektiga aylantirilgan. Aholining yashash sharoiti yanada murakkablashib diniy hamda milliy etnik qadriyatlari

---

[25] Арипов Ш.И. Жамият тараққиётига диний радикализм таҳдидининг замонавий хусусиятлари: Сиёс. фан. номз. дисс. ... -Т., 2008. -Б. 32. 117

[26] Терроризм: история и современность. Казань, 2002, -С. 178.

kamsitilishi, tarixiy taraqqiyot magistralidan chetlatish siyosati yanada avjiga mindi”[27].

“Ushbu siyosiy jarayonlarda musulmon fundamentalizmi yetakchisi Xasan al-Banna va uning izdoshlari tomonidan o‘rtaga tashlangan oshkora siyosiy loyiha alohida e’tiborni o‘ziga jalb etadi. Zotan, bugungi kunda yuqorida bayon etilganidek, siyosiy manfaatlar, intilishlar va rejalar, ya’ni siyosiy hokimiyatga erishish yo‘lida zo‘ravonliklarni amalga oshirish uchun islomdan niqob sifatida foydalanish, uni ulkan ma’naviy qadriyat emas, totalitar siyosat doktrinasiga aylantirish amaliyoti yaqqol ko‘zga tashlanadi” [28].

Umuman olganda, XX asrda radikalizm siyosiy va ijtimoiy tafakkur tarixida juda katta iz qoldirgan sotsial-demokratik, sotsialistik va boshqa so‘l, neoliberal, shuningdek, zamonaviy neokonservativ partiyalar va harakatlar ishida o‘z aksini topgan mafkuraviy jarayon sifatida mavjud bo‘ldi[29].

Tarixiy taraqqiyot shundan guvohlik beradiki, radikallar hokimiyat tepasiga kelgan taqdirda ham ularning hukmronligi uzoq davom etmaydi.

Hozirgi davr radikalizimiga xos bo‘lgan xususiyatlardan biri ijtimoiy hayotning ham nazariy, ham amaliy muammolarini hal qilishda zo‘rlik usulidan foydalanishga moyillikdir. Bunda radikallar tinch yo‘l bilan hal qilish mumkin bo‘lgan oddiy muammolarni yechishda kuch, zo‘ravonlikdan foydalanishga intiladi. Manbalar tahliliga ko‘ra tarixning burilish nuqtalarida, tanglik yuz bergan holatlarda radikalizm avj olganligi aniqlandi

Radikalizm ekstremizmning nazariy manbai bo‘lib, ijtimoiy muammolarni hal qilishda zo‘rlik usullari va vositalaridan foydalanmoqda. Bugungi kunda radikal kayfiyatlar va qarashlar aqliy mehnat bilan shug‘ullanuvchilar orasida, lyumpenlashuv kuchaygan mamlakatlarda ko‘proq kuzatilmoqda. Chunki, XX asrda yuz bergan ilmiy-texnik taraqqiyot tufayli aqliy mehnat vakillari

---

[27] Арипов Ш.И. Жамият тараққиётига диний радикализм таҳдидининг замонавий хусусиятлари: Сиёс. фан. номз. дисс. ... -Т., 2008. -Б. 32.
[28] Арипов Ш.И. Жамият тараққиётига диний радикализм таҳдидининг замонавий хусусиятлари: Сиёс. фан. номз. дисс. ... -Т., 2008. -Б. 33.
[29] Nicolett C. Le radicalism. –P., 1967

sonining keskin oshishi har doim ham ularning moddiy turmush darajasi ko‘tarilishi va ijtimoiy mavqeining ortishi bilan birga kechmadi. Ayniqsa, ijtimoiy inqiroz va tanglik davrlarida ziyolilarning lyumpenlashuvi kuchayadi. Bu esa ular orasida radikal kayfiyatning avj olishiga sabab bo‘ldi.

Zamonaviy ilmiy adabiyotlarda radikalizm turlari va tushunchalarining mohiyatiga oid aniq fikrlar to‘liq shakllanmagan. Manbalarda radikalizm tushunchasi bir qator ma’nolarda keltirilgan. Xususan:

-radikalizmni siyosiy tendensiya sifatida talqin qilinib, unda ijtimoiy-siyosiy tizimga tanqidiy yondashilib, radikal ijtimoiy o‘zgarishlar va siyosiy islohotlar zarurligi ta’kidlanadi. Bunda radikalizm faqat ijtimoiy-siyosiy mafkura sifatida tushuniladi. Ushbu mafkuraga ko‘ra radikalizm siyosiy faoliyat usuli hisoblanmaydi;

- keskin choralarni qo‘llash orqali hal qiluvchi harakat deya ta’riflanib, bunda ijtimoiy faoliyat turidan qat’i nazar, radikalizm tegishli ijtimoiy subyektlarning harakat usullari sifatida tushuniladi[30].

- radikalizm ijtimoiy va siyosiy xususiyatga ega faoliyat sanalib, u keskin, yuqori darajada tajovuzkor mafkuraga asoslanadi. Mavjud ijtimoiy-siyosiy tizimni tubdan o‘zgartirishga qaratilgan harakatlar orqali amalga oshiriladigan ijtimoiy-siyosiy harakterdagi faoliyatni anglatadi.Ushbu faol harakter ekstremizm deb ataladi[31].

Shuni alohida ta’kidlash joizki, ushbu hodisa muayyan subyektlarning davlatdagi mavjud siyosiy tizim yoki davlatning ijtimoiy-iqtisodiy holatiga qarshi reaksiyasi sifatida talqin qilinishi ahamiyatlidir. Ushbu jarayon radikalizmning o‘zaro bog‘liq bo‘lgan ikki jihati – radikal mafkura va radikal faoliyatning paydo bo‘lishi va rivojlanishi uchun zamin yaratadi.

---

[30] Яхъяев М.Я. Причины радикализации ислама в современном мире // Исламоведение. –2012. – № 2. – С. 4-14

[31] Айтжанова Д.А. Опыт европейских стран в противодействии религиозному экстремизму: Дисс. ... д-ра по проф. – Нур-Султан, 2021. – С.21. 180 с.

Radikalizm tashuvchisi rivojlanganlik darajasiga va u joylashgan ijtimoiy sharoitga qarab keskin qarashlarni nazarda tutadi. Yuqori darajadagi ijtimoiy inqirozlar davrida radikal dunyoqarash destruktiv qudratga ega bo‘ladi. Radikal dunyoqarash ijtimoiy hayotning mavjud modelini barbod etishga qaratilgan faol harakatlarga undaydi. Bunday sharoitda radikal qarashlar tarafdorlari mamlakatdagi hokimiyatga da’vogar kuchlar tomonidan o‘z siyosiy maqsadlariga erishish uchun ideal vositaga aylanadi. Bunday hollarda diniy radikalizmga siyosiy mazmun berilib, undan hokimiyat uchun kurashda foydalaniladi.

Radikalizmning o‘ziga xos bo‘lgan turi – inqilobiy (revolyusion) radikalizm har qanday to‘siqni kuch ishlatish yo‘li bilan, shuningdek, murosasiz va qurbon berish yo‘li bilan bo‘lsada, amalga oshirishga qaratilganligi bilan ajralib turadi. Bugungi kunga kelib esa radikalizmning bu turi hokimiyat uchun, hududlarni qo‘lga kiritish yoki g‘oyalar, diniy va etnik g‘oyalar uchun siyosiy va mafkuraviy kurash yo‘lini tanlaganligi bilan ajralib turadi[32]. Siyosiy radikalizm har qanday murosadan to‘la voz kechgan holda belgilangan maqsadlarga majburiy ravishda erishishni anglatadi. Diniy radikalizm – bu ma’lum bir e’tiqod tizimi tarafdorining maqsadli harakatlar bilan birga keladigan mafkuraviy qarashlar, g‘oyalar tizimi hisoblanadi[33].

Diniy e’tiqoddan radikal maqsadlarda foydalanish hamda uni shaxsiy manfaatlar yo‘lida siyosiylashtirish umuminsoniy qadriyatlarga nisbatan destruktiv g‘oyalarning shakllanishiga sabab bo‘ladi. N.Kutuzovaning fikricha, diniy radikalizm mavjud diniy an’analar doirasida vujudga kelgan, asosiy dogmaga qarshi chiqish va tanqid qilish yo‘li bilan rivojlanadigan mafkura deb e’tirof etiladi[34]. Olima diniy radikalizmning uch turini keltiradi:

- diniy radikalizm
- diniy-etnik radikalizm;

---

[32] Galante Qarrone F. I radicali in Italia (194852). Mil., 1973

[33]Prus R. Terrorism, Tyranny and Religious Extremism as Collective Activity: Beyond the Deviant, Psychological, and Power Mystiques // The American Sociologist. - 2005. -Vol. 36(1). - P. 47-74.

[34] Кутузова Н.А. Религиозный радикализм и альтернативные социальные проекты // Религия и общество. Актуальные проблемы современного религиоведения: сб. науч. тр. - Могилев, 2008. - С. 164-167.

- diniy-siyosiy radikalizm.

Diniy radikalizm - diniy yetakchi atrofida ma'lum bir ijtimoiy-diniy loyihalarni amalga oshirish uchun shakllanadi va esxatolorik elementlar bilan to'ldiriladi. Odatda, bunday radikalizm ijtimoiy larzalarga olib kelmaydi, ommaviy namoyishlarga va siyosiy aksiyalarga chaqirmaydi;

Diniy-etnik radikalizm etnik diniy uyg'onish g'oyalaridan jahon diniy faoliyat qurilishiga qarshi tarzda shakllanadi;

Diniy-siyosiy radikalizm diniy-etnik radikalizmning davomi bo'lishi mumkin. Chunki bunday radikalizm bosiqma-bosqich siyosiy ahamiyat kasb etib boradi va o'z navbatida ekstremizmga qadar o'sib borishiga jiddiy sharoit yaratadi. Diniy-siyosiy radikalizmning maqsadi davlat darajasida diniy g'oyalarni ro'yobga chiqarish uchun diniy nizolarni vujudga keltirish yo'li bilan hokimiyatni kuch vositasida qo'lga kiritish hisoblanadi.

Manbalar tahlilida olimlar diniy radikalizm ekstremizm bilan fundamentalizm fenomeni ko'p jihatdan bir biriga bog'liq deb hisoblaydilar. Diniy fundamentalizmning asosiy vazifalaridan biri jamiyatdagi hukmron diniy tuzilmalarga qaytishdir[35]. N.Safarova tadqiqotida radikalizm, fundamentalizm, ekstremizm va terrorizmning o'zaro aloqadorligi, terrorizm klassifikatsiyasi va dinamikasi hamda unga qarshi g'oyaviy kurash masalasi tarixiy falsafiy jihatdan tahlil etilgan[36]. Demak "diniy fundamentalizmning o'zgaruvchanlik, o'sib boruvchi xususiyatlari radikalizm, ekstremizm va terrorizmning kelib chiqishiga asos bo'lgan"[37].

Diniy ekstremizm radikal amaliyotlarning oxirgi chorasi sifatida fundamentalizm ta'sirida shakllangan va g'ayriinsoniy mafkura va amaliyotga asoslanib, radikalizm va fundamentalizmga moyilligi, radikal tabiatga ega jihatlarning mavjudligi bilan din niqobi ostida zo'ravonlikning barcha shakllarini qabul qilishi mumkin.

---

[35] Marty M.E., Appleby R.S. An Interim Report on a Hypothetical Family // In book: Fundamentalisms Observed. – Chicago; London: Chicago University Press, 1991. – Vol. 1. – P. 814-842.

[36] Safarova N. Terrorizm: manbalar, maqsadi, globallashuv jarayoni. (Monografiya) T.: – Fan. 2006. –B.191.;

[37] Kurbanov D.D. Markaziy Osiyo ijtimoiy-falsafiy tafakkuri tarixining diniy fundamentalizm va ekstremizmga qarshi kurashdagi ahamiyati: Fals. f-i bo'y. fal. d-ri (PhD) diss. ... avtoref. – Buxoro, 2023. – B.12.

Bizning fikrimizcha, ilmiy adabiyotlarda diniy yoki boshqa turdagi radikalizm tushunchasi mohiyatiga oid aniq fikr shakllanmagan. Umumiy ma'noda radikalizm odatda har qanday qarashlarga, fikrlash tarziga, kontseptsiyaga o'ta murosasiz amal qilish deb tushuniladi. Ushbu atama ko'proq siyosiy va ijtimoiy sohalarda ishlatilib, u mavjud ijtimoiy tuzilmalar yoki institutlarni tubdan o'zgartirish zaruriyati vujudga kelganda qo'llaniladi.

XX- XXI asrda radikalizm siyosiy, diniy, ijtimoiy, milliy, hududiy, etnik sohalarda namoyon bo'lmoqda. Bu o'z navbatida inson ongi va shuuriga murosasizlik, o'zlariga tegishli bo'lmagan har qanday g'oya va qarashlardan norozilik kabi jarayonlarga sabab bo'lmoqda.

Jamiyat va davlat hayotida radikalizmning shakllanishi va rivojlanishiga sabab bo'luvchi omillarni quyidagilarda ko'rishimiz mumkin:

- bolalikdagi tarbiya, ya'ni oilalarda bolaga nisbatan turli bosimlar o'tkazilishi, unga ruhiy ta'sir kuchaytirilishi, uning o'ziga va kelajagiga bo'lgan ishonchiga putur yetkazilishi va boshqa holatlar;
- shaxsning o'ziga past baho berishi, hayotda o'z o'rnini topishga bo'lgan ishonchi va ishtiyoqining pastligi va eng asosiysi, o'ziga nisbatan qaysidir yo'llar bilan "yupanch" topishga intilishi;
- hayotda ro'y beradigan keskin yoki murakkab holatlarda biror bir ruhiy "zarba" olishi va undan chiqish uchun destruktiv yo'llarni qidirishi;
- shaxsning xulq-atvorida o'zgarishlar sodir bo'lishi, ya'ni birovga bo'ysinuvchanlik, tobelik va ularning izmiga tushgan holda, radikal qarashlarga ega bo'lish.

So'z va e'tiqod erkinli mavjud bo'lgan demokratik davlatlarda radikal oqimlarning kelib chiqishini aniqlash yoki uni kuzatish juda qiyin, chunki demokratiya mutlaq so'z va e'tiqod erkinligini nazarda tutadi. Radikal oqimlarni aniqlash darajasining pastligi ularni yanada rivojlanishi va tabiiy ravishda ekstremizmning paydo bo'lishiga olib keladi. Shu bilan birga, radikal qarashlar insonning mamlakatda sodir bo'layotgan va u qabul qila olmaydigan jarayonlardan

o'ziga xos himoya reaktsiyasi sifatida yuzaga kelgan bo'lishi mumkinligi kuzatiladi. O'z navbatida, qarashlarning radikalligi va ularga xos maksimalizm ekstremizmning yuzaga yordam beradi. Natijada bu yo'nalishni kuch bilan o'zgartirish yoki uni keltirib chiqaradigan siyosiy tizimni yo'q qilish istagida namoyon bo'ladi. Bunday qarashlarni amalga oshirishga chorlash ham o'z-o'zidan ekstremizm hisoblanadi.

Radikalizm va ekstremizmning kuchayishiga turmush darajasining keskin yomonlashuviga olib keladigan iqtisodiy va ijtimoiy silsilalar, shuningdek, tashqi aralashuv yordam berishi mumkin. "Ekstremizm deganda keskin qarashlarga rioya qilishga asoslangan va mavjud normalar va tamoyillarni buzish, destruktiv ta'sir ko'rsatish yoki parchalashga qaratilgan zo'ravonlik yoki boshqa noqonuniy harakatlar bilan bog'liq faoliyat tushunililadi"[38]. Ekstremizmning eng tajovuzkor ko'rinishi terrorizm bo'lib, maqsadlarga kuch bilan erishishning eng shafqatsiz usuli hisoblanadi. Shunday qilib, ko'rib chiqilayotgan tushunchalar radikalizmdan ekstremizmgacha bo'lgan ijtimoiy xavf, natijada ushbu xavfning yovuz ko'rinishi – terrorizmga qadar kuchayishi kuzatiladi. Ushbu tushunchalar mohiyatan bir-biriga mos kelishi olimlar tomonidan ilmiy asoslantirilgan.

Olim R.Prus "Radikalizmni maqsadli harakatlar tizimi bilan birga keladigan mafkuraviy qaysarlik sifatida baholaydi"[39]. Har qanday g'oyaga, uning mazmunidan qat'i nazar, ko'r-ko'rona amal qilishi biror guruh yoki muayyan shaxsni ekstremistlar qatoriga kiritishga asos bo'ladi.

Radikalizm-noqonuniy xatti-harakatlardan foydalanishni, jamoat yoki siyosiy institutlarga zarar yetkazishni anglatmaydi. "Radikal qarashlar tarafdori, agar ular huquqbuzarlik sodir etishga yoki ijtimoiy jarayonlarga salbiy ta'sir

---

[38] Hołub A. Ekstremizm i radykalizm jako środowiska rozwoju terroryzmu //Studia Politicae Universitatis Silesiensis. – 2016. – №. 17. – C. 23-38.
[39] Prus R. Terrorism, Tyranny and Religious Extremism as Collective Activity: Beyond the Deviant, Psychological, and Power Mystiques // The American Sociologist. – 2005. –Vol. 36(1). – P. 47-74.

ko‘rsatishga qodir bo‘lmasa, ular o‘z radikal qarashlarini bildirgani uchun jinoiy yoki ma’muriy javobgarlikka tortilishi mumkin emas”[40]

Shunday qilib, radikallashuvning kuchayishiga turmush darajasining keskin yomonlashuviga olib keladigan iqtisodiy va ijtimoiy jarayonlar, shuningdek, tashqi ta’sir yordam berishi mumkin.

Bizning fikrimizga asosan radikalizm va radikallashuv negativ va pozitiv shakllarda ko‘rinadi, ularning oqibat va ta’sirchanligi turli sohalar bo‘yicha namoyon bo‘ladi. Radikalizm va radikallashuv muammosining yo‘nalishlari va oqibatlari xilma-xil bo‘lganligi bois u o‘zgaruvchan hisoblanadi. Shu boisdan ham radikalizm va radikallashuv muammosi ilmiy tahliliga alohida yondashuv dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Radikalizm yoxud radikallashuvning eng xavfli ijtimoiy ta’siri shundaki, uning ta’siriga tushgan “shaxs” o‘z oila a’zolarini, yaqin qarindoshlarini, do‘stlarini, birga ishlaydigan xodimlarini (agar rahbar bo‘lsa, qo‘l ostidagilarini) ham mutaassib shaxsga aylantirishga harakat qiladi va bu jamiyatda beqarorlikka sabab bo‘ladi.

So‘ngi yillarda O‘zbekistonning xalqaro xamjamiyat bilan integratsiyala-shuvi natijasida, shuningdek, davlatda diniy, ma’naviy qadriyatlarni tiklash va musulmon mamlakatlari bilan aloqalarining tobora rivojlanib borishi sharoitida radikalizm muammosi ham yuzaga kelmoqda. “Biz jamiyatimizda har qanday radikallashuvga, yoshlar ongini buzg‘unchi yot g‘oyalar bilan zaharlashga, dindan siyosiy maqsadlarda foydalanishga, ma’rifat o‘rnini jaholat egallashiga yo‘l qo‘ymaymiz. Buning uchun nafaqat mas’ul tashkilotlar, balki barchamiz birgalikda muqaddas dinimizning insonparvarlik mohiyatini ochib berish, farzandlarimizni milliy va umumbashariy qadriyatlar ruhida tarbiyalash bo‘yicha oila, mahalla va ta’lim maskanlarida ish olib borishimiz zarur”[41].

---

[40] Колов А.М. Актуальные проблемы деятельности органов внутренних дел по противодействию экстремизму: лекция. – Домодедово: ВИПК МВД России, 2008. – 14 с.

[41] O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga Murojaatnomasi
// “Xalq so‘zi” gazetasi, 2022 yil 20 dekabr, №272 (8334), - B.3.

Ma’lumki, O‘zbekistonda diniy sohadagi islohotlarning tobora jadal olib borilishi jaryonida shaxs yoki guruhning mavjud ijtimoiy, siyosiy va madaniy holatini tubdan va murosasiz o‘zgartirish istagi, xorijdagi destruktiv kuchlarning mafkuraviy bosimi ostiga tushib qolayotganlarning soni sezilarli darajada ko‘payib bormoqda. Aytish mumkinki, radikalizm ijtimoiy, siyosiy, mafkuraviy jarayon sifatida diniy yo‘nalishda ham kuzatilmoqda. Eng murakkabi radikalizm qopqoniga tushib qolayotgan “shaxs” o‘z diniy qarashlarini to‘g‘ri deb bilayotganligi, boshqa e’tiqodiy qarashlar va fikrlarga murosasizligi, sodir bo‘layotgan har qanday o‘zgarishlar va jarayonlarga nisbatan keskinlik asosida yondashayotganligi kuzatilmoqda. Umuman olganda, radikalizmning bugungi kundagi xavfli tomoni radikallar o‘z g‘oyalari, islomiy fundamental qarashlarini radikal yo‘llar bilan, kerak bo‘lsa, ekstremistik uslublar yordamida zo‘rlik yo‘llari bilan singdirish tarafdori bo‘layotganligidir.

O‘zbekiston azaldan Buyuk Ipak yo‘lida joylashganligi, mintaqamizda savdo-sotiq va boshqa masalalarda ko‘plab savdogalar va sayyohlarning tashrif buyurishi natijasida noyob ko‘pkonfessional jamiyat shakllanib, aholi ham diniy qarashlar borasida anchayin tolerant. Ammo, so‘nggi yillarda jamiyatda radikalizmga moyil shaxslar qarashlarida va ba’zan ijtimoiy tarmoqlardagi faoliyatlarda jamiyatda mavjud turli diniy konfessiyalarlarga keskinlik bilan yondashish, bir din doirasidagi o‘zga mazhab yoki qarashlarni murosasiz inkor etish hamda ularni raqib sifatida qabul qilish namoyon bo‘layotganligini bir tomondan achinarli va bir tomondan xavfli tendansiya sifatida baholash mumkin.

Radikalizm – bugungi kunda yoshlar ongu-ruhiga jiddiy salbiy ta’sir ko‘rsatayotgan jarayon sifatida xavfli tendensiyaga aylanmoqda. Radikalizm davlat va jamiyatning tinchligi va barqarorligi uchun jiddiy xavotir uyg‘otadigan ijtimoiy, siyosiy voqelik sifatida namoyon bo‘lmoqda. Manbalar tahlili natijasida aynan yoshlarning turli oqimlar ta’siriga tushib qolishi, diniy radikal kuchlarning “o‘ljasiga” aylanishining dastlabki qadami sifatida – ularda yod g‘oyalarga qarshi immunitetning yetarli darajada hosil bo‘lmaganligi sharoitida turli diniy “ilm”larni

egallashga bo‘lgan qiziqish va intilishining ortishi, ushbu ilmni egallashda turli axborotlarga ishonuvchanligi, katta muvaffaqiyatlarga birdaniga erishishga bo‘lgan intilishi kabi ma’naviy-ruhiy omillar alohida o‘rin tutishi aniqlandi. Shuningdek, ijtimoiy vaziyat ham shaxsning radikallashuvining asosiy omili bo‘lib xizmat qiladi. Ya’ni, oiladagi moddiy etishmovchiliklar, ishsizlik, qiyinchilik va ular tufayli shaxsning jamiyatdan yoki hokimiyatdan norozi bo‘lishi, alamzadalikning chuqurlashib borishiga sabab bo‘ladi.

Radikallashuv xavfli ijtimoiy, ma’naviy va mafkuraviy hodisa hisoblanadi, chunki uning oqibatida jamiyatda kuchli o‘zgarishlar va qayta talqinlar amalga oshiriladi. Bizning fikrimizcha radikallashuv, turli sohalarda turlicha tahlil etilishi mumkin, ammo umumiy tarzda, ular quyidagi shakllarda uchraydi:

Ijtimoiy radikallashuv: Bu, ijtimoiy tizim yoki hukumat o‘zgarishlarini talqin qilish ko‘rinishidagi intensiv o‘zgarishlarni anglatadi. Bu tarzda radikallashuv keng qamrovli masalalarni qamrab oladi. Masalan, ijtimoiy reformalar, ijtimoiy teknologiyalardagi o‘zgarishlar va boshqa o‘zgarishlar kiritish mumkin.

Siyosiy radikallashuv: Siyosiy radikallashuv, mavjud hukumat yoki siyosiy rejimlarning yo‘q qilinishi yoki majburiy o‘zgarishlarni talqin qilishga harakat qilish tushuntiradi. Bu odatda davlat strukturasi va siyosiy vositalarning o‘zgarishiga ko‘ra sodir bo‘ladi, jarayon tashkilotlar yoki guruhlar tomonidan amalga oshiriladi.

Diniy radikallashuv: mazhab yoki dini oqimlarni talqin qilishga harakat qilishni tushuntiradi. Bu odatda diniy guruhlar va tashkilotlar tomonidan amalga oshiriladi va ularning o‘ziga xos tafsilotlari va interpretatsiyalari mavjud bo‘ladi.

Ma’naviy radikallashuv: Ma’naviy me’yoriy tizimlar, tarixiy qadriyatlarning o‘zgarishiga asoslangan, bir mamlakat, xalq yoki jamiyatga qarshi qaratilgan radikallik ko‘rsatkichidir. Bu tarzdagi radikallashuv, mafkuralarni, g‘oya va qarashlarning o‘zgarishini talqin qilish kabi tashqi ta’sir bilan bog‘liq.

Mafkuraviy radikallashuv: Bu, bir kishi yoki guruhning o‘zini ta’sir etayotgan tushuncha va mafkurasining qayta talqinidir. Bu xususiyatga ega bo‘lgan

har bir tuzatish, o‘ylar, maqbul ko‘rsatish yoki mafkura, ijtimoiy tadbirlar va rivojlantirish uchun radikal rejimlar va tushunchalar kabi g‘oya va qayta talqinlarni qamrab oladi.

Radikallashuvning har bir turi o‘ziga xos ko‘rinishga, asosiy sabab va oqibatlarga ega bo‘lib, mazmun jihatidan bir biriga uzviy bog‘liqdir. Radikallashuv odatdagilarga nisbatan kuchli o‘zgarishlarni amalga oshirishi sababli xavfli hisoblanadi. Radikallashuv va uning oqibatlari bilan bog‘liq tahlillar shuni ko‘rsamoqdaki radikallashuv va unga qarshi kurashish uchun kopleks mexanizm ishlab chiqilishi va bu mexanizmni hayotga tatbiq etish ko‘p vaqt talab qiladi.

Xulosa sifatida keltirish mumkinki, globallashuv jarayonlari tobora chuqurlashib borayotganligi bilan harakterlanadigan bugungi dunyoning eng katta muammolaridan biri – bu uning fundamental xavfsizligi va barqarorligini ta’minlaydigan institutlar faoliyatini turli destruktiv omillar va tendensiyalardan siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va mafkuraviy himoya qilish bo‘lib qolmoqda. Haozirgi kunda bunday tendensiyalar mintaqaviy chegaradan chiqib, global muammoga aylandi.

## 1.2. Radikalizm muammosining oldini olish hamda unga qarshi kurashish borasidagi ilg‘or amaliyotlar

Bugungi kunda radikallashuv va ekstremizmning tarqalishi butun dunyo xavfsizligiga rahna solib, sodir bo‘layotgan voqeyliklarning turli mamlakatlardagi ko‘rinishlari, xalqaro jarayonlarga va davlatlar tashqi siyosatiga ta’siri kuchaymoqda. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganidek “Butun dunyo-da kuchayib borayotgan radikalizm, ekstremizm, terrorizm, odam savdosi, giyohvandlik kabi xatarlar, afsuski, bizni ham chetlab o‘tmayapti. … Biz jamiyatimizda har qanday radikallashuvga, yoshlarimiz ongini buzg‘unchi yot g‘oyalar bilan zaharlashga, dindan siyosiy maqsadlarda foydalanishga, ma’rifat o‘rnini jaholat egallashiga yo‘l qo‘ymaymiz”[42].

[42] O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning 2022-yil 20-dekabrdagi Oliy Majlisga yo‘llagan murojaatnomasi https://president.uz/oz/lists/view/5774

Radikalizm va zo‘ravon ekstremizmning oldini olish, unga qarshi kurashish nafaqat alohida davlatlarning, balki jahon hamjamiyatining eng asosiy va dolzarb vazifasi ekanligini ko‘rsatdi. O‘zbekistan Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimov ta’biri bilan aytganda, “Bugungi kunda xalqaro terrorizm, ekstremizm va radikalizmga qarshi kurashish dunyo mamlakatlarini birlashtiradigan asosiy omil bo‘lib qolmoqda”[43].

Yuqoridagi manbalar tahliliga taya’nib shuni ta’kidlash lozimki globallashuv va mafkuraviy jarayonlarda radikalizm muammosi, ya’ni radikal g‘oyalarni va fikrlarni ko‘rsatib turuvchi harakatlar, dunyo bo‘ylab, turli mamlakatlarda va jamiyatlar o‘rtasida rivojlanib bormoqda. Bu muammo, tarbiya va madaniyatdagi o‘zgarishlar, global kommunikatsiya vositalarining o‘sishiga, aniq normativlarning ta’siri va siyosiy jihatlar, ekologik va iqtisodiy o‘zgarishlar bilan bog‘liq.

Jamiyat va zamonaviy dunyo taraqqiyotini ta’minlash uchun radikalizmga, zo‘ravonlikka, ekstremizmga qarshi kurashish yo‘li bilangina erishish mumkinligini hayotning o‘zi ko‘rsatmoqda.

Olim S.Samoylov tadqiqotida “radikalizm g‘oya emas, balki hulq-atvor modeli” deya keltirilgan[44]. Y.Yaxyayev “radikalizmni ilg‘or inqilobiy rivojlanishni nazarda tutuvchi konstruktiv va buzg‘unchi konservatizmni ilgari suruvchi destruktiv yo‘nalishga ajratadi. Har ikkala yo‘nalish ham mavjud hokimiyat tizimini va jamiyat asoslarini yo‘q qilishni nazarda tutishini ta’kidlaydi”[45].

“Globallashuv jarayoni o‘z mohiyatiga ko‘ra oddiy, silliq va ziddiyatli bo‘lishi mumkin emas. Bu har kimga va har bir kishiga, alohida shaxslar, kichik va katta jamoalar, davlatlar va mintaqalar, xalqlar va sivilizatsiyalarga daxldor

---

[43] Каримов И.А. Бизнинг бош мақсадимиз - жамиятни демократлаштириш ва янгилаш, мамлакатни модернизаця ва ислоҳ этишдир. Т.: Узбекистон, 2005. -Б. 64

[44] Самойлов С.Ф. К проблеме разграничения понятий социального и политического радикализма // Общество: политика, экономика, право. - 2008. - № 2. - С. 81-87.

[45] Яхъяев М.Я. Причины радикализации ислама в современном мире //Исламоведение. -2012. - № 2. -С. 4-14.

bo‘lib ularga ma’lum ma’noda ta’sir qiladi”[46]. Darhaqiqat, globallashuv jarayoni barcha sohalarni nazardan chetda qoldirmadi. Ayniqsa, ushbu jarayonda dindan ijobiy yoki salbiy ko‘rinishda foydalanish imkoniyati yanada oshdi. Bunda dindan qay maqsadni ko‘zda tutilganligi uning mo‘tadil yoki radikal ko‘rinish kasb etishiga olib keldi.

“Xavfsizlik sohasida yangi xavf-xatar va tahdidlarga qarshi kurashish borasidagi hamkorlikni mustahkamlash, ekstremizm va radikalizm, odam savdosi, uyushgan va kiberjinoyatchilikka qarshi kurashish hamda chegaralarni qo‘riqlash sohasida sheriklik dasturlarini ishlab chiqish birgalikdagi ishlarning eng muhim yo‘nalishidir”[47]. Ma’lumki, davlat-siyosiy mexanizmlarini amalga oshirish doirasida jamiyat manfaatlaridan kelib chiqib, har bir davlat qator ustuvor va istiqbolli yo‘nalishlarni shakllantiradi. Birinchi navbatda, bu amaliyot xavfsizlik siyosatini amalga oshirish bilan bog‘liqdir. Davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlarini shakllantirishning yana bir sababi – davlat, ijtimoiy va siyosiy rivojlanish manfaatlarini yuqori darajada amalga oshirishni ta’minlaydigan sohalarni takomillashtirish zarurati yotadi. Xavfsizlik siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri jamiyat va shaxs manfaatlari xavfsizligini ta’minlash hisoblanadi. Ushbu yo‘nalishni shakllantirish va rivojlantirishning birinchi bosqichida fuqarolarning jismoniy xavfsizligini ta’minlashga ustuvorlik qaratiladi.

Tarixdan ma’lumki, mafkuraning barcha turlari har doim turli-tuman, qarama-qarshi siyosiy kuchlarning qo‘lida qurol vazifasini o‘tab kelgan. Dastlab, din mafkuraning ko‘rinishi sifatida uzoq yillar dunyoviy mafkuralar bilan raqobat qilish imkoniyatiga ega bo‘lmagan[48], - deb ta’kidlaydi professor V.Sokolov. Taxminan XVII asrlarga kelib, ilmiy-texnik, keyinchalik esa texnologik taraqqiyot sharoitda siyosatni o‘zgartirishning vositasi sifatida dunyoviy ilmga tayangan

---

[46] Демидов Г.В. Религиозное образование в постсекулярном обществе: Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата философских наук. - Москва: 2018

[47] Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг 2023 йил 2 июнда Чўлпонота шаҳрида ўтказилган Марказий Осиё ва Европа Иттифоқи етакчиларининг иккинчи учрашувида сўзлаган нутқи

[48] Соколов В. Субъектно - объектная суть философии и её проявление в цивилизационном и историко-философском процессе. // Вест. Моек, ун-та, Сер.7, Философия, №3, 1999, - С.8.

g‘oyalar ustunlik qila boshlagan. Bunda barcha jarayonlar zamirida ilm-fan, zakovat kuchi yotadi, dunyoni o‘zgartirishning asosi ham ular, degan fikr hukmron bo‘ldi.

Diniy va dunyoviy mafkura o‘rtasidagi qarama-qarshilikning eng katta oqibati jamiyatning mafkuraviy, qadriyat va axloqiy yo‘nalishlarga bo‘linishi hisoblanadi. Shuning uchun jamiyat taraqqiyotining diniy va dunyoviy tamoyillari o‘rtasida eng maqbul o‘zaro ta’sirga erishish, o‘zaro hurmat va birlikni saqlash asosidagi murosalarni topish zarurdir[49].

Darhaqiqat, dunyoviy davlatda diniy bag‘rikenglik tamoyillarining ustunligi desekulyarizatsiya’ning mo‘tadil holatda bo‘lishiga imkon beradi. Shu bois, dunyoviy davlat konsepsiyasida bag‘rikenglik tamoyilidan kelib chiqib munosabatda bo‘lish, globallashuv davridagi din omili bilan bog‘liq muammolarni ziddiyatlarsiz hal etishga yordam beradi hamda global muammolarni vujudga kelishini oldini oladi.

Ijtimoiy hayotning murakkablashib borishi, global bo‘hronlar insonlarni dinga tobora ko‘proq murojaat qilishlariga, diniy shiorlar ostida dinning an’anaviy shakllariga qaytish iddaosi bilan uni radikallashuviga sabab bo‘layotgan din niqobi ostidagi guruhlarning ham urchib ketishiga sharoit yaratib berdi. Shuning uchun bugun dindorlik jihati ham turli xil ko‘rinishlarda namoyon bo‘lmoqda.

“XX asr oxirlarida din niqobi ostidagi guruhlar islomning yashil bayrog‘idan foydalangan holda harakat qilishlari, ularning radikal to‘lqinlarini tezda ilg‘ashning imkonini yo‘qotdi”[50]. XXI asr boshlariga kelib ichki va tashqi omillar sababli ayrim mamlakatlarda islom dinining siyosiylashuvi hamda radikallashuvi kuzatildi. Radikalizmga, zo‘ravonlikka, ekstremizmga qarshi kurashish muammosi nafaqat O‘zbekiston yoki Markaziy Osiyo uchun, balki, butun musulmon

---

[49] Элебаева А.Б. и др. Влияние религиозного фактора на социально-политическую ситуацію в Кыргызской Республике. - Бишкек: ОсОО Триада Принт, 2016.

[50] Ёдгоров Ш. Миср Араб Республикасининг диний экстремизм ва терроризмга қарши курашиш тажрибаси (XX аср охири–XXI аср бошлари) //Общество и инновации. – 2021. – Т. 2. – №. 5/S. – С. 503-511.

mamlakatlari uchun ham o‘ta dolzarb masalalardan, muammolardan biriga aylandi.

Tashkilotlar ham, shaxslar ham radikalizm subyekti hisoblansada ularning har birini ekstremist deb ta’riflab bo‘lmaydi. Ekstremistik faoliyat hukmron bo‘lgan taqdirdagina ular ekstremist deyiladi.

Diniy radikalizm o‘z-o‘zidan barcha diniy tashkilotlar uchun me’yor hisoblanmaydi, lekin individualistik modelga tayanadigan tashkilotlarda bunday potensial u yoki bu darajada mavjud bo‘ladi. O‘z-o‘zidan individualistik model har qanday ekstremistik harakatni talab qiladigan omil emas.

Dinga asoslanmagan ekstremizm keng qamrovga ega bo‘lmaydi. Diniy ekstremizm mafkuraviy tarkibiy qismga ega bo‘lib o‘z mafkurasining mutlaq haqiqati va har tomonlama ahamiyatiga ishongan ko‘plab insonlarni qamrab olishga va butun jamiyatni noqonuniy harakatlar orqali o‘ziga bo‘ysundirishga qodir. Diniy ekstremizmning namoyon bo‘lishi ham diniy harakatdagi ichki vaziyat, ham jamiyatdagi siyosiy, iqtisodiy yoki ijtimoiy vaziyat bilan bog‘liq bo‘lgan o‘ziga xos xususiyatlarga bog‘liq.

Jahon xalqaro tashkilotlari va ilmiy tadqiqot markazlari tahlillarida radikallashuvga olib keladigan omillarning oldini olish va deradikalizatsiya’ni kuchaytirish kerakligi alohida ta’kidlab o‘tilgan. Olib borilgan tahlillarda jamiyatda turli masalalarda yechimini topmagan qarashlar va ijtimoiy muammolar natijasida odamlarda nisbatan radikal qarash hamda munosabatlar shakllanishi tasdiqlangan[51]. Insonlar orasida radikallashganlarning ko‘payib borishi esa ularning destruktiv faoliyat olib borishiga turtki bo‘lgan.

Mavzuga oid manbalar tahlilida olimlar, xalqaro ekspertlar radikallashuv, zo‘ravon ekstremizmga quyidagi jihatlar sabab bo‘lishini keltirishadi:

- ijtimoiy-iqtisodiy imkoniyatlarning yo‘qligi;
- chetga surib qo‘yish va kamsitish;

---

[51] Стратегии Конгресса по борбе с радикализаций. Предупреждение радикализации и проявлений ненависти на местном уровне // URL: https://rm.coe.int/1680719e1c, 20.10.2015.

- boshqaruv samarasizligi, inson huquqi va qonun ustuvorligining buzilishi;

- cho‘zilib ketgan va to‘xtatib bo‘lmayotgan mojarolar

- qamoqxonalardagi radikallashuv.

Ushbu omillar o‘zaro bir biriga bog‘liq bo‘lib, ularni alohida-alohida o‘rganmaslik kerak, chunki ushbu jarayon amalga oshishida juda ko‘plab omillar birga ishga tushgan bo‘ladi. Manbalar tahlilida dunyoda bugungi kungacha radikalizm muammosini hal qilishda tayyor mexanizm mavjud emasligi aniqlandi. Radikalizm, ekstremizm va terrorizmning oshib ketishiga ko‘maklashuvchi yuqoridagi omillarning barchasiga to‘g‘ri ilmiy baho berish zarur, chunki har bir omilga alohida yondashuv zarur.

Radikalizmning oldini olish va unga qarshi kurashish bo‘yicha ilg‘or amaliyotlar quyidagilardir:

Ta’lim va ma’rifat: Radikalizm muammosining oldini olishda ta’lim va ma’rifat tizimlari muhim ahamiyatga ega. Bunda, yoshlar ongiga soxta qadriyatlar singdirilmasligi, ma’rifatli kishilar jamiyatini shakllantirish, ushbu jamiyatda ma’naviy va axloqiy qadriyatlarni moddiy qadriyatlardan ustunligini ta’minlash. Aniq shakllangan, millat jipsligini ta’minlash muhimdir;

Media va kommunikatsiya: Media vositalari va global kommunikatsiya tarmoqlari radikal fikrlarni yoyish yoki aksincha ushbu radikal fikrlarga qarshi kurashda muhim ahamiyatiga ega.

Doimiy hamkorlik va bog‘liqlik: Hukumat, jamoat birlashmalari, tashkilotlar va diniy muassasalar o‘rtasidagi doimiy hamkorlikning o‘rnatilganligi radikalizmga qarshi kurashish uchun muhimdir. Davlat va tashkilotlar o‘rtasidagi hamkorlik radikalizm muammosining oldini olish va unga qarshi kurashishda asosiy o‘rin tutadi.

Strategik dastur va yo‘riqnomalar: Xalqaro miqyosda mamlakatlar va tashkilotlar bilan birgalikda radikalizmning oldini olish ga yo‘naltirilgan strategik dastur va yo‘riqnomalar ishlab chiqilishi hamda ularning kompleks joriy etilishi muhimdir. Strategik dastur va yo‘riqnomalar radikalizmga qarshi kurashishda

ko‘prik vazifasini bajaradi hamda davlatlar va tashkilotlar o‘rtasidagi hamjihatlik va birdamlikni kuchaytiradi.

Dinamik jamiyat: Jamiyat va tashkilotlarni o‘zgaruvchanlik va yangiliklar bilan hamohangligini ta’minlash. Jamiyat va tashkilotlar o‘rtasidagi o‘zaro hamkorlik va yangiliklar bilan hamohanglik jamiyatdagi radikal qarashlar, o‘zgaruvchan tushunchalarni aniqlashga va ularga qarshi kurashish mexanizmini davr talabi asosida yangilash imkonini beradi.

Radikalizm muammosi kengayib borayotgan global va mafkuraviy jarayonlar bilan chambarchas bog‘liqligi bois radikalizmga qarshi kurashishda ushbu amaliyotlarni alohida qo‘llash maqsadga muvofiq emas. “Terrorizm, ekstremizm va yoshlarning radikallashuvi, kiberjinoyatchilik, narkotik vositalarning tarqalishi, transchegaraviy jinoiy guruhlar faoliyatiga qarshi kurashishda kuchlarni birlashtirish hamda favqulodda vaziyatlarda tezkor harakat qilish bilan bog‘liq”[52] Radikalizmga qarshi kurashishda har bir mamlakat va tashkilotlarning o‘z vazifalari va qarashlari borligini unutmaslik kerak.

Mavzuning mantiqiy davomi sifatida davlatlarning radikalizmga qarshi kurashish borasida o‘ziga xos uslub va hayotiy tajribalarni tahlilga tortamiz.

Avstraliya qonunchiligida “radikalizm, ekstremizm, zo‘ravonlik ishlatilishini qo‘llab-quvvatlaydigan kishilarning ishongan narsalari va amallari yoki undan mafkuraviy, diniy yoki siyosiy maqsadlarga erishish yo‘lida foydalanishi deya ta’riflangan. Bu terrorizmni hamda siyosiy sabablar turtki bergan va jamoatlararo zo‘ravonlikning boshqa shakllarini o‘z ichiga oladi”[53]. AQShda Federal tergov byurosi (FTB) zo‘ravonlik ekstremizm va radikallashuvga “siyosiy, mafkuraviy, diniy, ijtimoiy yoki iqtisodiy maqsadlarga erishish yo‘lida zo‘ravonlik harakatini

[52] Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг 2023 йил 20 октябрдаги “Туркий давлатлар ташкилотига аъзо давлатлар Хавфсизлик кенгашлари котибларининг иккинчи йиғилишида”ги нутқи

[53] Simon Cullen. Islamic extremism remains Australia’s top terror threat. Canberra. 22 October 2012. URL: http://abcasiapacificnews.com/stories/201110/3337440.htm?desktop

amalga oshirishni rag‘batlantirish, unga yo‘l qo‘yib berish, oqlash yoki qo‘llab-quvvatlash”[54] deb ta’rif beradi.

Radikalizmga qarshi kurashayotgan davlatlardan biri – Saudiya Arabistoni. Arabiston yarim orolida joylashgan ushbu mamlakat, garchi islom dinining markazi, jamiyatning bir muncha konservativligi bilan ajralib tursada, radikalizmga qarshi kurashish bo‘yicha juda katta tajribaga egaligi bilan ham alohida e’tiborga molik davlat hisoblanadi. So‘nggi yillarda radikal kuchlar tomonidan Internet tarmog‘idan o‘z g‘oyalarini kengroq tarqatish va shu yo‘l bilan o‘z tarafdorlari sonini orttirishga bo‘lgan urinishlarining ortib borishi sharoitida Saudiya hukumatini jamiyat va undagi yoshlar qatlamining radikallashuvining oldini olish borasida profilaktik choralarni kuchaytirishga undamoqda. Mamlakatning Din ishlari bo‘yicha vazirligi yordami bilan islom ulamolari, olimu-fuzalolari radikal g‘oyalar ta’siriga tushib qolganlar bilan aloqaga kirishadilar va ular bilan bahs yoki muloqotga kirishishdan oldin qamoqxonalarda radikal qarashlari uchun jazo muddatini o‘tayotganlar bilan bo‘lgan muloqot tajribalaridan foydalangan holda, sayt foydalanuvchilaridan diniy talqinlari borasidagi Qur’on talqinlarini tushuntirib berishlarini so‘raydilar[55]. Bunday yozishmalar Internet tarmoqlariga joylashtiriladi va boshqa foydalanuvchilarni islomning va uning g‘oyalarining zo‘ravonlikka qarshi ekanligidan xabardor qilishda foydalaniladi.

Saudiya Arabistoni tajribasida o‘ziga xos jihatlar namoyon bo‘ladi. Xususan, radikalizmga qarshi kurashayotgan ushbu davlat siyosatida radikalizmga qarshi kurashish bo‘yicha juda katta tajribaga egaligi bilan ham alohida e’tiborga molik davlat hisoblanadi.

“Saudiya Arabistoni kiberxavfsizlik masalasini terrorizm xavfi bilan birgalikdagi faoliyat sifatida ko‘radi va shu bo‘yicha strategik mukammal dasturlarni ishlab chiqib, butun jamiyatni qamrab oluvchi usullar bilan omma

---

[54] Hate Crime Statistics, 2007. Federal Bureau of Investigation. October, 2008. URL: http://www.fbi.gov/about-us/investigate/ civilrights/hate_crimes

[55] Юрченко В.П. Саудовская Аравия: проблемы противодействия терроризму и исламскому экстремизму. http://www.iimes.ru/?p=3000

ongidan ekstremistik kayfiyatni yo‘q qilishga harakat qilmoqda. Saudiya’ning bu boradagi xatti-harakatlari ikki bosqichli bo‘lib, u rasman 2005- yildan boshlab ishga tushirildi. Avvaliga shubhali terrorchilarni qamoqqa olish bilan boshlandi. Biroq, faqat bu harakatlar bilan chegaralanib qolinmadi. Qamoqdagi shaxslar bilan tezda muloqot o‘rnatilib, radikallashuvning asosiy sabablari o‘rganildi hamda ularning islom dini bo‘yicha tushunchalari tahlil qilindi. Ushbu tizimli ishlar asosan uch xil kesimda tashkil qilindi: diniy, ruhiy va madaniy. Saudiya hukumati tomonidan olib borilgan bunday dasturlar ekstremistlar sonini keskin kamaytirgan bo‘lishiga qaramay, ayrim muammolar haligacha saqlanib qolmoqda. Jumladan, so‘nggi yillarda radikal kuchlar tomonidan internet tarmog‘idan g‘oyalarini kengroq tarqatish va shu yo‘l bilan o‘z tarafdorlari sonini orttirishga bo‘lgan urinishlarining ortib borishi sharoitida Saudiya hukumatini jamiyat va undagi yoshlar qatlami radikallashuvining oldini olish borasida profilaktik choralarni kuchaytirishga undamoqda”[56].

Saudiya rasmiylarining ma’lumotlariga ko‘ra, 1998- yilda 15 ta ekstremistik veb-sahifa mavjud bo‘lgan, hozirgi kunda bir necha ming veb-sahifalarni tashkil etadi. Ularning aksariyati o‘z serverlarini Saudiya Arabistonidan tashqarida, AQSh, Yevropa, Xitoy va Janubiy-Sharqiy Osiyo davlatlarida joylashtirgan.

Garchi, radikallashuv jarayoniga turli yoshdagilar duch kelsalarda, odatda o‘smirlar va yoshlar qatlami o‘zligini anglashga bo‘lgan intilishlari yoki daxldorlik hissi tufayli zo‘ravon ekstremizm va terroristik radikallashuv mafkuralari uchun nozik qatlam hisoblanadi. Bunday amaliyot joriy qilinishida ko‘plab G‘arbiy Yevropa mamlakatlari tajribalaridan ham foydalaniladi. Ular ichida – radikallashuv hodisasini o‘rganish va shu asosda, radikallashuv ehtimoli yuqori bo‘lgan yoshlar qatlamini maktabdan tashqari mashg‘ulotlarga (sport, turizm, dunyoviy fanlar, kosmonavtika va hokazo), volontyorlik sohasiga keng jalb qilish (masalan, keksalarning uylariga tashriflar, masjidlar va ijtimoiy maskanlarni tozalash, turli

[56] Turdiyev U.R. Markaziy Osiyo mintaqasida kiberxavfsizlikni ta’minlashning ijtimoiy-siyosiy jihatlari: Siyosiy fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD) diss. avtoref. –Toshkent, 2023. –Б.18. 64 б.

konkurslar tashkil qilish va o‘tkazish, mehnat va ta’lim yordamlarini ko‘rsatish, ota-onalarga yordam berishga keng jalb qilish tashkil qiladi. Bunday faoliyatning katta qismi yoshlar tashkilotlari bilan ishlashga yo‘naltirilmoqda.

Shular bilan bir qatorda, Saudiya Arabistoni ichki ishlar vazirligi qoshidagi Media-maslahat qo‘mitasi maktablar va masjidlar uchun ko‘plab o‘quv materiallari va broshyuralar chop qiladi. Ushbu qo‘mitaning asosiy ishi yoshlar o‘rtasida ta’lim va targ‘ibot ishlarini kuchaytirishga qaratilganligi bilan alohida ahamiyatga ega. OAVlari va boshqa axborot kanallari orqali yoshlarning ekstremistik kuchlar ta’siriga tushib qolishlarining asosiy sababi sifatida islomni to‘g‘ri va aql bilan tushunmaganligi ko‘rsatiladi.

Shuningdek, hukumat tomonidan radikallashuvga qarshi siyosiy va huquqiy choralar ham kuchaytirilgan bo‘lib, ko‘plab radikallar jinoiy javobgarlikka tortiladilar va oxir-oqibat, to‘g‘ri yo‘lni tanlamaganligi uchun o‘limga hukm qilinadi. Bu amaliyot oxirgi keskin chora sifatida qo‘llaniladi. Lekin mamlakatda radikallashuvga qarshi eng samarali kurash – bu mafkuraviy kurash ekanligi allaqachon anglab etilgan.

Mafkuraviy ishlar qatorida, o‘z qilmishlaridan pushaymon bo‘lgan sobiq radikallar bilan bo‘lgan intervyo‘lar, Suriya va boshqa mamlakatlardagi jangarilarning jinoiy qilmishlari, alkogol va narkotik moddalar iste’moli bilan bog‘liq “jirkanch” ishlari doimiy ko‘rsatib boriladi va bu holatlar ham zo‘ravon ekstremizmga qarshi kurashishning samarali vositasi sifatida jadal olib boriladi[57].

Radikallashuv va ekstremizga qarshi kurash borasida katta tajribaga ega bo‘lgan, texnologik jihatdan tobora taraqqiy yetib borayotgan yana bir davlat – Turkiya Respublikasi bo‘lib, mamlakatda radikal kuchlarga qarshi kurashish bilan bog‘liq juda zalvorli tarix mavjud. Bugungi Turkiya radikalizmga qarshi kurashishning yorqin misoli sifatida ham qayd etiladi.

---

[57] Rabasa Angel, Pettyjohn Stacie L., Ghez Jeremy J., Boucek Christopher. Deradicalizing Islamist Extremists. RAND Corporation, 2010. https://www.rand.org/content/dam/rand/pubs/monographs/2010/RAND_MG1053.pdf

Turkiyada deyarli 20 yil davomida mo‘tadil islomiy, shuningdek, asosiy mafkurasi “konservativ demokratiya” bo‘lgan Adolat va taraqqiyot partiyasi hukmronlik qilayotgan bo‘lsada, mamlakat radikallashuvga, zo‘ravonlikka samarali qarshilik ko‘rsata olmoqda. Buning asosiy sababi sifatida biz islom va dunyoviylik o‘rtasida shakllangan muvozanatli munosabatni keltirishimiz mumkin. Mamlakatda turli siyosiy qarashlarning mavjudligi, ham diniy va ham dunyoviylikning o‘zaro “til topishishi” bilan bog‘liq jarayonlar tarixiga deyarli 100 yil bo‘ladi. O‘z vaqtida Turkiya Respublikasining asoschisi Mustafo Kamol Otaturk ekstremistik kuchlarga qarshi olib borgan murosasiz kurashi tufayli mamlakat butunlay sekulyar jamiyatga aylantirilgan edi. Ammo, o‘tgan asrning 80-yillarida sodir bo‘lgan islom uyg‘onishi bilan bog‘liq xalqaro jarayonlar Turkiyaga ham o‘z ta’sirini o‘tkazdi[58]. Ammo, mamlakatda dunyoviylikning, ilm-fanning, modernning keng targ‘iboti tufayli, shuningdek, yoshlarda islom yoki diniylikka qaraganda, milliylik (buyuk Turk millati) tuyg‘usini kuchaytirishga qaratilgan asosiy e’tibor tufayli bugun mamlakat radikalizm va diniy ekstremizga qarshi samarali kurash olib bora olish layoqatini yo‘qotmagan. Mamlakatda diniy va dunyoviy tuzum tarafdorlari o‘rtasidagi qarashlarda kelishmovchilik bo‘lsada, dunyoviy hayot tarafdorlari tomonidan Turkiya’ning o‘z modernizatsiya loyihalari mavjudligi, liberal hayot, demokratiya va fuqarolik institutlarining shiddati kabilar siyosiy jarayonlarning asosini tashkil qiladi.

Radikalizm va zo‘ravonlikning ikkinchi tomoni – bu millatlararo munosabatlarda o‘z aksini topgan bo‘lib, Turkiyada mavjud kurd millatining mustaqillikka erishish uchun jon-jahdi bilan kurashishi, millatchilik va separatizm g‘oyalariga yo‘g‘rilgan zo‘ravonlikning avj olishi bilan bog‘liq holatlar tez-tez sodir bo‘lib turadi. Bunga qarshi garchi, Turkiya aksariyat hollarda harbiy yo‘l bilan kurashsada, lekin millatlararo munosabatlarda ham muvozanatni ta’minlashga alohida mafkuraviy e’tibor qaratilmoqda.

[58] Шлыков П. Ближневосточная политика Турции в контексте «арабской весны». - URL: http://perspektivy.info

Turkiyada sekulyar jamiyatning mezonlari bugungi kunda eng dolzarb mavzulardan biri bo‘lib qolmoqda va jamiyatning o‘zi har qanday zo‘ravonlikka qarshi kurashish borasida katta immunitetga ega. Bunday yutuqqa erishilishining asosi – bu mamlakatda ta’lim tizimining tobora zamonaviylashib borayotganligi, aholining aksariyat qismi ma’rifatliligi, Yevropa bilan integratsiya jarayonlarining parametrlari mavjudligi, mamlakatda turli millatlar va elatlarning, diniy konfes-siyalarning o‘zaro yelkama-yelka hamkorligini ko‘rsatish mumkin.

Radikalizm, ekstremiz va zo‘ravonlikdan jabr ko‘rayotgan davlatlardan yana biri sifatida Pokistonni ko‘rsatishimiz mumkin. Ushbu mamlakat aholi soni bo‘yicha juda katta musulmon mamlakatlaridan biri bo‘lib, so‘nggi vaqtlarda islomiy ekstremizmdan, radikalizmdan ko‘p jabr, zulm ko‘rayotgan mamlakat sifatida e’tirof etilmoqda. O‘tgan asrning o‘rtalarida dastlab Britaniyadan mustaqillikka erishgan, keyin esa Hindiston bilan fojiali tarzda “bo‘linish”ni boshdan kechirgan Pokiston o‘z tarixi davomida ko‘p musibatli kunlarni boshdan kechirdi[59]. Ammo, demokratik taraqqiyot borasida katta salohiyatga ega mamlakat bugungi kunda zo‘ravonlikka ham qarshi tura olayotgan, G‘arb davlatlari bilan samarali hamkorlik qila olayotgan, eng asosiysi zamonaviy boshqaruvni qo‘ldan boy bermayotgan mamlakat hisoblanadi.

Buning o‘ziga xos sabablari sifatida, Pokistonning Konstitusiyasini alohida tilga olish mumkin. Islomchilarning ta’siri u darajada yuqori bo‘lmagan vaqtda ijod qilingan mazkur Konstitusiya yozilishida Yevropada yashagan va dunyo taraqqiyotini, yutuqlarini o‘z ko‘zi bilan ko‘rgan taniqli shaxslarning roli nihoyatda yuqori bo‘lgan edi. Birgina shu omilning o‘zi mamlakatda radikalizm va ekstremizmga qarshi kurashishning muhim huquqiy asosi bo‘lganligini e’tirof etgan holda, mamlakatda radikallashuvga qarshi kuchlarning, siyosatchilarning, partiyalarning, jamoat tashkilotlarining ham roli nihoyatda yuqori ekanligini tan olmoq joiz.

---

[59] Jalal A. The Struggle for Pakistan. A Muslim Homeland and Global Politics. Cambridge (Mass.): Harvard University Press, 2014, p. 63.

Bugun mamlakat islomiy radikal kuchlarga qarshi murosasiz kurash olib borayotganligi va bu borada ko‘plab davlatlar tajribalariga tayanayotganligi, millatlararo munosabatlardagi (asosan Panjobliklar va Pushtunlar) ziddiyatlarni bartaraf etish uchun zamonaviy ta’limni qo‘llab-quvvatlashga alohida e’tibor qaratayotganligini e’tirof etmoq joiz[60].

Shu bilan bir qatorda, mamlakat zo‘ravonlik ta’siridagi yana bir jihat, ya’ni islomiy yo‘nalishlar bo‘lgan sunniylar va shialar o‘rtasidagi ziddiyatlardan keng jabr ko‘rayotganligini, doimiy nizolar (ko‘pincha qonli tus olayotgan, ya’ni bir-birlarining masjidlaridagi portlashlar, o‘zaro qarama-qarshiliklar, radikal chaqiriq-larga ergashayotgan yoshlarning xavfli harakatlari) mamlakatning barqarorligiga ham keng xavf solayotganligini, lekin mamlakatda tobora mustahkamlanayotgan demokratik qadriyatlar vositasida ularga qarshi samarali kurasha olayotganligini tan olish kerak.

Pokiston radikalizm va ekstremizmga qarshi murosasiz kurash yo‘lini tanlab, bu yo‘lda ta’lim va mafkuraviy ishlarni tobora jadallashtirayotganligini, xotin-qizlarning mamlakat ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy hayotidagi rolini oshirish yo‘li bilan kurashmoqda. Misol uchun, Pokiston Bosh vaziri lavozimida ham o‘z vaqtida ayol kishi bo‘lganligini, bugun ham mamlakatda ko‘plab muhim lavozimlarni xotin-qizlar egallaganligi va ular vositasida jamiyatdagi radikal qarashlarga katta zarba bera olayotganligini e’tirof etmoq joiz.

Shuningdek, yoshlarning ko‘p qismini xorijiy mamlakatlarda, asosan taraqqiy etgan G‘arb mamlakatlarida ta’lim olishi, ularning o‘qishni tugatib, mamlakatga qaytib kelishi va radikalizm emas, balki ma’rifiy taraqqiyot yo‘lini tanlayotganligi, davlat organlaridagi lavozimlarni egallashi, ular tomonidan dunyoviylik va texnologik taraqqiyotning muhim omil ekanligini targ‘ib etilishi Pokistonning zo‘ravon ekstremizga qarshi kurashining muhim yo‘nalishiga aylanganligi muhim tajriba sifatida e’tirof etilmoqda.

[60] Talbot I. Pakistan. A New History. Karachi: Oxford University Press, 2012, p. 126-130.

Radikalizm va ekstremizmdan katta jabr chekayotgan yana bir ulkan musulmon mamlakati – bu Indoneziya boʻlib, mamlakat bugungi kunda koʻplab radikal kuchlarning nishoniga aylanmoqda. Davlatdagi vaziyatning murakkabligiga, 250 millionli aholining islom diniga eʼtiqod qilishi va radikallashuvni targʻib qiladigan koʻplab ekstremistik kuchlarning taʼsir koʻrsatishini qayd etmoq lozim.

Indoneziyada islomning radikallashuviga yoʻl qoʻymaslik uchun mamlakat hukumati, maxsus kuchlar, kuch tuzilmalari, zamonaviy musulmon taʼlim tizimi, "Muhammadiya" va "Nahdlatul ulamo" singari umummusulmon jamoat tashkilotlari yordamida samarali kurash olib bormoqdi. Ular tomonidan keng targʻibot ishlari olib borilib, unda islomning maʼrifatparvarlik va ilmga ragʻbat xususiyatlari ommaga taqdim qilinadi[61].

Yuqorida taʼkidlaganimizdek, radikallashuvga qarshi kurashish jarayonlariga mamlakatning taniqli, nufuzli musulmon jamoat va diniy-maʼrifiy tashkilotlari ham faol jalb qilinib, ular tomonidan radikalizmga qarshi kurashishda tizimli kurashish yoʻllari va uslublari ishlab chiqilib amaliyotga joriy qilingan. Xususan, bunda mamlakatdagi katta obroʻga ega boʻlgan imomlar, ulamolar yordamida axborot va ilmiy faoliyat keng avj oldiriladi.

Shu bilan bir qatorda mamlakatda radikalizmga qarshi kurashishning faol ishtirokchilari sifatida islom universitetlari va boshqa qator diniy va dunyoviy taʼlim muassasalari maydonga chiqadi. Davlatning madaniy va ilmiy elitasi tomonidan olib boriladigan maʼrifiy ishlar musulmon aholining birinchi galda, siyosiy madaniyatini yuksaltirishni ham targʻib qiladi. Ular tomonidan Gʻarb davlatlari va jamiyatlarining erishgan yutuqlariga asosan ilmiy va maʼrifiy yoʻl ekanligi musulmon ummasiga doimiy tushuntirib borilishi keng yoʻlga qoʻyilgan.

Mamlakatda tarixda saboq chiqarish, milliy va dunyoviy salohiyatni rivojlantirish, jamiyatning hamjihatligini taʼminlash, radikalizmning jirkanch basharasini ochib berish, zoʻravonlikka qarshi maʼrifiy kurashish kabi omillar bu

---

[61] Файншмидт Р. И. Факторы радикализации ислама в Индонезии в конце XX-в начале XXI в //Власть. – 2021. – №. 4. – С. 285-289.

boradagi siyosatning ijtimoiy-mafkuraviy asosini tashkil qiladi[62]. Zamonaviy Indoneziya ummaning faoliyati doirasida islomning radikallashuviga yoʻl qoʻymaslik, radikal va ekstremistik oqimlar va an'analarning profilaktikasi borasida samarali va hayotiy mexanizm taklif qila olgan mamlakat hisoblanadi. Bu mexanizm asosan ta'lim, islomiy tarbiya'ning oʻziga xos yoʻnalishlari, ustozlarga, millat ruhiyatiga cheksiz hurmat koʻrsatish va hokazo uslublarni qamrab olgan.

Bugungi kunda islom olamida oʻz soʻziga, qudratiga va oʻziga xos taraqqiyot tendensiyasiga ega davlatlardan yana biri – Malayziyadir. Madaniy, milliy va mintaqaviy jihatdan Indoneziyaga yaqin boʻlgan ushbu davlat ham bugun zoʻravon ekstremizmga, radikalizmga eng koʻp duch kelayotgan mamlakatlardan biridir. Mamlakatda zoʻravonlik va radikallashuvga qarshi uch umumiy dastur boʻlib, ularning har biri zoʻravonlikka va radikallashuvga qarshi samarali kurashishni taqazo qiladi.

1. Hamma tomonni qamrab oladigan dastur: alohida olingan ekstremistlar mafkurasini va hulq-atvorini oʻzgartirishni, terroristik guruhlar tuzilmalarini buzishni amalga oshirish (garchi bunday dasturlar murakkab, qimmat, lekin muvaffaqiyati kafolatlangan).

2. Maqsadli dasturlar: alohida insonlar bilan ishlash va ularga oʻz qarashlari va hulq-atvorini oʻzgartirish taklifini berish.

3. Pragmatik dasturlar: asosiy maqsad – terrorchi yoki radikalning hulq-atvorini oʻzgartirish (garchi murakkab boʻlsada, ma'lum bir natijalarni qoʻlga kiritish ehtimoli yuqori).

Malayziyada ekstremistlarga ta'sir koʻrsatishning maxsus dasturi uzoq muddatli boʻlib, u kamida uch yilni qamrab oladi va unda kuch ishlatish, boʻysinmaydigan yoki qaytmaydiganlarga nisbatan qat'iy intizomiy jazolash qoʻllaniladi[63]. Bunday tajriba, uslub va texnologiyalarning ma'lum qismlarini

[62] Akmaliah W., Burhani A. Digital Islam in Indonesia: The Shift of Ritual and Religiosity during Covid-19 // Researchers at ISEAS - Yusof Ishak Institute analyse current events. 2021. No. 107. URL

[63] Сысоев А.М., Аболмасова Т.Е. Зарубежный опыт по реализации пенитенциарных программ дерадикализации экстремистов с применением основ традиционных вероучений //Человек: преступление и наказание. – 2016. – №. 3 (94). – С. 48-52.

Malayziya Indoneziya, Singapur shuningdek, Xitoydan o‘zlashtirgan. Bunga asosan qamalgan ekstremistlarga nisbatan diniy-ma’rifiy va psixologik faoliyat amalga oshiriladi. E’tiborli jihati ekstremistning ijtimoiy atrof-muhiti bilan ham faol ishlar olib boriladi. Masalan, ekstremistlarning oilasi ta’minoti uchun davlat tomonidan moliyaviy ko‘mak ajratiladi va shu yo‘l bilan unga ta’sir ko‘rsatadi. Shuningdek, mahbus ekstremistlarga bepul ta’lim beriladi va kasb o‘rgatiladi. Alohida ta’kidlash kerakki, o‘z ekstremistik va radikal mafkurasidan voz kechgan ba’zi sobiq mahbuslar boshqa radikallar bilan profilaktik ishlar uchun volontyor sifatida jalb qilinadi va ular uchun ma’lum bir ijtimoiy imtiyozlar ham yaratiladi.

Qamoq muddatini o‘tayotgan radikallarga qarshi kurashishning umumiy xususiyati ikki darajada, ya’ni individual va jamoaviy tarzda amalga oshiriladi. Bu vazifalar uch xil tarkibiy qismdan iborat bo‘lib, ular: mahbusning qamoq muddatini o‘tab chiqqandan so‘ng jamiyatga ijtimoiy moslashuviga ko‘maklashish uchun diniy-ma’rifiy, psixologik va tibbiy faoliyat tarzida joriy qilinadi[64]. Shu yo‘l bilan jamiyat uchun “Yangi odam” yaratish konsepsiyasi dunyo yuzini ko‘radi. Z.Bjezinskiy ta’kidlaganidek “zo‘ravonliklar zalvori ostida bemajol yotgan makonda o‘zimizning tartibni o‘rnatish va shu yo‘l bilan ularni azob-uqubatdan xalos qilish vaqti keldi”[65].

Ekspertlar tahliliga ko‘ra qamoqxonalar radikallashuv o‘chog‘iga aylanmoqda. Xususan, Olivye Rua ta’kidlaganidek, “jinoyatchi to‘dalar islomiylashmoqda lekin islomchilar jinoyat to‘dalariga aylanayotgani yo‘q”[66]. Chunki, “radikallashuv, ekstremizm va terrorizm holatlari bo‘yicha ozodlikdan mahrum qilish muassasalarida jazo muddatini o‘tayotgan mahbuslar radikallashuv mafkurasini yoyishda yetakchi hisoblanmoqda va ushbu muassasalar radikallashuv mafkurasini yoyish o‘choqlariga aylanib qolish ehtimoli oshmoqda. Jazoni o‘tash muassasalaridagi mahbuslar o‘rtasida yashirin o‘ziga xos “kichik jamoat”lar

---

[64] Скобелева О.О. Разработка и осуществление программ дерадикализации осужденных за преступления террористического характера в исправительных учреждениях зарубежных стран //Пенитенциарная безопасность: национальные традиции и зарубежный опыт. – 2019. – С. 209-211.
[65] Бжезинский З. Великий шахматная доска. М., 1999, -С.69. 235.
[66] Roy O. Jihad and Death: The Global Appeal of Islamic State. New York, 2017. 136 p.

tuzilmoqda. Radikallashuv mafkurasi jinoyat olami mafkurasi bilan birikib jazoga hukm qilingan shaxslarning ma'naviy tanazzulini tezlashtirmoqda. Ya'ni bu jamoat doimiy tarzda o'z "hududi"ni kengaytirib borish, "ta'sir doirasi"ga imkon qadar ko'proq mahbuslarni qamrab olishga intiladi, shu tariqa ular orasida jinoyatni, radikallashuv va ekstremistlik g'oyalarni ko'proq tarqata boshlaydi. Bunday mahbuslarning bir joyga yig'ilib qolishi inson huquqi turli tarzda buzilishi xavfini oshiradi, jazoni"[67].

"Radikalizm va ekstremizmga qarshi kurashishning jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, mazkur muammoni faqat kuch ishlatish bilan to'la hal etib bo'lmaydi. Chunki ularni takror ishlab chiqarish tizimi, ya'ni qayd etilgan tahdidlar saqlanib qoladi. Radikalizm va ekstremizmni takror ishlab chiqarish tizimining muhim bo'g'inlari aqidaparastlik va terrorizm mafkurasi, ularning ilhomchilari va da'vatchilari, mazkur mafkurani tarqatish kanallari va ular ta'siriga tushayotgan shaxslar hisoblanadi"[68].

Hozirgi kunda diniy radikal, ekstremistik oqimlar g'oyasidan qaytarishning yumshoq dasturlarini amalga oshirish tashabbuslari ko'plab mamlakatlarda, xususan, Irlandiya, Kolumbiya, Norvegiya, Germaniya, Fransiya, Shvetsiya va boshqa shu kabi davlatlarda amalga oshirilmoqda. Radikal, ekstremistik oqimlar g'oyasidan qaytarishning yumshoq usullari samaradorligi Sinay, Turkiya, Malayziya, Indoneziya, Buyuk Britaniya kabi mamlakatlarda "Contest" ekstremizmga qarshi kurashish strategiyasi dorasida, Birlashgan Arab Amirliklarida "Hidoya", "Savob" singari ekstermizm va terrorizmga qarshi kurashish markazlari faoliyati dorasida, Saudiya Arabistonida "Munasaxa", Misr Arab Respublikasida esa "Ekstremizmga qarshi kurashish bo'yicha al-Azhar observatoriyasi" va boshqa markazlar faoliyati doirasida amalda isbotlangan. Karnegi jamg'armasi tadqiqotchisi Kristofer Busek, general Petrus Golos va

---

[67] Қозоғистондаги фуқаролик жамияти ва унинг жиноятчиликка оид сиёсатини эзгулаштириш

[68] Usmanov A.T. Ekstremistik, terroristik tashkilotlarning jamoat xavfsizligiga tahdidihamda uning profilaktikasi // YURISPRUDENSIYA | YuRISPRUDENSIYa |JURISPRUDENCE. Ilmiy-amaliy jurnal. №3 (2022) DOI http://dx.doi.org/10.26739/2181-0958-2022-3. B.69-76

boshqalar Indoneziya’ning deradikallashuv dasturini tahlil qilib shunday xulosaga kelgan: “deradikalizatsiya dasturlari terrorizm va radikallashuvdan qutilishning eng samarali usuli, chunki ushbu dasturlar muammoni tubdan hal qiladi”. Shuni ta’kidlash joizki Saudiya Arabistoni va Yaman davlatlarida amalga oshirilgan deradikallashtirish dasturidan o‘tgan ekstremistlar orasida yana ekstremizm yo‘li-ga qaytish holatlari ham kuzatilgan. Yumshoq dasturlar orqali ekstremistik oqimlar g‘oyasiga qarshi kurashuvchi markazlar sirasiga Qozog‘iston Respublikasida faoliyat yurituvchi “Ansar” reablitatsion-maslahat markazini ham kiritish mumkin.

Bugun ekstremizm va terrorizm, unga olib boradigan yo‘llar radikal, destruktiv siyosiy muholif kuch sifatida qonuniy, legitim davlat hokimiyatiga va institutlariga qarshi XX asrning so‘nggi yillarida nafaqat sobiq Ittifoq, balki dunyo miqyosida ham keng tarqala boshladi. Ayniqsa, Afg‘onistonda murakkab voqeliklarning rivoji, Markaziy Osiyo davlatlarida jiddiy aks eta boshladi. Minaqaga ekstremistik guruhlarning suqilib kirishi ham, yoxud mintaqadagi biror davlatda ekstremistik kayfiyatdagilar tomonidan ma’lum bir jinoyatlar sodir etganlarning Afg‘onistonga Tojikiston orqali qochib o‘tishi bilan bog‘liq jarayonlar tobora ko‘paygan edi.

Shu bilan bir qatorda, ularga qarshi kurashadigan davlat organlari oldida ham ma’lum murakkabliklarni vujudga keltirdi. Ushbu murakkabliklarning sababi, birinchi galda, radikal-ekstremistik harakatlar faoliyatining transformatsiyasi, harakatlari va taktikalarining doimiy o‘zgarib turishidir. Masalan, mintaqa mamlakatlarining aksariyatidagi milliy xavfsizlik tizimi endi shakllana boshlagan, ekstremizm, separatizm, millatchilik va diniy radikalizmga qarshi kurashish uchun hali yetarli tajribaga ega emas. Biroq, mintaqada yangi, hali kuchli armiyaga, xavfsizlikni ta’minlash borasida mustahkam institsional asosga ega bo‘lmagan tizimga ega bo‘lmaganligidan mintaqaga nisbatan ma’lum bir manfaatlari shakllangan kuchlar tomonidan nafaqat mintaqa yoki O‘zbekistonga, balki butun

sobiq ittifoq doirasidagi davlatlarga nisbatan turli tahdidlarni kuchaytirdi, destruktiv faoliyatlarini kengaytirdi.

Markaziy Osiyo hududiga radikallashuvning kirib kelish omillari murakkab va ko‘ptomonlama harakterga ega bo‘lib, u ijtimoiy va iqtisodiy muammolar, mafkuraviy va ma’naviy ildizlarga borib taqaldi. Sobiq SSSR hukmronligi davrida mustamlaka davlatlarda hukm surgan ateizm amaliyoti jamiyatdagi qadriyatlar, ma’naviy-diniy madaniyatni yo‘q qilinishiga qaratilgan. Natijada aholining ijtimoiy ongida vujudga kelgan “bo‘shliq”ning diniy-radikal qarashlar bilan to‘lishiga sabab bo‘ldi. Sobiq sho‘rolar tuzumi o‘rnida tashkil topgan mustaqil davlatlar hududida rivojlanishning dastlabki bosqichida radikal oqimlar paydo bo‘la boshladi. Bunday xavotirga tushgan ko‘pchilik yangi davlatlar (sobiq ittifoq davlatlari nazarda tutilmoqda) radikal g‘oyalarning keng yoyilib ketishining, shuningdek, ekstremistik va terroristik tashkilotlarning kuchayib, beqarorlikka sabab bo‘lishining oldini olish maqsadida mamlakat qonunchiligiga, ichki va tashqi siyosatiga ma’lum bir o‘zgarishlar, yangiliklar kirita boshladilar va bu tabiiy jarayondir. Zero, Markaziy Osiy mintaqasi ham ekstremistlarning asosiy nishoniga aylana boshlagan edi. Buning yorqin misoli sifatida Tojikistondagi fuqarolar urushini, Qirg‘izistonning Batken va Jalolobod oblastlariga ekstremistlarning suqilib kirganligini, O‘zbekistonda bir necha bor diniy ekstremistik motivdagi terroristik aktlar sodir etilganligini alohida ta’kidlash lozim.

Ushbu jarayonlarda siyosiy radikalizm din niqob ostida namoyon bo‘ldi. Bunda radikallar islom davlati qurish, xalifalikni qayta tiklash shiorlari bilan chiqib, bu jarayon ortida jamiyatning siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va ma’naviy-ma’rifiy rivoji xavf ostida qolishi mumkin. Diniy mafkuraning salbiy ta’siriga yetarli baho bermasdan bo‘lmaydi. Ushbu jarayon jamiyat asoslarini vayron etadi, inson huquqlarining bosh tamoyillarini oyog‘osti qiladi. Ayni omillar Markaziy Osiyodagi deyarli barcha davlatlarga xosdir. “Ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashishdagi mavjud tajriba, shuningdek, mintaqa davlatlaridagi mazkur tahdidlarga qarshi kurashish bo‘yicha holatning retrospektiv va qiyosiy tahlillari

shuni koʻrsatmoqdaki, Markaziy Osiyoda ekstremistik va terrorchilik faoliyat, asosan, millatchilik (milliy), ijtimoiy, diniy va siyosiy gʻoyalar ostida amalga oshirilmoqda”[69].

Manbalarda mustaqillikni e’lon qilgan Markaziy Osiyo davlatlarida dinning siyosiylashuvi masalasi kuzatilganligi keltiriladi. Xususan, dastlab Oʻzbekiston islom harakati sifatida vujudga kelgan terroristik tashkilotning keyinchalik, Turkiston islom harakatiga aylanganligi, Oʻzbekistonda koʻplab diniy ekstremistik, terroristik tashkilotlarning yacheykalari paydo boʻla boshlaganligi va eng murakkabi, ularnig koʻpchiligi mamlakatning dunyoviy davlat sifatida mavjudligiga tahdid sola boshlagan. Bunday norasmiy tashkilotlar, oqimlar safiga esa nafaqat yoshlar yoki ishsizlar, balki jamiyatning ba’zi ilgʻor safida yuradiganlar ham asta-sekin qoʻshila boshlaganligi kuzatiladi. Ayniqsa, ushbu oqimlarning bosqichma-bosqich, “professional” faoliyati, kuchli targʻibot-tashviqot ishlarining natijasi oʻlaroq, ular safi kengayib, hali toʻliq shakllanib, mustahkamlanib ulgurmagan davlat idoralarining faoliyatiga ham ma’lum ma’noda xavf va toʻsiq qoʻya boshlagan edi.

Tahlillarda keltirilganidek Qirgʻiz Respublikasi hokimiyat idoralari “radikal diniy oqimlarning uyushgan jinoyat guruhlari bilan qoʻshilib ketayotgani…, odamlar jazoni oʻtash muasasalarda yollanayotgani…, ijtimoiylashuv past va yangi muhitga integratsiyalashuv ekstremistik faoliyatga aralashib qolayotgan voyaga yetmaganlar, ayollar, yoshlar va keksalar sonining oʻsib borayotgani” mamlakatda diniy radikallashuv va ekstremizm darajasining qaltislik omili ekanini keltirilgan[70].

Hozirgi kunda Qozogʻiston Respublikasida salafiylik mafkurasi tarafdorlari 19 ming kishiga yetib qolgan. Mutaxassislar ushbu jarayonlar tahlilida diniy aqidaparastlik ham radikalizmning bir koʻrinishi hisoblanishini asoslantirishgan[71].

---

[69] Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 1 iyuldagi PF-6255-son “2021 — 2026 yillarga moʻljallangan ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashish boʻyicha Oʻzbekiston Respublikasi milliy strategiyasini tasdiqlash toʻgʻrisida”gi Farmoni

[70] Markaziy Osiyo mamlakatlarida radikallashuv texnologiyalari va muammoning nozik jihatlari https://www.uzanalytics.com/jamiyat/5871/

[71] Марказий Осиё мамлакатларида радикаллашув технологиялари ва муаммонинг нозик жиҳатлари https://www.uzanalytics.com/jamiyat/5871/

Diniy radikalizmning mazmun-mohiyati radikalizmning boshqa ko‘rinishlari kabi o‘ziga mos kelmaydigan har qanday qarashlarga nisbatan murosasizlikda, jamiyat taraqqiyotiga zid, g‘ayriinsoniy g‘oya va qarashlarni ilgari surishda namoyon bo‘ladi.

Ko‘p asrlik islom an’analari mavjud bo‘lgan Tojikiston, Qirg‘iziston va Turkmaniston davlatlari diniy radikalizmning ortodoksal ko‘rinishlari mavjud mintaqalarga yaqinligi bois, bu hududlarda radikalizm tarafdorlari Markaziy Osiyodagi boshqa davlatlarga nisbatan ko‘proq uchraydi.

Rasmiy ma’lumotlarga ko‘ra Tojikiston bo‘yicha, ayni paytda 2 milliondan oshiq tojikistonlik Rossiyada mehnat migranti hisoblanadi. Ularning muhitdan uzilganligi, yangi muhitdagi voqeyliklar sabab norozilik kayfiyatinng oshib borishi sababli ushbu kishilarning ko‘pchiligi o‘z muammolari yechimini dinda deb biladi. Bir qarashda ushbu holatning yomon jihati yo‘q, biroq u insonlarning radikal diniy oqimlar ta’siriga tushib qolayotgani, radikal, ekstremist va terrorchilik tashkilotlarining faol a’zolariga aylanayotgani kuzatiladi. “AQSH va Rossiya maxsus xizmatlari ma’lumotlariga ko‘ra, Markaziy Osiyo mamlakatlaridan Suriya va Iroqqa jang qilish uchun 4,2 ming kishi jo‘nab ketgan. Mintaqa mamlakatlari orasida ISHID saflarida jang qilgan jangarilar soni bo‘yicha Tojikistondan Suriya va Iroqda 1300 jangari borib qolgan, yana deyarli 3000 kishi Turkiyada ushlab qolingan va mamlakatiga jo‘natib yuborilgan. Qozog‘iston va Qirg‘izistondan urushga taxminan 500 kishi, Turkmanistondan esa 400 kishi ketgan. Ayni paytda davlatlarga qaytarilgan radikal shaxslar Markaziy Osiyo mintaqasiga va vatandoshlari xavfsizligi uchun muayyan tahdid tug‘dirmoqda”[72].

Yuqorida keltirilgan masalalarga e’tibor qaratganda avvalo siyosiy, iqtisodiy va mafkuraviy muammolar sababli shaxslar orasida radikalizmga xayrixohlik bildirilayotganligi, bu holatlarning oldini olishda eng asosiy omil sifatida siyosiy, iqtisodiy va mafkuraviy omillarni to‘g‘ri baholanishi lozim. Sababi shaxsning

---

[72] Хопёрская Л.Л. «Исламское государство. 2.0»: новые вызовы в Центральноазиатском регионе // file:///C:/Users/user/Downloads/islamskoe-gosudarstvo-2-0-novye-vyzovy-v-tsentralnoaziatskom-regione.pdf

radikal g‘oyalar ta’siriga berilmasligi uning deradikalizatsiya qilinishiga imkon qoldirmaydi. Prezidentimiz SH.Mirziyoyev ta’kidlaganidek “yosh avlodni ekstremistik g‘oyalar ta’siridan himoya qilish maqsadida yoshlarning radikallashuviga qarshi kurashish sohasidagi hamkorlik bo‘yicha Mintaqaviy kompleks dastur ishlab chiqish zarur, deb bilamiz”[73]. Mazkur holatlarda kuzatilishi mumkin bo‘lgan masalalarni bartaraf etish davlatning tinchlik va osoyishtaligini yanada mustahkamlashga zamin yaratadi.

Tadqiqot doirasida davlatlar tomonidan radikalizm va zo‘ravon ekstremizmning oldini olish, shuningdek, davlatda xavfsizlikni ta’minlashga yo‘naltirilgan bir qator mexanizmlarni o‘rganib chiqdik. Manbalar tahlilida turli davlatlarning siyosiy ma’muriyati tomonidan radikalizm, zo‘ravon ekstremizmni oldini olish borasidagi targ‘ibot ishlari olib borilishiga qaramasdan ayrim fuqarolarning propagandalar ta’sirida Suriyada, Iroq va boshqa mintaqalardagi eksremistik guruhlar faoliyatida qatnashish uchun chiqib ketish holatlari kuzatilayotgani aniqlandi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.Mirziyoyev ta’kidlaganidek: “Dunyoda terrorizm tahdidlari ayniqsa, so‘nggi yillarda kuchayib borayotgani ularga qarshi asosan kuch ishlatish yo‘li bilan kurashish usuli o‘zini oqlamayotganidan dalolat beradi. Bu borada ko‘p hollarda tahdidlarni keltirib chiqarayotgan asosiy sabablar bilan emas, balki ularning oqibatlariga qarshi kurashish bilangina cheklanib qolinmoqda. Xalqaro terrorizm va ekstremizmning ildizini boshqa omillar bilan birga, jaholat va murosasizlik tashkil etadi, deb hisoblayman. Shu munosabat bilan odamlar, birinchi navbatda, yoshlarning ongu tafakkurini ma’rifat asosida shakllantirish va tarbiyalash eng muhim vazifadir. Ekstremistik faoliyat va zo‘ravonlik bilan bog‘liq jinoyatlarning aksariyati 30 yoshga yetmagan yoshlar tomonidan sodir etilmoqda. Bugungi dunyo yoshlari – son jihatidan butun insoniyat tarixidagi eng yirik avloddir, chunki ular 2 milliard kishini tashkil etmoqda. Sayyoramizning ertangi kuni, farovonligi farzandlarimiz

[73] Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг 2023 йил 14 сентябрда ўтказилган Марказий Осиё давлатлари раҳбарларининг Маслаҳат учрашувидаги нутқи

qanday inson bo‘lib kamolga etishi bilan bog‘liq. Bizning asosiy vazifamiz – yoshlarning o‘z salohiyatini namoyon qilishi uchun zarur sharoitlar yaratish, zo‘ravonlik g‘oyasi “virusi” tarqalishining oldini olishdir”[74]. Bugungi kunda zo‘ravon ekstremizm va radikalizmning oldini olish, unga qarshi kurashish nafaqat alohida davlatlarning, balki jahon hamjamiyatining eng asosiy va dolzarb vazifalaridan biriga aylangan.

O‘zbekiston Resrublikasi tashqi siyosatining muhim maqsadlaridan biri dunyoning rivojlangan demokratik davlatlar qatoridan munosib o‘rinni egallashdir. Mamlakatimiz tomonidan turli iqtisodiy va siyosiy sohalarda erishilgan yutuqlar davlat rahbari va hukumat tomonidan olib borilayotgan oqilona siyosatining yaqqol misolidir. O‘zbekiston tinchliksevarlik siyosatini olib borib, siyosiy bloklarda ishtirok etmasligini va har qanday xalqaro harbiy bloklarga qo‘shilmasligini e’lon qilgan.

O‘zbekiston turli millatga mansub bo‘lgan, turli dinlarga e’tiqod qiluvchi xalqlar tinch-totuv yashayotgan o‘lka hisoblanadi. Ushbu jarayon ko‘p asrlik tarixga ega bo‘lib, diniy bag‘rikenglik ruhi vatanimizda tinchlik va osoyishtalikni yanada mustahkamlanmoqda. Xususan, bugun yurtimizda 130 dan ortiq millat vakillari istiqomat qilib, 16 ta diniy konfessiyaga mansub 2241 ta diniy tashkilot, shu jumladan, Imom Buxoriy xalqaro markazi, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, O‘zbekistondagi Islom madaniyati markazi, Imom Buxoriy nomidagi Toshkent islom instituti, Mir Arab Oliy madrasasi, 9 ta o‘rta maxsus islom bilim yurti, pravoslav va protestant seminariyalari faoliyat olib bormoqda.

Mustaqillik yillari diniy ta’lim tizimini yaratish va rivojlantirish yo‘lida tizimli ishlar amalga oshirildi. So‘nggi yillar davomida diniy ta’lim sohasida olib borilayotgan islohotlarning uzviy davomi sifatida islom dining insonparvarlik mohiyatini ochib berish, jaholatga qarshi ma’rifat bilan kurashish, yosh avlodni gumanistik g‘oyalar, milliy g‘urur va iftihor ruhida tarbiyalash, O‘zbekiston

[74] Ўзбекистон Президенти Шавкат Мирзиёев БМТ Бош Ассамблеясининг 72-сессиясида нутқ сўзлади // https://uza.uz/uz/posts/zbekiston-prezidenti-shavkat-mirziyeev-bmt-boshassambleyasi-20-09-2017

zaminidan etishib chiqqan buyuk alloma va mutafakkirlar merosini o‘rganish, islom ta’limotining turli yo‘nalishlarida chuqur ilmiy-tadqiqotlar o‘tkazishni tashkil etish borasida sermahsul ishlar tashkil etilmoqda. Muhtaram Yurtboshimizning tashabbuslari bilan Samarqandda Imom Buxoriy yodgorlik majmuasi qoshida Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, Termiz shahrida Imom Termiziy ilmiy-tadqiqot markazi, Buxoroda Mir Arab Oliy madrasasi, Toshkent shahrida O‘zbekistondagi islom madaniyati markazi faoliyatini tashkil etilishi ma’naviyatimizni yanada yuksaltirish, jamiyatimizda tinchlik va osoyish-talik, ijtimoiy barqarorlik, o‘zaro ahillik va totuvlik muhitini mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

Bugun yurtimizda amalga oshirilayotgan islohotlar mamlakatimizda hukm surayotgan tinchlik va osoyishtalikka asoslanadi. Taassufki, bugungi kunda jahonda ro‘y berayotgan voqealar yovuz kuchlar va buzg‘unchi mafkuralar umuminsoniy xavfsizlikka, xalqlarning erkin va tinch hayot kechirishlariga tahdid solayotganidan dalolat bermoqda.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganlaridek: “Islom faqat nurli hayotga, ilm-ma’rifatga, yaxshilikka undaydi. Hech qachon xunrezlik, qotillik, zo‘ravonlikka chaqirmaydi. Ana shu haqiqatni tan olmasdan, soxta g‘oyalarga aldanib, zararli oqimlarga kirish, terrorchi bo‘lish – bu O‘zbekiston xalqiga mutlaqo to‘g‘ri kelmaydi”[75]. Hukumatimizning radikal g‘oyalarni keltirib chiqaruvchi omillarni bartaraf etishga yo‘naltirilgan faoliyati yoshlarda ma’naviy immunitetni shakllantirish, ma’rifatli hamda bilimli avlodni tarbiyalashga qaratilgan.

Yuqorida keltirilgan ma’lumotlarga tayanib ta’kidlash lozimki, O‘zbekiston Respublikasida jamiyatda diniy bag‘rikenglikni ta’minlash, ekstremizm va radikalizmning oldini olish davlat siyosatining muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Bu jarayonda O‘zbekiston Respublikasi Din ishlari bo‘yicha qo‘mita

---

[75] Rrezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning 2017-yil 15-iyunda “Ijtimoiy barqarorlikni ta’minlash, muqaddas dinimizning sofligini asrash – davr talabi” mavzusidagi anjumanda so‘zlagan nutqi

davlat, jamoat va diniy tashkilotlar bilan hamkorlikda jamiyatda diniy ekstremizm g‘oyalari tarqalishining oldini olishga qaratilgan ma’naviy-ma’rifiy hamda profilaktik tadbirlarni tizimli amalga oshirib kelmoqda.

Din ishlari bo‘yicha qo‘mita O‘zbekiston Respublikasida diniy sohadagi davlat siyosatini amalga oshiruvchi muhim institutlardan biridir. Qo‘mita diniy tashkilotlar faoliyatini muvofiqlashtirish, diniy bag‘rikenglikni mustahkamlash va konfessiyalararo totuvlikni ta’minlashga qaratilgan faoliyatni amalga oshiradi. Shuningdek, qo‘mita radikal g‘oyalarning tarqalishiga qarshi kurashishda ma’naviy-ma’rifiy yondashuvni qo‘llab, diniy bilimlarni to‘g‘ri talqin qilish hamda aholining diniy savodxonligini oshirishga xizmat qiladi. Jarayon OAVda chiqishlar, qo‘llanma va bukletlar tayyorlab, jamoatchilikka yetkazish, aholining barcha ijtimoiy qatlamlari bilan turli formatlarda uchrashuvlar uyushtirish, diniy-ma’rifiy saytlarda aqidaparast oqimlarning axborot hurujiga qarshi munosib javob berish shakllarida amalga oshirilmoqda. Mazkur tadbirlarda diniy ulamolar faol ishtirok etmoqdalar. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekiston Respublikasi Din ishlari bo‘yicha qo‘mitasining davlat, jamoat va diniy tashkilotlar bilan hamkorlikdagi faoliyati jamiyatda radikal g‘oyalar tarqalishining oldini olishda muhim ahamiyatga ega. Mazkur faoliyatning samaradorligini yanada oshirishda diniy savodxonlikni kengaytirish, yoshlar bilan ishlashni kuchaytirish hamda zamonaviy axborot texnologiyalari orqali ma’rifiy targ‘ibotni rivojlantirish muhim hisoblanadi.

O‘zbekistonda aholining ko‘p qismini islom diniga e’tiqod qiluvchilar tashkil etishi ularning dinga yondashuv darajalaridan kelib chiqqan holda islom dinini tinchlik dini ekanligini targ‘ib qilgan holda jamiyatda radikal desekulyarizatsiyani paydo qiluvchi omillarga barham berish mumkin.

Prezident Sh.M. Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan “Jaholatga qarshi – ma’rifat” tamoyili yangicha yondashuv kasb etib, islohotlarning pirovard maqsadi yoshlar tomonidan muammolarni hal qilishda zo‘ravonlik va radikal usullardan

foydalanish imkoniyatini rad etishga hamda ularning ta’lim-tarbiyasida ma’naviy dunyoqarashni yuksaltirishda namoyon bo‘lmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tashabbusi bilan 2019 yilda amalga oshirilgan “Mehr-1” va “Mehr-2” tadbirlari doirasida O‘zbekiston Respublikasi hukumati Suriya va Iroqdagi qurolli mojaro hududlarida bo‘lgan bir guruh ayollar va bolalarni vatanga qaytargan edi. 2020 - 2021 yillarda “Mehr-3, “Mehr-4” va “Mehr-5” operatsiyalari doirasida Suriya va Afg‘onistondan 400 dan ortriq ayollar hamda bolalar olib kelindi[76]. Xalqaro ekspertlar O‘zbekistonning bu boradagi tajribasini yetarli darajada samarali deb baholab, mintaqada va butun dunyoda keng yoyishga loyiq ekanini e’tirof etmoqda. Darhaqiqat, O‘zbekiston Prezidenti, “Tarix sinovlaridan o‘tgan haqiqiy tarix shuki, o‘zini o‘zgartirishga qodir bo‘lgan, vaqtni – imkoniyatga, imkoniyatni yutuqqa, yutuqni taraqqiyot poydevoriga aylantira olgan xalq – buyuk xalqdir.

Amalga oshirilayotgan islohotlarga qaramasdan yoshlar bilan bog‘liq destruktiv tendensiyalarning mavjudligi xavotirli holatdir. “2020-yilda respublikada qayd etilgan jinoyatlarda 16915 nafar yoshlarning 1375 nafarini xotin-qizlar, 397 nafarini oliy o‘quv yurti talabalari, 4052 nafarini bandligi ta’minlanmagan, ta’lim bilan qamrab olinmagan yoshlar tashkil etgan. Sodir etilgan jinoyatlarning 56,3 foizi Toshkent shahri (9,6 foiz), Toshkent (9,7 foiz), Farg‘ona (21,2 foiz), Buxoro (8,5 foiz)” va Namangan (7,4 foiz) viloyatlari hissasiga to‘g‘ri kelib, salmog‘i yuqoriligicha qolgan”[77].

Davlatning dinga munosabatidagi asosiy hususiyati – dinning siyosatga aralashmasligi. Zero, har qanday din birinchi o‘rinda ma’naviy-axloqiy yunalishni o‘z ichiga oladi. Diniy ekstremizm va murosasizlikka qarshi mafkuraviy kurashishning muhim omili sifatida yoshlarda bag‘rikenglik madaniyatini shakllantirish ekani qayd etildi hamda bag‘rikenglik madaniyatini kamol toptirish yo‘llari, imkoniyatlari va bu boradagi ustivor vazifalar yoritib berildi. Tinchliksiz

[76] https://yuz.uz/news/mehr-insonparvarlik-operatsiyalariozbekiston-tajribasi-dunyo-boylab-yoyishga-loyiq
[77] Ўзбекистон Республикаси Ички ишлар вазирининг 2021 йил 2 февралдаги 1/145-сонли Олий Мажлис Сенатига йўллаган ахбороти.

taraqqiyot va demokratiya boʻlmagani kabi, bagʻrikengliksiz tinchlik ham boʻlmaydi.

Radikalizm va ekstremizm hodisalariga qarshi turish Oʻzbekiston Respublikasining davlat xavfsizligi hamda tashqi siyosat strategiyasining eng muhim ustuvor yoʻnalishidir. Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish, xalq farovonligi uchun tinchlik va barqarorlikning ulkan ahamiyatini anglab etgan mamlakatimiz radikalizm va ekstremizmga qarshi kurashish boʻyicha samarali tashabbuslarni ilgari surmoqda.

Oʻzbekistonda radikalizm va ekstremizmga qarshi kurashining huquqiy asoslari 2018-yil 31-iyoʻlda qabul qilingan “Ekstremizmga qarshi kurashish toʻgʻrisida” gi qonunga koʻra olib boriladi[78]. Ushbu qonun mazmunida aholining buzgʻunchi gʻoyalarga qarshi huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish, jamiyatda ekstremizmga nisbatan murosasizlik munosabatini shakllantirish davlat siyosatining asosiy yoʻnalishlari ekanligi asoslab berilgan.

Oʻzbekistonning xalqaro hamjamiyatda radikalizm va ekstremizmning oldini olish hamda unga qarshi kurashdagi tashqi siyosati insonparvarlik, siyosiy tinchlikni ta’minlash, davlatlar ichki ishlarida tashqi kuchlarning aralashuvini bartaraf etish kabi e’tiborga molik takliflar hamda amaliy tashabbuslarida namoyon boʻladi. Mintaqaviy xavfsizlikni ta’minlash va radikal gʻoyalar tarqalishining oldini olish borasida Oʻzbekiston faol tashqi siyosat yuritib kelmoqda. Mamlakat tomonidan ilgari surilayotgan tashabbuslar, xususan diniy bagʻrikenglik va ma’rifatni targʻib qilishga qaratilgan siyosat xalqaro hamjamiyat tomonidan keng qoʻllab-quvvatlanmoqda. Bu esa nafaqat mintaqaviy, balki global xavfsizlikni mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

Milliy yondashuvlar hamda xorijiy tajriba tahlili asnosida Oʻzbekistonda radikallashuvning oldini olish, ekstremizmga qarshi kurashish va jamiyatda bunday salbiy unsurlar koʻpayishiga yoʻl qoʻymaslik maqsadida yangi texnologiya

[78] Oʻzbekiston Respublikasining 2018-yil 31-iyuldagi OʻRQ-489-son “Ekstremizmga qarshi kurashish toʻgʻrisida”gi Qonuni

va mexanizmlar ishlab chiqilmoqda. Manbalar tahliliga asosan biz radikallashuvning oldini olishda quyida tizimli mexanizmni amaliyotga joriy qilish lozim, deb hisoblaymiz:

1. Jamiyatda radikalizm uchun asos bo‘ladigan yoki ekstremistik faoliyatga olib keladigan holatlarni doimiy aniqlash tizimini yo‘lga qo‘yish;

2. Yoshlarda dunyoviylik ruhiyatini mustahkamlaydigan tadqiqotlar ko‘lamini oshirish va natijalarni amaliyotga joriy qilish;

3. Mamlakatda obro‘ga ega bo‘lgan diniy arboblar va ulamolarni radikalizm va ekstremizmga qarshi profilaktik jarayonlarga yanada keng jalb qilish;

4. Yoshlarda milliy g‘urur, milliy iftixor tuyg‘ularini kuchaytirish orqali zo‘ravonlikka, radikalizm va ekstremizmga qarshi tahdidbardosh immunitetni mustahkamlash;

5. Ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlarda radikalizmning oqibatlari va uning sabablari to‘g‘risida ta’sirchan uslublarda ishlab chiqilgan qisqa axborot, videorolik, multfilmlarni tarqatish mexanizmlarini doimiy takomillashtirib borish;

6. Radikal kayfiyat yoki ekstremistik hulq-atvor aniqlangan toifalar bilan ishlashning ma’rifiy uslublarini joriy qilish, xususan, ushbu shaxslarni jahon adabiyotining durdona asarlarini o‘qishlari va uni anglashlari uchun shart-sharoit yaratish;

7. Radikalizm va zo‘ravon ekstremizm aslida islom dinini qo‘llab-quvvatlash emas, aslida jamiyatni jaholatga boshlab, taraqqiyotdan ortda qoldiradigan va qoloqlikka yuz tutishiga sabab bo‘ladigan omil ekanligini ilmiy-ma’rifiy isbotlagan tadqiqot namunalarini yaratish va turli axborot vositalari orqali maqsadli auditoriyaga yetkazish;

8. Radikalizm va zo‘ravon ekstremizmga qarshi kurashish borasida katta yutuqlarni qo‘lga kiritgan xorijiy mamlakatlar bilan tajriba almashishni yo‘lga qo‘yish, xorij mutaxassislarini ma’lum bir maqsadli vazifalar uchun jalb qilish;

9. Vatanparvarlik tarbiyasini rivojlantirish orqali radikal g‘oyalarning jozibadorligini pasaytirish.

### 1.3. Destruktiv tendensiyalar va ularning inson hayotiga ta’sirini o‘rganish bilan bog‘liq konsepsiyalar

Bugungi shiddat bilan kechayotgan globallashuv jarayonida jahonda texnik va texnologik taraqqiyot, rivojlanish va yuksalish imkoniyatlaridan destruktiv mohiyatga ega maqsadlarda foydalanish keng quloch yoymoqda.

Destruktiv tendensiyalar - bu ta’sirchanlik kuchiga ega bo‘lib, inson hayotida yirik burilishlarga, oqibatlarga olib keladigan harakatlardir. Ushbu tendensiyalar odatda barqarorlik, ijtimoiy, siyosiy, ekologik va iqtisodiy istiqbolga qarshi bo‘lib yirik muammolarni yuzaga kelishiga sabab bo‘ladi. Destruktiv tendensiyalar ta’siri quyidagi sohalarda aks etadi:

Ijtimoiy destruktiv tendensiyalar: Ijtimoiy destruktiv tendensiyalarning kengayib borishi jamiyatda katta tartibsizliklarni keltirib chiqarib, jamiyat va insonlar hayotida keskin o‘zgarishlarga olib keladi. Bu odatda maqsadli aniq yo‘nalishlarni o‘z ichiga oladi, natijada siyosiy muammolar vujudga kelishi davlatning jamiyat bilan ijtimoiy bog‘liqligining buzishiga olib keladi.

Ekologik destruktiv tendensiyalar: Ekologik destruktiv tendensiyalar, tabiiy muhit bilan bog‘liq muhim o‘zgarishlarga asoslanadi. Bu esa ekologik yutuq va o‘zgarishlarni qayta talqin qilishga, tabiat moddiy resurslarini sifatli ko‘zdan kechirishga va ekologik ekspansiyaga sabab bo‘lishi mumkin.

Iqtisodiy destruktiv tendensiyalar: Iqtisodiy destruktiv tendensiyalar, iqtisodiy muammolarni yuzaga kelishiga, tizimlarda iqtisodiy istiqbollarni buzishga olib keladigan jarayonlardir. Bunda odatda, keng ta’sirchanlikka olib keladigan iqtisodiy xatoliklar, global iqtisodiy muammolar kabi muhim masalalar kuzatiladi.

Siyosiy destruktiv tendensiyalar: Siyosiy destruktiv tendensiyalar davlat-larning boshqaruv usullari va siyosiy tizimlarini o‘zgartirishga bo‘lgan harakat-larni qamrab oladi. Bu tendensiyalar odatda, siyosiy harakatlarni radikallashtirish,

yangi rejimlar kiritish, siyosiy korruptsiya va hukumatlarning stabil ishlashida muhim o‘zgarishlarni o‘z ichiga oladi.

Diniy destruktiv tendensiyalar: Diniy destruktiv tendensiyalar, dinamik, mafkuraviy yoki diniy tushunchalar va qarashlarni o‘zgartirishga doir munosabatlardir. Bu odatda diniy guruhlar va tashkilotlar orasida vujudga kelib natijada ekstremistik va radikal fikrlarni oshirilishi, dinning barqarorlik kabi tafsilotlarini buzilishiga olib keladi.

Yuqorida keltirilgan destruktiv tendensiyalar, inson hayotiga ta’sir ko‘rsatadi va umumiy o‘zgarishlarni kengaytiradi. Shu bois, ushbu tendensiyalarga ya’ni destruktiv tendensiyalar bilan kurashishda ilmiy va amaliy chora-tadbirlarni amalga oshirish zarur va muhim vazifadir.

Chunki, taraqqiyotga jiddiy to‘siq bo‘layotgan g‘oyalar, inson ongi va ma’naviy borlig‘ini egallash uchun mafkuraviy kurashlar shuninigdek, destruktiv jarayonlarni yuzaga keltiruvchi potensial sabablarni o‘rganish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Chunki zamonaviy axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi va ushbu makonda inson ongi va ruhiga salbiy ta’sir ko‘rsatadigan, uning barqaror hayot faoliyati buzilishiga va izdan chiqishga qodir axborotlarning tarqalishi bilan bog‘liq jarayonlar va tendensiyalarning destruktiv (buzg‘unchi) ahamiyati ortib borayotgan davrga qadam qo‘ydi. Nafaqat axborot makonida, balki, inson hayot makoni va sohasida ham yuz berayotgan mafkuraviy, ma’naviy, ruhiy salbiy o‘zgarishlar bugun insonlararo munosabatlarning jiddiy shikastlanayotganligiga, jamiyatlar, millatlar, etatlar, madaniyatlar hattoki, davlatlar o‘rtasidagi nizolarning ham asl sababchisiga aylanayotganligiga guvoh bo‘lib turibmiz. Bir so‘z bilan aytganda, insoniyatning texnik va texnologik taraqqiyoti, har doim ham uning baxtli yashashining garovi emas, gohida uning hayotini murakkablashtiruvchi, turli-tuman yangidan-yangi muammolarni, halokatlarni keltirib chiqaruvchi, ba’zida esa uning baxtsizligiga sabab bo‘luvchi omil bo‘lib qolayotganligini alohida e’tirof etmoq joiz.

Insoniyatga xos bo‘lgan xususiyat, bu uning doimiy tinchlikka, farovonlikka, baxtli yashashga bo‘lgan intilishidir. Buning uchun esa turli uslublar, vositalar, sharoitlar yaratiladi va barchasi inson uchun tatbiq qilinadi. Ammo, uning turli qarashlarga, turli manfaatlarga egaligi natijasida doimiy ziddiyatlar yuzaga keladi va turli yo‘llar va tendensiyalar asosida rivojlanadi, amalga oshadi, kerak bo‘lsa, davlat va jamiyat uchun yetarlicha xavf-xatarlarni keltiradi. Rossiyalik olimlardan A.Troshinning fikricha: “Shaxs uchun destruktivlik – bu mavjud ijtimoiy, hulq-atvor, timsoliy tuzilmalardan voz kechishga undovchi madaniyatning bir komponentidir”[79].

Manbalarda buzg‘unchi-destruktiv g‘oyalarning g‘arazli maqsadlarga yo‘naltirilishi insonning o‘ziga va atrofidagi olamga bo‘lgan salbiy munosabati hamda g‘ayriinsoniy harakatlarining jamiyatda umuminsoniy qadriyatlarni shuningdek, muayyan tarixiy sharoitlarda obyektiv zarur bo‘lgan ijtimoiy institutlarni yo‘q qilishga qaratilgan qo‘poruvchilik faoliyati sifatida baholagan[80].

Hozirgi kunda davlatning eng shijoatli va kelajak rivojlanishini belgilab beradigan yoshlarni destruktiv ta’sirlardan psixologik himoyalash ham dolzarb masalalardan biri bo‘lib kelmoqda.

Destruktiv, ya’ni vayronkor, buzg‘unchi tendensiyalar o‘zining uzoq yillik tarixiga ega ekanligini, ya’ni insoniyat paydo bo‘libdiki, ularni bunday xatarlar aslo tark etmagan. Vayronkor, buzg‘unchi tendensiyalar xoh diniy bo‘lsin, xoh milliy yoki etnik bo‘lsin, xoh siyosiy va xoh mafkuraviy bo‘lsin, ularning hammasi inson hayoti uchun ma’lum bir kulfatlarga sababchi bo‘ladi. Destruksiya so‘zi - lotinchadan olingan bo‘lib, destructio — “konstruksiya yoki qurilmaning buzilishi, sochilishi”, de — rad qilish (yoki voz kechish) va structio — tashkil qilish yoki qurish ma’nolarini anglatadigan termin bo‘lib, san’at yoki arxitektura sohasida ko‘p qo‘llanilgan. Ularda badiiylikni tashqi illyuziyalar yordamida buzish, izdan

[79] Трошин А.А. Теоретические основы деструксии в обществе. Доклад, 2015. С. 1. URL: https://bookscafe.net/read/troshin_a-teoreticheskie_osnovy_destrukcii_v_obschestve-203507.html#p1

[80] Kurbanov D.D. Markaziy Osiyo ijtimoiy-falsafiy tafakkuri tarixining diniy fundamentalizm va ekstremizmga qarshi kurashdagi ahamiyati: Fals. f-i bo‘y. fal. d-ri (PhD) diss. ... avtoref. – Buxoro, 2023. – B.12.

chiqarish ma’nosi ustunlik qiladi. Destruksiya buzg‘unchi ta’sirning asosiy mo‘ljali – bu o‘zaro bog‘langan birliklarni bir-biridan ajratish uchun, konstruksiya’ning nozik joyini ishdan chiqarish, tortib olish yoki zarba berishdir. Bu yerda u asosiy elementlar ichida nozik hududni, qismni tanlaydi va unga qarshi zarba berish orqali voqelik funksiyasini buzadi. Bundan shu xulosa kelib chiqadiki, destruksiya (yoki destruktivlik) - o‘z mo‘ljaliga ko‘ra konstruktivlikning teksarisi, ya’ni antonimidir. Bunyodkorlik yoki bir butunlikning buzilishi uchun ro‘y beradigan, tashkil qilinadigan, amalga oshiriladigan faoliyatdir.

Umuman olganda, destuktiv faoliyat amaliy jihatdan barcha sohalarga (ijtimoiy, iqtisodiy, mafkuraviy radikali, diniy, moliyaviy, kasbiy va hokazo) tegishlidir, ya’nikim ushbu barcha sohalarda yuz berishi mumkin bo‘lgan holatdir. Bugungi kunda destruktiv tendensiyalar tobora kuchayayotgan va insoniyat hayotiga jiddiy ta’sir ko‘rsatayotgan (kerak bo‘lsa, katta xavf-xatarlar va kulfatlar keltirayotgan) soha bu insoniyat **tinchligi va barqarorligi**dir. “Davrlar o‘tishi bilan progress, taraqqiyot, pozitivlik, bunyodkorlik naqadar jadallashsa, regress, tanazzul, negativlik, vayronkorlik ham shu qadar ildiz ota bordi. Bugungi kunda yuzaga kelayotgan ijtimoiy muammolar va salbiy holatlar o‘zining o‘ta murakkab tabiati, oqibatlari ko‘lami bilan jiddiy tashvish tug‘dirmoqda. Shu bois **destruktiv holatlar**ning shakllanish qonuniyatlarini aniqlash, buning uchun esa mazkur jarayonlarning mohiyati va sabablariga doir mulohazalarni umumlashtirish zaruriyati yuzaga kelmoqda”[81]. Tinchlik va barqarorlikka nisbatan amalga oshirila-yotgan destruktiv faoliyat boshqa barcha sohalarda o‘z ta’sirini ko‘rsatmoqda. Ayniqsa, inson ongu-tafakkuriga nisbatan radikal g‘oyalarni, ekstremistik, millatchilik, diniy, irqchilik va hokazo destruktiv g‘oyalarni, mafkuralarni, inson hayotini izdan chiqarishga qodir madaniyatni axborot makonida tarqatish singari tendensiyalarning ortib borayotganligi o‘tgan XX asrning oxiri va XXI asrning

[81] Бекмуродова Г. **Ижтимоий - деструктив hолатлар талқини динамикаси**. National University of Uzbekistan Volume 3 | NUU Conference 2 | 2022 Google Scholar indexed Current Issues of Social Sciences and Humanities. DOI: 10.24412/2181-1385-2022-2-661-667 Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb masalalari.

birinchi yarmida sodir bo‘layotgan eng dahshatli va kulfatlarga to‘la ijtimoiy jarayon sifatida talqin qilish mumkin.

So‘nggi yillardagi o‘zgarishlar kishilar hayoti sifatini, madaniy turmush darajasini, jamiyatning dunyoqarashini butkul o‘zgartirdi. Bunday jarayonlarning barchasi ijobiylik sari emas, balki salbiy tomonga ham ro‘y berganligi kuzatildi. Qanchalik taraqqiyot ildamlab borgani sari jamiyatda regressiv, negativ, vayronkorlik jarayonlari ham yuz bermoqdaki, ular insoniyat hayotini turli salbiy va vayronkorlik holatlari bilan chulg‘ab olayotganligi kuzatiladi.

Destruktiv tendensiyalarning vujudga kelishi va rivojlanishi bilan bog‘liq jarayonlarning tarixiy ildizlari juda qadimga borib taqaladi. Ham tarixda va ham hozirgi zamonda yuz berayotgan bunday jarayonlarning asl maqsadi, siyosiy va iqtisodiy bo‘lsada, ularning aksariyatini amalga oshirish texnoloiyalarining mazmuni sifatida ma’naviy, mafkuraviy, diniy g‘oyalardan keng va samarali foydalanilgan. Gohida esa bundan millatchilik yoki mahalliychilik g‘oyalaridan ham foydalanishiga insoniyat tarixi guvoh bo‘lgan. Xuddi tarixdagi singari, turli diniy yoki irqchilik g‘oyalari bilan sug‘orilgan destruktiv tendensiyalar bugun ham insoniyat hayotiga, millatlar va elatlar taqdiriga, davlatlar va xalqlar barqarorligiga jiddiy xavf solmoqda. Zero, har bir inson hayoti davomida u yoki bu darajada destruktiv tendensiyalarning salbiy xususiyatlariga duch keladi, kerak bo‘lsa, undan yetarlicha jabr ko‘radi.

Zamonamizda ro‘y berayotgan bunday destruktiv xususiyatdagi tendensiya-lardan, jarayonlardan hech kim kafolatli darajada himoyalangan emas. Chunki, destruktiv xususiyatlarga ega bo‘lgan mafkuralarning tarqalishi va uning insoniyat hayotiga ta’siri borasida juda ko‘plab tadqiqotlar va qarashlar shakllanganligiga qaramasdan, bugungi kunda ularga qarshi kurashish bo‘icha yagona bir standartlar yoki xalqaro hamjamiyatning o‘zaro birdamlik tamoyillari afsuski mavjud emas.

Mavzuning mantiqiy davomi sifatida destruktiv tendensiyalarning insonning ongiga ta’sir tahlilini amalga oshirsak.

So‘nggi yillarda ushbu tendensiyalar avvalo, insonning ongiga ta’sir ko‘rsatish va uning qalbiga turli nafrat va isyon ruhiyatini singdirish yo‘li bilan davlat, xalq, jamiyat yoki biror bir millatga qarshi jinoyatlarga boshlashi mumkin bo‘lgan ijtimoiy va mafkuraviy holat ekanligini alohida e’tirof etmoq joiz. Insonning hayotda uchraydigan har qanday kulfat, tushkunlik, omadsizlik, adolatsizlikka nisbatan qalbida g‘alayon bo‘lishi, unga nisbatan darmon izlashi, ko‘p hollarda, unda jamiyatni ayblash bilan bog‘liq kechinmalarni hosil qilishi psixolog olimlarimiz tomonidan isbotlab berilgan. Xususan, hayot murakkabliklariga, tashvishlariga duch kelgan shaxs hayotida destruksiya jarayon kuzatiladi. E.Dyurkgeym “individni autodestruksiyaga moyilligini (o‘zini-o‘zi vayron qilishga moyillik) jamiyat, birinchi navbatda, yaqinlari tomonidan qabul qilinmaganlik hissi tufayli, yolg‘izlikka giriftor bo‘lganligi natijasi deb hisoblagan. Olimning fikriga ko‘ra, bu jarayon nafaqat individda, balki u hayot kechirayotgan jamiyatning o‘zida ham ro‘y berayotgan ijtimoiy o‘zgarishlarga moslasholmaslik (dezadaptatsiya) paytida vujudga keladi”[82].

Destruksiya’ning asl mohiyati - bu insonning ma’lum bir jiddiy sabablar tufayli hayotdagi barqarorlikdan beqarorlik sari ketishidir. Bunday holatlarning asosiy resursi esa inson hayotiga kuchli ta’sir ko‘rsatuvchi ichki va tashqi omillar hisoblanadi.

Destruktiv tendensiyalar - odatda, jamiyat rivojlanishining destruktiv tomonlarini ajratish va uni taraqqiyparvar kuch yoki g‘oya, jarayon sifatida ko‘rsata bilish orqali qandaydir utopiya’ni amalga oshirish uchun maqsadga yo‘naltirilgan urinishlar sifatida namoyon bo‘ladi. Bu holat ko‘pincha inson psixologiyasi bilan bog‘langan bo‘lib, asosiy maqsad o‘zlariga maqbul bo‘lmagan holatlarga buzg‘unchi yo‘llar bilan erishishni ko‘zlaydi. Tarixda bunday kuchlar nihoyatda ko‘p bo‘lganligi, ularning aksariyati yashirin va maxfiy tarzda faoliyat

[82] Дюркгейм Э. Самоубийство. Соsиологический этюд / Э. Дюркгейм. - Спб.: Изд-во Н. П. Карбасникова, 1912. - 544 с.

olib borganligi, ko‘pincha o‘z maqsadlariga erishishda mafkuraviy kurashdan foydalanganligini alohida e’tirof etmoq joiz.

“Globallashuv jarayonida jamoaga ta’sir etishda manipulyatsiyalardan foydalanishning noyob imkoniyatlari paydo bo‘ladi, bu imkoniyatlar birinchi navbatda OAVning taraqqiyoti, xususiyat va foydalanish bilan bog‘liq. Hozirgi jamiyatda axborot muhiti axborot kommunikativ jarayonlar orqali alohida shaxslar, guruhlar va omma ongiga manipulyativ ta’sir etmoqda”[83].

Destruktiv tendensiyalarning ma’lum ma’nodagi “makoni”ga aylangan axborot tizimi – insoniyat boshiga ko‘plab kulfatlarni keltirmoqda. Jahonning media-ko‘rinishi OAVlari tomonidan obyektiv voqelikni almashtirilishi natijasida uni tushunishni qiyinlashtiruvchi ommaviy auditoriyalar jamoatchilik psixologiyasining ijtimoiy manipulyatsiyasi mahsulotidir. Ushbu salbiy tendensiyalarning odamlar, ayniqsa, yoshlar ongiga juda katta ta’sir quroliga aylanganligi, gohida esa ularning ongu-shuurini, ma’naviyatini, qalbini egallab olayotganligini, buning natijasida esa ularning hayotini izdan chiqarib yuborayotganligi real haqiqatga aylandi. “Hozirgi vaqtda global tarmoqda – UZ domenli veb-saytlar, axborot portallari soni 400 dan oshib ketgani, ularning aksariyati xorijiy tillarda faoliyat ko‘rsatmoqda”[84]. Jahon miqyosida ijtimoiy-psixologik va g‘oyaviy manipulyatsiyalardan ommaviy axborot vositalarida foydalanish orqali xalqaro media-voqelik elementlari global axborot muhitiga kirib kelmoqda va ular sekin-asta axborot urushi texnologiyalariga aylanib bormoqda. Axborot paradigmasini faqat qadriyatlarning mavjud tizimi aniqlaydi. Axborotlashgan jamiyatning globallashuv sharoitida rivojlanishi uning atomlashuvi tendensiyalarining chuqurlashuvi bilan hamohang bo‘lib, radikal plyurallikning, G‘arb madaniyati eklektikligining zamonaviy holatini aks ettiruvchi modernistik paradigmaga muvofiqdir. Ayrim ommaviy axborot tarmoqlarida vayronkor g‘oyalarni tarqatish

[83] Хайдарова Х.Р. Ахборотлашган жамият шароитида ота оналарнинг виртуал-педагогик маданиятини ривожлантириш масалалари. Монография. –Т.: «Innovatsion rivojlanish nashriyotmatbaa uyi» 2022. – Б.131. 216 б.

[84] Накимов С. Наракатлар стратегияси: ислоhотлар жараёни ва оммавий ахборот воситалари. Фарг‘она. 2018. Б-7

orqali yoshlarga zo'ravonlik, shafqatsizlik, hayosizlik kabi salbiy hissiyotlarni singdirish tendensiyalari kuchaymoqda. Buning oqibatida millatchilik, diniy ekstremizm, ayirmachilik, milliy va etnik nafrat, mahalliychilik singari illatlarning axborot maydonida tobora avj olayotganligi, unga ergashuvchilarning esa o'z hayotlarini xavfga qo'yib bo'lsada, “rahnamolar”ning topshiriqlarini, buyruqlarini so'zsiz bajarishga “mahkum” bo'layotganligi kuzatilmoqda.

“Inson qalbi va ongini egallash uchun kurash xilma-xil g'oyalar bilan qurollangan, turli manbalardan oziqlanadigan mafkuralarning asosiy maqsadiga aylanmoqda”[85].

Axborot kommunikatsiya texnologiyalari jadal rivojlanayotgan hozirgi kunda uning imkoniyatlaridan buzg'unchi maqsadlarda foydalanish, xususan, Internet tarmoqlari orqali milliy mentalitetimizga mutlaqo yot mafkura va dunyoqarashni yoshlarning ongiga singdirish, ularning axloqiy-ruhiy holatiga salbiy ta'sir ko'rsatish holatlari avj olmoqda. Axborot makonidan o'z ongiga ozuqa izlash bilan mashg'ul bo'layotgan kategoriyaga nafaqat yoshlar, balki o'rta yoshlilar, turli soha vakillari, o'z dardiga “darmon” izlayotgan yolg'izlar yoki alamzadalar bunday informatsion tendensiyalar uchun ajoyib o'ljaga aylanayotganligi har qanday jamiyat va davlat uchun xatarli va xavfli tendensiya hisoblanadi. “Media, OAV, ijtimoiy tarmoqlar bugungi kun destruktiv tendensiyalar tarqalishi va rivojlanishi uchun juda katta “imkoniyatlarni” taqdim qilmoqda”[86].

Yuqorida keltirib o'tilganidek, nazorat qilinish imkoniyati tobora kamayib borayotgan axborot maydonidan ham konstruktiv kuchlar va ham destruktiv kuchlar foydalanmoqda. Birinchi holatda u shaxs va guruh o'rtasidagi munosabatlarni mustahkamlashga xizmat qilsa, ikkinchisida guruh o'rtasidagi tarqoqlikka olib keladi. Aksariyat hollarda, axborot maydoni imkoniyatlaridan konstruktiv tendensiyalarga nisbatan destruktiv tendensiyalar samarali va jadal

[85] Миллий истиқлол g'oяси: асосий тушунча ва тамойиллар. – Тошкент.: Ўзбекистон, 2000. – Б. 22.
[86] Лучко А.А. Как интернет влияет на психику и организм человека // Афиша-Daily. 17.03.2016. URL: https://daily.afisha.ru/brain/928-kak-internet-vliyaet-na-psihiku-i-organizmcheloveka/

foydalanayotganligi ko‘plab mutaxassislar tomonidan e’tirof etilmoqda. Zero, zamonaviy jamiyatning eng nozik tomoni – bu uning axborot makoniga haddan tashqari bog‘lanib qolganligidir. “Axborot – psixologik qurol. U ommaviy axborot vositalari, kompyuter o‘yinlari, internet tizimi yordamida inson dunyoqarashiga kuchli ta’sir ko‘rsatishga mo‘ljallangan”[87]. Biz nafaqat kunlik axborotlarni olish uchun, balki vaqtni o‘tkazish uchun ham ko‘ngilochar ma’lumotlar bilan tanishishda soatlab turli gadjetlardan foydalanamiz. Bugun bunday texnikalar insoniyatning eng yaqin “sirdoshi” va hamsuhbatiga aylanib ulgurdi.

Axborot maydoniga murojaat qiladigan individ unda turli tuman ma’lumotlarga, xabarlarga, chaqiriqlarga duch keladi va ushbu axborotlarning tabiati, xususiyatlari, yo‘nalishlari, qanday maqsadga yo‘naltirilganligiga har doim ham e’tibor bermasdan, farqlamasdan iste’mol qila boshlaydi. Axborotlarning asl mohiyatini, uning inson ongiga haddan tashqari ta’sirlarini chuqur anglamasdan iste’mol qilish oxir-oqibatda insonda zaruriy bilimlar bilan bir qatorda, turli tuman destruktiv qarashlarni ham vujudga keltiradi. Bu holatlarning salbiy ta’siri sifatida shaxsda turli ruhiy holatlar, uning ruhiyatida esa hayotdan, turmushdan, jamiyatdan, davlatdan norozilik kayfiyati shakllanadi, rivojlanadi va bu holat bosqichma-bosqich radikal qarashlar rivojlanishiga sabab bo‘ladi.

Yuqorida keltirib o‘tganimizdek radikal qarashlarning shakllanishi turli destruktiv guruhlar tomonidan maqsadga yo‘naltirilgan tarzdagi axborotlarni tarqatish orqali amalga oshiriladi. Insonni bosqichma-bosqich o‘zlariga tobe qilish uchun bunday guruhlar, shaxslar, o‘zlaridan qahramon yasagan targ‘ibotchilar, diniy, milliy, etnik “yetakchilar” tomonidan turli “maqsadli” ma’ruzalar, chiqishlar, she’rlar, xullas, axborotlar tarqatishga yanada zo‘r beriladi va qo‘lga kiritilgan “o‘lja” shaxslarlar bilan ishlash, ular ongini ma’lum bir yo‘nalishlarga burish va boshqarishga qaratilgan faoliyat kuchaytiriladi[88].

---

[87] Muhammad Amin Yahyo. Internetdagi tahdidlardan himoY. T.: Movarounnahr, 2016.

[88] Top 10 types of information security threats for IT teams. https://www.techtarget.com/searchsecurity/feature/Top-10-types-of-information-security-threats-for-IT-teamsмас.

Destruktiv tendensiyalar so‘nggi vaqtlarda turli kategoriyalar va auditoriyalarga yo‘naltirilgan tarzda tashkil etilmoqda. Eng yomoni ba’zida insonda paydo bo‘ladigan tushkun yoki norozilik kayfiyati, yuqorida keltirib o‘tganimizdek, destruktiv kuchlarning ov qilishlarini va o‘zlari uchun tayyor o‘ljani qo‘lga kiritishni yanada tezlashtirib borayotganligiga guvoh bo‘lib turibmiz. Masalan “Destruktiv (buzg‘unchi) aqidaparastlar vakillari “ong nazoratida” introyektiv yo‘nalishdan samarali foydalanmoqda. Bu yo‘nalish shaxslarning o‘zgalar manfaati yoki biron-bir ijtimoiy, falsafiy yoki diniy mafkura yo‘lida o‘zini qurbon qilishda yaqqol kuzatiladi”[89].

Axborot makonini nazorat qilishning imkoniyati nihoyatda pastligi, bu jarayonlar xalqaro me’yorlar va qonunlar asosida tartibga solinmayotganligi, axborot tarqatish orqali destruktiv faoliyatni yo‘lga qo‘yish, amalga oshirish va o‘z “o‘lja”lari vositasida ma’lum bir inqirozli holatlarni vujudga keltirish bilan bog‘liq ishlar tobora chuqurlashib borayotganligini aytib o‘tishimiz kerak. Destruktiv tahdidlarning xavfi ortib bormoqda. Masalan Afg‘oniston va ba’zi arab mamlakatlaridagi qarama-qarshilik va to‘qnashuvlarning geosiyosiy mohiyatiga e’tibor bersak, ular ham aslida dunyodagi turli kuchlar o‘rtasida kurashlarning kuchaygani tufayli avj olayotganini ko‘ramiz. “Internetda yana etnik integratsiya sur’atlari jadallashib borayotgan bo‘lsada, kishilik jamiyatida asrlar davomida mavjud bo‘lib kelayotgan diskriminatsiya, shovinizm singari illatlar real voqelikdan virtual olamga ko‘chmoqda va bu jarayonda hali huquqiy asoslari shakllanish bosqichida bo‘lgan global tarmoqdan mafkuraviy-psixologik kurash quroli sifatida foydalanilmoqda”[90].

X.Xaydarova destruktiv texnologiyalar tahlilida “Axborot urushi destruktiv texnologiyalarini o‘rganish axborot urushi bu omma va jamiyat fikriga tizimli ta’sir o‘tkazish texnologiyasi, ya’ni manipulyatsiyalar texnologiyasi degan

---

[89] Ботиров Б.М., Ботирова С.Р. Суисидал фаоллик ва уни прогнозлаш муаммолари/ Монография. –Т.: «Fan va texnologiyalar nashriyot-matbaa uyi», 2021. –Б.67. 118 б.

[90] Rajabov, Shukhra Sheralievich (2019) "HUMAN FACTOR IN CYBERSPACE:ITS INFLUENCE ON AESTHETIC URBRINING," Scientific Bulletin of Namangan State University: Vol. 1: Iss. 4, Article 22. Available at: https://uzjournals.edu.uz/namdu/vol1/iss4/22

xulosaga olib keladi. Ammo boshqa texnologiyalarga nisbatan axborot urushi axborot ta’siri tizimining eng mukammal va murakkab ko‘rinishi sifatida o‘zini ko‘rsatmoqda, shu bilan birga o‘zining natijasi bo‘yicha eng destruktivdir” deya baho beradi[91].

Shuni ta’kidlash joizki unchalik uzoq bo‘lmagan davrni o‘z ichiga olgan, butun bir davlatlar va jamiyatarni o‘z domiga tortgan ISHID jangari guruhining paydo bo‘lishi va o‘z faoliyati doirasiga ko‘plab resurslarni, terrorchilarni jalb qilishining eng muhim instrumenti – bu axborot makoni, ya’ni internet va ijtimoiy tarmoqlar bo‘lganligini alohida e’tirof etmoq joiz. A.Y.Pidjakovning fikricha “Kiberekstremizm - umumiy tashvishga soluvchi ko‘plab kiberterapiyalardan biridir. Uning maqsadlari siyosiy yoki iqtisodiy inqirozni, sabotaj, fuqorolik aktivlari va resurslarni siyosiy maqsadlarda o‘g‘irlashni o‘z ichiga oladi”[92]. Bunda kiberekstremistlar birinchi navbatda inson tafakkurini yo‘qotishga intiladilar. A.Ayrapetova tadqiqotida qayd etilganidek “Diniy oqimlar, mafkurachilar yoshlar ongini boshqarish, destruktiv soxta, buzuq ishonchni shakllantirishda aynan ularning din sohasidagi bilimlarining sayozligidan foydalanib, diniy axborot elementlarini mohirlik bilan bog‘lay oladilar. Bu oxir-oqibat, past diniy savodxonlik soxta fikrlar, fanatik maqsadlar yoki barqaror ksenafob yoki diniy-ekstremistik qarashlar shakllanishiga olib keladi”[93].

Ilgari insonlar uchun mavhum, anglab bo‘lmas, yoki notanish bo‘lgan axborotlarning turli manbalar, jumaladan, audio, videoroliklar, o‘qiladigan materiallar, kinofilmlar yordamida jamiyatga ta’sir ko‘rsatish, bosim o‘tkazish uchun keng miqyosda foydalanilishi natijasida, ko‘plab insonlar o‘zlarining tinch, hattoki barqaror turmush tarzini o‘zgartirishga “majbur bo‘lganligi”ni, axborotning ta’sirida kim bilan, kimga qarshi, nima maqsadda, kimning manfaati

---

[91] Хайдарова Х.Р. Ахборотлашган жамият шароитида ота-оналарнинг виртуал-педагогик маданиятини ривожлантириш масалалари. Монография. –Т.: «Innovatsion rivojlanish nashriyotmatbaa uyi» 2022. – Б.134.
[92] Пиджаков А.Ю.Борба с политическим экстремизмом и терроризмом: проблемы изучения / А.Ю. Пиджаков// Известия ВУЗов. Правоведение. – 2003. - №3. – С.234-244
[93] Айрапетова А.Г. Ёшларда нотўғри диний тушунчаларни шакллантирувчи шахс хусусиятлари: психология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертаwiяси автореферати. - Тошкент: 2017

uchun urushadigan tayyor jangchi, jangarilarga aylanganligi bugun hech birimizni taajjubga solmaydi. Insonlarning, hattoki butun bir jamiyatlarning koʻpchiligi mana shu axborotlarning qurboniga aylanayotganligi, ular orqali tarqatilayotgan negativ axborotlardan “ilhomlanayotganligi” yaqqol koʻrinib turgan jamiyatda, davrda yashayotganligimiz bor gap. Xususan, “tahlillarga koʻra, oʻtgan yilda terrorizm va ekstremizm bilan bogʻliq aniqlangan huquqbuzarliklarning 80 foizi fuqarolarning Internet ijtimoiy tarmoqlarida destruktiv gʻoyalar ta’siriga tushib qolishlari natijasida sodir etilgan boʻlsa, mazkur yoʻnalishda 2022 yilda aniqlangan jinoyatlar doirasida javobgarlik masalasi koʻrib chiqilgan shaxslarning 61 foizi yoshlar (18-30 yosh) hisobiga toʻgʻri kelgan”[94].

Destruktiv kuchlarning asosiy auditoriyasi bugunga qadar, asosan yoshlar boʻlib qolayotganligini alohida qayd etish joiz. Markaziy Osiyo mintaqasining barcha mamlakatlarida qonunan norasmiy deya e’lon qilingan va taqiqlangan radikal va ekstremistik tashkilotlar oʻz saflarini toʻldirish uchun nafaqat yoshlarni, ma’lum bir toifadagi shaxslarni, oʻzlari muhim deb hisoblagan “mutaxassislarni”, shuningdek, xotin-qizlarni va bolalarni ham keng jalb qilishga kirishgan edi. Buning sababi, xotin-qizlarni jalb qilish evaziga – erkaklarni ham oʻz saflariga tortish, shuningdek, ulardan va bolalardan tirik “bomba” hisoblanmiz – hudkushlarni tayyorlash, banformirovaniyalar tarkibining asosini tashkil qiladigan oddiy tarkibdan terroristik aktlarni amalga oshirish, ular orqali oʻzlarining ijtimoiy-psixologik, fiziologik va demografik imkoniyatlarini oshirish boʻlganligini aytish lozim. Mamlakatdagi ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy va boshqa omillar ta’sirida destruktiv ta’sirga moyil yoki irodasi sustroq yoshlarda ham radikal qarashlar yoki ularga e’tiqod oson shakllanadi. Bundaylar ochiqchasiga boʻlmasada, maxfiy tarzda terroristik tashkilotlar roʻyxatini toʻldirishi, boshqa kuchlarning siyosiy maqsadlari xizmatchilariga aylanishlari mumkin.

[94] Мавлянов М. Ўзбекистонда терроризм ва экстремизмни олдини олишга қаратилган чора-тадбирлар // ТЕРГОВ АМАЛИЁТИ ҳуқуқий, илмий-амалий журнал. -Т. № 4/2022 йил (16-сон). - Б.60-67.

Bugun insoniyat axborotsiz yashay olmaydigan davrga, hayot fazasiga kirganligi, ayniqsa, biror bir davlatni, hukumatni, siyosatni, siyosiy liderlarni, millatlarni, dinlarni tanqid qiladigan, ularning ishlarini doimiy salbiy tarzda ko‘rsatadigan, taqdim qiladigan axborotlarga nisbatan “qiziqish” haddan ortib borayotganligi bilan bog‘liq informatsion jarayonlar hukmronlik qilmoqda. Odamlarning kimnidir noxolis bo‘lsada, tanqid qilishlari, kimnidir noo‘rin bo‘lsada ayblashlari, kimningdir o‘ylab topilgan bo‘lsada, “qandaydir qilmishlari” haqidagi salbiy axborotlarning iste’molchilari kun-sayin ortib bormoqda. Bu esa jamiyatda dastlab destruktiv kayfiyatni, undan keyin esa ularda ma’lum bir hulq-atvor modellarini, faoliyat namunalari yaralishining asosi bo‘lib xizmat qiladi. Aksariyat hollarda bunday destruktiv tendensiyalar radikalizm, ekstremiz, fundamentalizm, separatizm, millatchilik, diniy nafrat singari jiddiy psixologik, ijimoiy va siyosiy voqeliklarga sabab bo‘lmoqda.

XXI asr shaxs va jamiyat, shaxslararo munosabatlar o‘rtasidagi o‘zaro ta’sirlar muammosini keskinlashganini ko‘rsatdi. O‘z navbatida, mazkur muammo inson va jamiyat rivojidagi destruktiv tendensiyalar kuchayishi va yig‘ilishiga turtki bo‘ldi. Ushbu destruksiyalarga javob tariqasida salbiy tusdagi deviatsiyalarning turli shakllari vujudga keldi. Xavfli tomoni shundaki, rivojlangan mamlakatlarda o‘zini-o‘zi vayron qilishning eng dahshatli shakllari kuchaydi.

Yoshlarda quyidagi ko‘nikmalar shakllantirgandagina, destruktiv omillarning ta’sir darajasini pasayishi kuzatiladi:

xavf – o‘z sog‘ligi va hayotiga tahdid borligini anglash; kutilmaganlik - vazifani bajarish vaqtidagi holatning kutilmaganda o‘zgarishi; noaniqlik - vazifani bajarish shartlari yoki dushman to‘g‘risidagi ma’lumotlarning kamligi, yoki zidligi; harakatlar sur’atining o‘sishi - vazifani bajarishga sarflanadigan vaqtning qisqarishi; vaqt taxchilligi – tig‘izligi, vazifani bajrish muddati. Yoshlarni destruktiv ta’sirlarga tushmasligini ta’minlovchi asosiy sifatlar shakllanganligi ular faoliyatining samaradorligini ta’minlaydi.

Axborot xavfsizligini taminlash va yoshlarning tafakkurida bo‘layotgan hurujlarning oldini olish masalalari hozirgi kunda muhim voqelikka aylanib bormoqda.

# II BOB. MAFKURAVIY VA MA’NAVIY TAHDIDLAR BILAN BOG‘LIQ JARAYONLAR TAHLILI

## 2.1. Ma’naviy va mafkuraviy tahdidlar klassifikatsiyasi va mafkuraviy qo‘poruvchilikning namoyon bo‘lish omillari

Barcha mintaqalarda globallashuv jarayoni ijtimoiy-madaniy hodisalarga o‘zining turlicha ta’sirini o‘tkazmoqda. Ushbu ta’sir ko‘lami dunyo mamlakatlarning siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, axborot, ma’naviy salohiyati va geosiyosiy omillar bilan chambarchas bog‘liq. Zamonaviy tahdidlar davlatning butun tizimiga tasir o‘tkazib, jamiyat hayoti va faoliyatining barcha jabhalarini izdan chiqarishga qaratiladi. Shu bois jamiyat xavfsizligi hamda mamlakat barqarorligini ta’minlash hozirgi kunning dolzarb muammosiga aylandi.

Dunyo miqyosida globallashuv jarayonining kuchayishi natijasida avj olib borayotgan ma’naviy va mafkuraviy tahdidlar, yot g‘oya va mafkuralar ta’sirida inson qalbi va ongini zabt etishga harakat tobora kuchayib bormoqda. Shuning uchun ham yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash davlat ahamiyatiga molik masala hisoblanadi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganidek “tarixdan ma’lum: Vatan va xalq taqdiriga nisbatan tahdidlar kuchaygan vaziyatda aynan millat fidoyilari – uyg‘oq qalbli ziyolilar, shoir va adiblar, san’at namoyandalari, ma’naviyat va ma’rifat sohasi xodimlari jasorat bilan maydonga chiqqanlar. Mamlakatimiz o‘z taraqqiyotining yangi, yuksak bosqichiga kirayotgan hozirgi paytda bizga jadid bobolarimiz kabi g‘arb ilm-fan yutuqlari bilan birga, milliy qadriyatlar ruhida tarbiya topgan yetuk kadrlar suv bilan havodek zarur”[95].

Darhaqiqat, dunyo miqyosida xavf va tahdidning zamonaviy turlarini paydo bo‘lishi natijasida siyosiy hukmronlikka intilishda to‘g‘ri ochiq tahdidlar ko‘rinishini o‘zgacha tus olishi kuzatilayotganligi yuqorida keltirilgan fikrlarning naqadar dolzarbligini yana bir bor tasdiqlaydi.

---

[95] Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг 2023 йил 22 декабрдаги Республика Маънавият ва маърифат кенгашининг кенгайтирилган йиғилишидаги нутқи. https://president.uz/uz/lists/view/6941

Bugungi kunda jamiyatda shaxs ma’naviy xavfsizligini ta’minlash masalasi toboro muhim va hal qiluvchi ahamiyat kasb etib bormoqda. Shu nuktai-nazardan ma’naviy va mafkuraviy tahdidlar globallashuv jarayonining eng murakkab muammolari qatorida o‘ziga xos ijtimoiy-siyosiy tahdid sifatida namoyon bo‘lmoqda. Terroristik, ekstremistik, separatistik qarashlar va da’vatlardan saqlovchi ma’naviy asos mudofaa ongi sanaladi. Uning moddiylashuvi esa, aniq hulq-atvor namunasida ko‘rinadi.

Jamiyatning ma’naviy xavfsizligi deganda birinchi navbatda shaxs, jamiyat davlatni axborot makonidagi turli tahdidlar xavf-xatar omillari begona manfaatlarning talablaridan har tomonlama himoyalanganligini bildiruvchi holat tushuniladi. Ma’naviy va mafkuraviy tahdidlar insonlarning o‘zlarini, ularning qarashlari, g‘oyalari, fikrlari va maqsadlarini o‘zgartirishga va boshqa jamiyatlar ta’siriga tushirishga intiluvchi harakatlardir. Ushbu tahdidlar, ijtimoiy, siyosiy, diniy, iqtisodiy, ekologik va boshqa sohalarda o‘zgarishlar va tartibsizliklarga sabab bo‘lishi mumkin. Ma’naviy va mafkuraviy tahdidlar quyidagi klassifikatsiyalarga bo‘linadi:

Diniy tahdidlar: Diniy tahdidlar, dinamik, mafkuraviy yoki o‘zgaruvchan diniy g‘oyalar, ideologiyalar va fikrlar tomonidan yuzaga keladi. Bu tahdidlar odatda radikal g‘oyalar, ekstremistik fikrlar va diniy guruhlar orqali ifodalanadi. Diniy tahdidlar barqarorlikka ta’sir etib insonlarning mazhab va qarashlarga qarshi kurashishga olib keladi.

Ijtimoiy tahdidlar: Ijtimoiy tahdidlarning jamiyatda kengayib borishi jamiyatdagi o‘zgarishlarga ta’sir qilish va odatiy aniq normativlarni o‘zgartirilishiga olib keladi. Bu tahdidlar odatda ijtimoiy muammolarni yechishga intiladi va o‘zgarishlarni qayta talqin qilishga yordam beradi.

Siyosiy tahdidlar: Davlat va hukumatlar tomonidan o‘rnatilgan rejimlarni o‘zgartirish yoki yangi rejimlar kiritishga intilish. Bu tahdidlar odatda siyosiy harakatlarni radikallashtirish, yangi rejimlar kiritish, siyosiy korruptsiya va hukumatlarning stabil ishlashiga oid muhim o‘zgarishlarni o‘z ichiga oladi.

Ekologik tahdidlar: Ekologik tahdidlar tabiiy muhitga bog‘liq muhim o‘zgarishlar hisoblanadi. Bu tahdidlar ekologik o‘zgarishlarni qayta talqin qilishga, tabiat moddiy resurslarini sifatli ko‘zdan kechirishga va ekologik ekspansiyaga sabab bo‘lishi mumkin.

Iqtisodiy tahdidlar: Iqtisodiy tahdidlar, iqtisodiy muammolarni yuzaga kelishi, tizimlarda iqtisodiy istiqbollarni izdan chiqarishga olib keladigan jarayonlardir. Bu tahdidlar odatda iqtisodiy muammolar va tanazzullar yechimini izlashga va o‘zgarishlarni qayta talqin qilishga yordam beradi.

Ushbu tahdidlar, inson hayotiga ta’sir ko‘rsatadi va umumiy o‘zgarishlar qamrovini kengaytiradi. Shu bois, bu tahdidlarga qarshi kurashishda qonuniylik hamda mafkuraviy o‘zgaruvchanlik e’tibor berish, shuningdek, tahdidlar bilan kurashishda ilmiy va amaliy chora-tadbirlarni amalga oshirish muhim vazifadir.

Tahdidlarni shartli ravishda iqtisodiy, sotsial, siyosiy, tabiiy, ekologik, demografik va mafkuraviy turlarga ajratar ekanmiz bularning barchasini umumiy «ijtimoiy tahdid» nomi bilan belgilash maqsadga muvofiq. Chunki, barchasining zamirida ijtimoiy munosabatlar, avvalambor inson faoliyati bilan bog‘liq jarayonlar yotadi.

Biz tahlil qilayotgan mafkuraviy tahdidlarning eng xatarli jihati davlatning, millatning, xalqning ongu- shuuriga ta’sir o‘tkazishi va uning taraqqiyot yo‘lini izdan chiqarishi bilan bog‘liq deyilsa, mubolag‘a bo‘lmaydi. Chunki mafkuraviy tahdidlar birgina insonni emas, butun boshli jamiyatlar ongi, dunyoqarashi va hayotiga dahl qilishi bilan jiddiy xavf hisoblanadi. Bu xavf ko‘zga ko‘rinmasada, lekin uning keltiradigan zarari har qanday tez tarqalishi mumkin bo‘lgan viruslardan bir necha barobar ortiq bo‘lishini unutmaslik lozim. B.Berdiyev tadqiqotida “jamiyat barqarorligini ta’minlashda mafkuriy profilaktika mamlakatning bir tizimdan ikkinchisiga transformatsiyalashuvida, xalqning jipsligini ta’minlaydigan, uning dunyoda globallashuv jarayonlarida yuz beradigan

har qanday tahlikali o‘zgarishlarga bardoshliligini oshiradigan omil”-ekanligi keltirilgan[96].

Shu o‘rinda, mafkuraviy tahdidlar haqida gap borar ekan, mazkur tushuncha haqidagi qarashlarni tahlil qilish maqsadga muvofiq. Mavzuga oid manbalar tahlilida mafkuraviy tahdidlar va ularni bartaraf etishning ijtimoiy-huquqiy mehanizmlarini aniqlashga qaratilgan bir qator ilmiy tadqiqotlar olib borilganligi aniqlandi. Xuusan, MDH olimlari A.Masalimova, T.Gabitov, A.Kurmanaliyeva, M.Dinarshoyev, M.Raximov, N.Maxmadizoda tomonidan mafkuraning jamiyat ijtimoiy hayoti va inson ma’naviyatiga ta’sirining ba’zi elementlari diniy-axloqiy, siyosiy-falsafiy ta’limotlar nuqtai nazaridan asoslangan[97]. Shri Aurabindolar Sharq mutafakkirlari ijodidagi mafkura va mafkuraviy jarayonlar haqidagi g‘oyalarni jamiyat ijtimoiy hayotining ko‘rinishi deb baho bergan.

Mafkuraviy tahdidlar, uning jamiyat, guruh, shaxsga qaratilishi, mafkuraviy tahdidlarning sodir bo‘lish jarayoni olimlar B.To‘ychiyev, T.Alimardonov, O‘.Shakarov, B.To‘ychiyeva, I.Ergashev, O.Muhammadiyeva, M.Xo‘jayev tomonidan tadqiq etilgan[98]. A.Muxtorov tadqiqotida mafkuraviy tahdidlarning maqsadi, mafkuraviy tahdid vositalari, usullari va tahdidlarni ro‘yobga chiqarish jarayoni yoritilgan[99]. S.Mamashokirov, SH.Tog‘ayev tadqiqotlarida mafkuraviy tahdidlar, mafkuraviy poligon, madaniyatlar to‘qnashuvining jamiyat taraqqiyoti-dagi o‘rnini ochib berilgan[100].

---

[96] Бердиев Б.О. Ўзбекистонда сиёсий модернизация жараёнларининг ўзига хос хусусиятлари. сиёсий. фан. бўйича фал. док. (PhD) ... дис. автореф. –Тошкент. 2019. –30 б.

[97] МасалимоваА. Культура и цивилизация, рекомендованного МОиН РК 2005–210 с.; Габитов Т. Казахская философия в контексте национальной идеи. –Алматы: Раритет, 2010–150 с.; Курманалиева А. Культура и цивилизация. Алматы, 2006 –200 с.; Динаршоев М. Плюралистическая философия Абу Бакра ар-Рази, 2013. –220 с.; Рахимов М. Международное сотрудничество Узбекистана в контексте обеспечения стабильности и устойчивого развития в Сентральной Азии. 2011. –315 с.; Махмадизода Н. «Проявления религиозно-политического экстремизма в условиях развитии таджикского общества и способы его предотвращение: философско-сосиальный анализ» на соискание учёной степени доктора философских наук по специальности. – Сосиальная философия. 2020.-105 с.

[98] Тўйчиев Б, Алимардонов Т, Шакаров Ў, Тўйчиева Б, Эргашев И, Муhаммадиева О, Хўжаев М, Тўйчиев Б.Т. Миллий g‘оя: Ўзбектонни ривожлантириш стратегияси –Тошкент.: Ilm-ziyo-zakovat, 2020. –73 б.

[99] Мухторов А. Глобаллашув шароитида маънавий таҳдидларни бартараф этиш омиллари. –Тошкент: Маънавият, 2015. –32 б.

[100] Мамашокиров С., Тоғаев Ш. Эркин ва фаровон ҳаёт қурилишининг ғоявий-мафкуравий масалалари. – Тошкент: Маънавият, 2007. –10 б.

Avvalo, mazkur tushunchaning mohiyatini anglatuvchi tahdid haqida fikr yuritsak. “Tahdid” (arab.) – do‘q qilish, qo‘rqitish, - degan so‘zdan olingan bo‘lib, - birovni qo‘rqitish, unga do‘q, po‘pisa qilish hamda biror falokatning, qo‘rqinchli voqeaning sodir bulish xavfi, degan ma’nolarni beradi[101]. Tahdid - bu inson hayotiy faoliyati, umuman, yashashni chigallashtiruvchi uning o‘z salohiyatiga taya’nib, asrlar davomida o‘zi uchun maqbul, shu bilan birga jamiyat barqarorligi, xavfsizligini asrashga qaratilgan muhofaza tizimiga hamda ma’lum tarixiy davr mobaynida barpo etilib, aniq maqsad sari yo‘naltirilgan ijtimoiy siyosiy tuzilma, aniqrog‘i, davlatning siyosiy asosini zaiflashishi, keyinchalik esa, uni yemirilishiga olib keluvchi mahalliy, xududiy, mintaqaviy va nihoyat, umumsayyoraviy salbiy omillarning kirib kelishi natijasida aniq makon va zamonda yuz beruvchi o‘ta salbiy nohush, beqaror siyosiy ijtimoiy tarixiy vaziyatdan iboratdir.

Professor Sh.I.Paxrutdinov tomonidan ijtimoiy-siyosiy hayotda jamiyat barqarorligini ta’minlash mexanizmi sifatida «tahdidbardosh jamiyat» modeli ilgari surilgan. Olimning fikricha tahdid - maqsad sari yo‘naltirilgan, aniqrog‘i, davlatning siyosiy asosini yemirilishiga olib keluvchi, aniq makon va zamonda yuz beradigan o‘ta salbiy nohush va beqaror siyosiy- ijtimoiy, tarixiy vaziyatdir[102].

“Tahdid bu jamiyatga, siyosiy hayotga turli-tuman salbiy ta’sirlar, omillarning kirib kelishi natijasida shakllangan va uni izdan chiqarishga qaratilgan makon va zamonda aniq va o‘ta salbiy, beqaror ijtimoiy vaziyatdir. Jamiyat, davlat, inson manfaatlariga nisbatan tahdidlar darajasidan qat’iy nazar ulardan keladigan zararli oqibatlarning ta’siri nuqtai nazaridan deyarli bir xilligini e’tirof etish maqsadga muvofiq”[103].

Shu o‘rinda Prezidentimiz SH.Mirziyoyevning “Farzandlarimizning turli radikal va zararli g‘oyalar ta’siriga tushib qolishiga yo‘l qo‘ymaslik - asosiy

[101] Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Ж.4. -Т.: "Ўзбекистон миллий энциклопедияси" Давлат илмий нашриёти, 2008. -Б.41.
[102] Пахрутдинов Ш.И. Мустақиллик ва жамият тарақиётига таҳдид муаммоси (сиёсий таҳлил тажрибаси). Сиёсий фанлар номзоди илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. –Тошкент, 1999.
[103] Раматов Ж.С., Рахимова М.И., Ҳасанов М.Н. Мафкуравий таҳдидларни олдини олишда исломий қадриятларнинг ўрни //Academic research in educational sciences. – 2022. – Т. 3. – №. 6. – С. 1031-1036.

vazifamizdir. Bu boradagi ishlarni yangicha yondashuvlar bilan davom ettirishimiz kerak" - degan so'zini keltirish mavzuning dolzarbligini anglatadi[104].

"Tahdid -ijtimoiy-siyosiy vaziyat bo'lib, u muayyan tarixiy davrda aniq bir maqsadga, ya'ni ijtimoiy tizim sifatida davlatning siyosiy asoslarini zaiflashtirishga, yemirishga, shuningdek, inson hayotiy faoliyatini izdan chiqarishga, umuman yashashni chigallashtirishga qaratilgan hududiy-mintaqaviy, umumsayyoraviy omillarning kirib kelishi tufayli sodir bo'ladi"[105].

Tahdid – aniq reallikka aylanib borayotgan, lekin to'liq shakllanib ulgurmagan xavfsizlik obyektlari va subyektlariga moddiy va ma'naviy ko'rinishda zarar yetkazishi mumkin bo'lgan shart-sharoitlardir.

Bugungi kunda tahdidlarning ayrimlari latent tarzda amalga oshirilmoqda. Bundan kuzatiladiki har qanday tahdidning maqsadi insonning hayoti va faoliyatini izdan chiqarishga qaratilganligini inobatga olsak, bu masala milliy va ma'naviy xavfsizlikni ta'minlashda ham tahdidbardoshlik omilini inobatga olish kerak. Albatta, davlat va jamiyatimiz tomonidan amalga oshirilayotgan barcha islohotlarning tub negizida har bir xavf-xatarga nisbatan "tahdidbardoshlik" salohiyati va qobiliyatini yanada oshirishga qaratilgan.

Mafkuraviy tahdid insonlar tomonidan tashkil qilinadigan xalqlar, jamiyatlar va davlatlar hayotiga bo'ladigan har qanday tahdidlarning eng xatarlisi hisoblanadi. Ana shunday xatarning ahamiyatidan kelib chiqib, mafkuraviy tahdidlar bilan bog'liq juda ko'p qarashlar va unga berilgan ta'riflar mavjud. Masalan, "jamiyat, davlat yoki xalq, millat yoki elat taqdiriga xavf solib turgan, fojeali oqibatlarga olib kelishi mumkin bo'lgan mafkuraviy xavf-xatarlar majmuasi"[106]. M.Yo'ldasheva "mafkuraviy tahdidlar g'arazli strategik maqsadlarni ko'zlaydigan kuchlar tomonidan ijtimoiy makon va zamon xususiyatlarini

---

[104] Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.Мирзиёевнингн Олий Мажлисга Мурожаатномаси. -Тошкент: Ўзбекистон, 2018 йил, 28 декабрь.

[105] Пахрутдинов Ш. Тахдид -ҳалокатли куч (мақола ва маърузалар тўплами). -Т.: «Академия», 2001. -11-12 б., Пахрутдинов Ш. Таҳдидбардошлик –ҳозирги замон жамиятининг муҳим шарти //Фуқаролик жамияти. -Тошкент, 2010. -Но 2

[106] Фалсафа. Қомусий луғат. – Тошкент: Шарқ, 2004. -250 б.

inobatga olgan holda, puxta ishlab chiqilgan ta’sir ko‘rsatish tizimi”- deya baholaydi[107]. “Mafkuraviy tahdid real makon va zamonda mavjud bo‘lgan siyosiy-ijtimoiy harakat yoki muayyan kuchlarning manfaatlarini ifodalovchi mafkuralarni qo‘rqitish yoki zo‘rlik yo‘li bilan boshqalarga tiqishtirishi va ularning mafkuraviy qurol vazifasini o‘taydi[108].

Mafkuraviy tahdid - ijtimoiy siyosiy harakat, oqim yoki siyosiy kuch o‘z manfaatini ifodalovchi o‘z mafkurasini qo‘rqituv, zo‘rlik yo‘li bilan boshqalarga tiqishtirish. Mafkuraviy tahdidlar jamiyat, davlat yoki xalq, millat yoki elat taqdiriga xavf solib turgan, fojiali oqibatlarga olib kelishi mumkin bo‘lgan mafkuraviy xavf - xatarlar majmuasi. Insonlar ongida bu radikallizm, siyosiy ekstremizm, diniy fundamentalizm, etnik va millatlararo ziddiyatlar, korrupsiya va jinoyatchilik, mafkuraviy tahdidlar shaklida namoyon bo‘lmoqda.

Yoshlarga qaratilgan mafkuraviy ko‘rinishdagi tahdid ularni faoliyatini izdan chiqarishga yo‘naltirilgan bo‘ladi. Yoshlarni turli tahdidlar ta’siriga tushmasligini ta’minlash maqsadida, profilaktik mexanizmni maqsadli belgilash lozim.

Mafkuraviy tahdidlarning nihoyatda keng qamrovli ekanligidan kelib chiqib, ularni quyidagicha toifalash mumkin:

Birinchidan, insonlarning milliy ongiga ta’sir qilishga qaratilgan hurujlar: ma’lumki, xalqimizning asrlar davomida shakllanib kelayotgan milliy ongi va dunyoqarashi, hamda hulq-atvor normalarida ota-onaga, o‘zi yashayotgan mahalla jamoasiga, katta yoshdagi kishilarga chuqur hurmat bilan qarash, muayyan voqea va hodisalarga bosiqlik, mulohaza va andisha bilan munosabatda bo‘lish, jamoa fikriga nisbatan alohida ehtirom ko‘rsatish kabi hislatlar ustuvorlik qiladi. Qolaversa, aynan mana shu qadriyatlar jamiyatimiz ma’naviyatini tamal toshlarini tashkil qiladi. Bunday vaziyatni yaxshi o‘rgangan dushman bizga qarshi ma’naviy hurujlarni amalga oshirishda xalqimizning mana shunday ulug‘vor qadriyatlariga

---

[107] Юлдашева М.М. Ҳозирги даврда мафкуравий таҳдидлар намоён бўлишининг хусусиятлари ва уларнинг олдини олиш йўллари: Фалс. фан. ном. дисс. ... Тошкент, 2010. -Б. 16.

[108] Яхшиликов Ж.Я., Муhаммадиев Н.Э.Миллий g‘оя – тараqqиёт стратегияси. – Т.: “Фан”, -2017. -Б.320

mutlaqo teskari va begona bo‘lgan asosan g‘arbga xos «individualizm», «egoizm», mehr-muruvvat, oddiy odamiylik va vatanparvarlikni inkor qiluvchi «kosmopolitizm», «zo‘ravonlik», diniy mutaassiblik g‘oyalarini iloji boricha chiroyli niqoblarga o‘rab jamiyatimiz ichkarisiga olib kirishga urinmoqdalar. “Bunda ular nafaqat zamonaviy axborot vositalaridan, balki zamonaviy bioetika fanining yutuqlaridan ham keng foydalanishga harakat qilmoqdalar. Ma’lumki, ayrim g‘arb olimlari o‘tgan asr davomida va hozirgi vaqtda ham «umuman inson tabiati yo‘q, inson miyasi har qanday va istalgan hulq-atvorni namoyon bo‘lishini ta’minlab beraverishi mumkin» - degan xulosalarni baralla ilgari surib kelmoqdalar[109]. Ularning insonlar ongiga ta’sir ko‘rsatishdan ko‘zlangan asosiy maqsadlari davlatga nisbatan ishonchsizlik kayfiyatini shakllantirishdir, o‘z manfaati, o‘z siyosatini o‘tkazishdan iborat.

Ikkinchidan, milliy urf-odatlarimizga bo‘layotgan hurujlar: Ma’lumki, dunyoni anglash usuli ijtimoiy-falsafiy qarashlaridan kelib chiqib, xalqimizda o‘ziga xos milliy odatlar, an’analar shakllangan. Jamoa bo‘lib yashash, qarindosh urug‘larga mehribonlik, to‘y va marakalar, bayramlar, tarbiya masalalarida, hasharlarda ijtimoiy hamkorlikning boshqalarda uchramaydigan o‘ziga xos yuqori darajasini namoyon bo‘lishi shular jumlasidandir. Xalqimizning bu urf-odatlari asrlar davomida jamiyat mustahkamligining asosi bo‘lib, xizmat qilib kelmoqda.

Uchinchidan, milliy madaniyatimizga bo‘layotgan hurujlar: hech kimga sir emaski, xalqimizning milliy madaniyati o‘zining qadimiyligi, boyligi bilan alohida ajralib turadi. Ma’naviy huruj uyushtirayotgan siyosiy kuchlar jamiyatimiz a’zolarini milliy madaniyatimiz boyliklaridan va imkoniyatlaridan begonalashtirishga harakat qilmoqdalar. Shu maqsadda ular tomonidan internet tarmog‘i kinofilmlar va san’at turlaridan foydalangan holda jamiyatimizga madaniyatning nihoyatda past ohangrabo, lekin engil-yelpi insoniyat tafakkurini rivojlantirishga

---

[109] Каримова Г.А. Глобаллашув даврида жамият маънавий хавфсизлигига таҳдидлар //Ilm-fan taraqqiyotida zamonaviy qarashlar: Muammo va yechimlar. – 2022. – Т. 3. – С. 13-15.

emas, aksincha sayoz bo‘lishiga xizmat qiluvchi namunalarini olib kirishga intilmoqdalar.

J.Yaxshilikov “mafkuraviy tahdid tushunchasiga ta’rif berishda ma’naviy tahdidlarning bir faol kurinishi, aniqrog‘i vositasi” degan qarashni ilgari suradilar[110]. To‘g‘ri bugungi ilmiy- falsafiy qarashlarda bu tahdidlarning qaysi oldin, qaysi keyin kelishi. Ularning tartib va tarkiblari aniq belgilab berilmagan. Ijtimoiy- falsafiy jihatdan har biri oldin yoki keyin kelishi, xuddi shuningdek, bir-birining tarkibida bo‘la olishi mumkin. Lekin bizning nazarimizda aynan ma’naviy tahdidlar umummafkuraviy jarayonlarning hosilasi sifatida mafkuraviy tahdidlar tarkibidan o‘rin oladi desak, to‘g‘riroq bo‘ladi.

Binobarin, mafkuraviy tahdid – g‘arazli maqsadga qaratilgan g‘oyaviy-ma’naviy ta’sirlar tizimini ifoda etadi desak mazmunni to‘g‘ri ifodalagan bo‘lamiz. Sababi aniq maqsadlar yo‘lida puxta o‘ylangan reja asosida o‘z maqsadini ro‘yobga chiqarish uchun har qanday siyosiy, g‘oyaviy, ma’naviy ta’sirlar orqali faoliyat olib borish mafkuraning asosiy qurollaridan biri hisoblanadi va jamiyatning yaxlitligini har tomonlama buzishga harakat qiladi.

Bugungi kunda yashayotgan insoniyat yaxlitlikni tashkil etsada, undagi davlatlar va xalqlar tarixiy shart-sharoit, jo‘g‘rofiy joylashuvi, geostrategik holatiga ko‘ra turli mavqega ega. Hozirgi davr – dunyoda g‘oyaviy qarama-qarshiliklar murakkab tus olgan, mafkura poligonlari yadro poligonlaridan ham kuchliroq bo‘lib borayotgan davr. Shunday ekan, ularning o‘ziga xos manfaatlarini ifodalaydigan mafkuraviy ta’sir usullari bo‘lishi shubhasiz.

Mafkuraviy tahdidlarning namoyon bo‘lishi bilan bog‘liq manfaatlar o‘zga xalqlar, turli mintaqalar, davlatlarning aholisi yoki ijtimoiy guruhlar ongiga, turmush tarziga ta’sir o‘tkazish, ularni bo‘ysundirish uchun yo‘naltirilgan maqsadlarni shakllantiradi. Bundan ko‘zlangan asosiy muddao esa muayyan hududdagi shaxslarga iqtisodiy, siyosiy, huquqiy va diniy qarashlarni singdirish

---

[110] Яхшиликов Ж.Я., Муҳаммадиев Н.Э. Миллий g‘оя – тараққиёт стратегияси. – Т.: “Фан”, -2017. -Б.320

orqali o‘z manfaatlarini ta’minlashga intilishdir. Bunday ta’sir o‘tkazishning tinch yo‘li ko‘zlangan maqsadga olib kelmaganda, mafkuraviy tahdidlar “tajovuz” (zo‘ravonlik hatti-harakatlari) tusini oladi va boshqa mamlakatlarning ichki ishlariga aralashish, mavjud vaziyatni ataylab keskinlashtirish, kuch ishlatish yo‘li bilan bo‘lsa ham, ijtimoiy beqarorlikni yuzaga keltiradi. Ta’kidlash joizki, bunday hurujlar nafaqat kimlargadir yoki qandaydir guruhlarga, balki butun insoniyatga tahdidi bilan xatarlidir.

Tadqiqotimizda tahdidlarning ma’naviy va mafkuraviy jarayonlarga ta’siri va ularga qarshi kurashishda shaxs mas’uliyatini takomillashtirishning o‘ziga xos jihatlarini tadqiq etishni bugungi globallashuv jarayoni shiddatli tus olayotgan bir davrning eng dolzarb muammolari sifatida yoritishga harakat qildik.

Birinchi Prezidentimiz Islom Karimovning «Yuksak ma’naviyat -engilmas kuch» asarida: «Ma’naviy tahdid deganda, avvalo, tili, dini, e’tiqodidan qat’i nazar, har qaysi odamning tom ma’nodagi erkin inson bo‘lib yashashiga qarshi qaratilgan, uning aynan ruhiy dunyosini izdan chiqarish maqsadini ko‘zda tutadigan mafkuraviy, g‘oyaviy va informatsion hurujlarni nazarda tutish lozim» deya ta’rif beriladi[111].

Darhaqiqat, bugungi globallashuv jarayonlari shiddat bilan kechayotgan davrda ma’naviyatga qarshi qaratilgan xavf - xatarlar azaliy umuminsoniy g‘oyalar bilan yo‘g‘rilgan milliy qadriyatlarimizning ildiziga ham bolta urishga xizmat qilmoqda.

«Binobarin, ma’naviyatga qarshi qaratilgan har qanday tahdid o‘z -o‘zidan mamlakat xavfsizligi, uning milliy manfaatlarini, sog‘lom avlod kelajagini ta’minlash yo‘lidagi jiddiy xatarlardan biriga aylanishi va oxir oqibatda jamiyatni inqirozga olib kelishi mumkin»[112].

Ma’naviy tahdidlar vayronkor kuchlarning o‘z moddiy, siyosiy manfaatlarini ko‘zlagan holda har xil markazlar tomonidan biron bir mamlakatga

---

[111] Каримов И. Юксак маънавият - енгилмас куч. -Тошкент 2008. Маънавият. - 14 б.
[112] Каримов И. Юксак маънавият - енгилмас куч. -Тошкент 2008. Маънавият. - 14 б.

nisbatan ichkaridan yoki tashqaridan turib bevosita amalga oshiriladigan ma’naviy buzg‘unchilikning muayyan shaklidir. Ular o‘z maqsadlariga erishish uchun har qanday usullardan, odamlarning ma’naviy ruhiy hissiyotlari, milliy tuyg‘ulari, har qanday jamiyatda mavjud ijtimoiy-iqtisodiy muammolardan, shuningdek OAV, Internetdan ustalik, girromlik, noxolislik bilan foydalanishga harakat qiladi.

Ma’naviy tajovuzlar ko‘pincha turli niqoblar, jozibali shior va g‘oyalar ortida ish ko‘radi. Shu o‘rinda, professor S. Otamurodov milliy-ma’naviy xavfsizlik masalasiga chuqurroq qarash zarurligini e’tirof etadi Olim ta’kidlaganlaridek, “yuksak taraqqiy qilgan mamlakatlarda insonlarning o‘zaro begonalashuvi, bir jinsli nikohning qonunlashtirilishi, ota-ona, oila, farzand, qon-qarindoshlik va boshqa bir qator umuminsoniy qadriyatlarga qarama-qarshi bo‘lgan individualizm, «o‘zingni bil, o‘zgani qo‘y» tamoyilini amaliyotga aylantirish va ularni ommaviylashtirishga bo‘lgan intilish kuchayib bormoqda. Huddi ana shu ommalashtirish, eng avvalo, ma’naviyati qashshoq yakka shaxslarga, ular orqali esa butun millatga qaratilganligi bilan xatarli tus olmoqda. Shu tariqa bugun mavjud xavfsizlik shakllari tizimiga yangi, milliy-ma’naviy xavfsizlikni ta’minlash jahondagi xalqlar va millatlar taraqqiyotidagi global muammo sifatida yuzaga keldi. Zero, milliy ma’naviyatning barbod bo‘lishi bugun insoniyat erishgan tamaddunning (sivilizatsiya’ning) barbod bo‘lishiga olib kelishi muqarrardir. Shuning uchun ham milliy ma’naviyatni asrash butun insoniyatni, uning jozibasi va salohiyatini ta’minlash vazifasiga aylanib bormoqda”[113].

Ma’naviy tahdidlarning quyidagi turini alohida ta’kidlash joiz:

G‘oyaviy tahdidlar.

Axborot tahdidlari.

G‘oyaviy tahdidlar inson ma’naviy olamida yot g‘oyalar, qarashlar va maqsad - muddaolarni shakllantirishga intiladi. Bugungi kunda g‘oyaviy tahdidlarning quyidagi ko‘rinishlari namoyon bo‘lmoqda: axloqiy buzuqlik,

[113] Отамуродов С. Глоballaшув ва миллий-маънавий хавфсизлик. -Т.: Ўзбекистон, 2013. -Б. 28

zo‘ravonlik, egotsentrizm, individualizm, ommaviy madaniyat, milliy davlatning taraqqiyot modeliga ishonchsizlik uyg‘otish, millatlararo nizolar keltirib chiqarishga urinish, yoshlar ongini zaharlash. G‘oyaviy tahdidlar oxir -oqibatda davlat inqiroziga olib keladi.

Axborot tahdidlari insonning ongini zaharlash va shu tariqa o‘zligiga ega bo‘lmagan olomonni tarkib toptirishni ko‘zlaydi. Bugungi kunda axborot tahdidlari asosan internet vositasida kirib kelmoqda. Hozirgi davr dunyo miqyosida mafkuraviy jarayonlar misli ko‘rilmagan darajada globallashib borayotgan davrdir. Axborot tarqatish jarayoni butun yer yuzini qamrab olmoqda. XX asrning so‘nggi o‘n yilligida yaratilgan mo‘jiza xalqaro kompyuter tarmog‘i, ya’ni internet tizimining vujudga kelishi va u orqali axborot almashinuvi jarayonlarining tezlashib borishi bugungi kunda g‘oyaviy ta’sir o‘tkazish ko‘lamini kengaytirmoqda.

Axborot tahdidi - bu obyektga ruhiy ta’sir ko‘rsatish uchun axborot tizimi yordamida maxsus tayyorlangan ma’lumotlarni bosma, radio, televideniye, shaxsiy muloqot va kompyuter tarmoqlari orqali amalga oshiradigan operatsiyalar majmuasidir. Axborot tahdidi obyektning biror-bir harakatni sodir qilishga undash (hayot faolligini o‘zgartirishga undash) - uning ongiga ochiqchasiga (obyektning anglashi bo‘yicha) ta’sir o‘tkazishdir, buning natijasida obyekt ongida ma’lum bir harakatlarni sodir qilishga qo‘zg‘atuvchi sabablar shakllanadi.

Tahdidlar turli axborot vositasida yetkazilishini inobatga olsak, bunda tahdidlarning ta’siriga tushmaslikning hal etuvchi mezoni – **ong va onglilik** hisoblanadi.

Dunyoda globallashuv sharoitida internet tizimi bugungi kunda mafkuraviy ta’sir o‘tkazishning asosiy vositasi bo‘lib qolmoqda. Bu jarayon insonlar ongini salbiy qarashlar bilan band etib, bugungi kunda jamiyatda o‘ta jiddiy va xavfli muammolarni keltirib chiqarmoqda. So‘nggi vaqtlarda yangi axborot - kommunikatsiya texnologiyalarining yaratilishi va rivojlantirilishi natijasida, umumiy axborot - mafkuraviy jarayonlarning tezlashuvi kuzatilmoqda. Bu esa,

o‘zining nafaqat ijobiy, balki ko‘plab salbiy jihatlarini namoyon qilmoqda. Xususan, turli xalqaro siyosiy kuchlar tomonidan o‘z maqsadlariga erishish yo‘lida mafkuraviy jarayonlarga ta’sir o‘tkazishga qaratilgan intilishlar amalga oshirilmoqda.

Qo‘poruvchilikning boshqa turlaridan farqli ravishda mafkuraviy qo‘poruvchilik o‘zining yuqori latentligi bilan ajralib turadi. Qo‘poruvchilikning boshqa turlarini sezish, ko‘rish, oldini olish mumkin. Ammo mafkuraviy qo‘poruvchilik, uning ta’siri va oqibatlarini tezda ilg‘ab etish nihoyatda mushkul.

Ma’naviy tahdidlar yoshlarning axloqiy-ruhiy ta’minotiga ta’siri nuqtai nazaridan quyidagicha baholanadi:

mavjud ijtimoiy, madaniy va kasbiy qadriyatlar (axloqiy, huquqiy, milliy, an’anaviy) meyorining buzilishi;

boshqa faoliyat va xizmat manfaatlariga zarar yetkazuvchi harakatlar.

Mavzuning mantiqiy davomi sifatida mafkuraviy qo‘poruvchilik tahlilini amalga oshirsak. Mafkuraviy qo‘poruvchilikning mohiyati, mafkura va qo‘poruvchilik tushunchalari mazmuniga e’tibor qaratish zurur. Mafkura (arab. – fikrlar majmui) – muayyan ijtimoiy guruh, qatlam, millat, jamiyat, davlatning manfaatlari, orzulari, maqsadlari ifodalangan qarashlar va ularni amalga oshirish tizimi.

Qo‘poruvchilik – maxsus tayyorlangan tuzilmalar va shaxslar tomonidan qarama - qarshi tomonni kuchsizlantirish va unga putur yetkazish maqsadida amalga oshiriladigan maxsus ko‘rinishdagi faoliyat turi hisoblanadi.

Mafkuraviy qo‘poruvchilik va mafkuraviy tahdid tushunchalari o‘rtasida o‘zaro mazmunan yaqinlik mavjud. Biroq, mafkuraviy yo‘nalishdagi qo‘poruvchilikdan farqli ravishda mafkuraviy tahdid nisbatan keng tushuncha bo‘lib – muayyan shaxs, jamiyat, davlatning tinchligi va barqarorligiga qarshi qaratilgan, konstitusiyaviy tuzumni zaiflashtirish va buzishga yo‘naltirilgan g‘oyaviy - nazariy qarashlar hamda unga asoslangan amaliyot majmui hisoblanadi.

Mafkuraviy qo‘poruvchilik esa, tegishli subyektlar tomonidan mafkuraviy sohadagi buzg‘unchilik faoliyati, ya’ni tor ma’noda kishilarning g‘oyalari, qarashlari, fikrlarini o‘zgartirishga qaratilgan, keng ma’noda kishilar ongini buzishga yo‘naltirilgan faoliyatdir. Mafkuraviy qo‘poruvchilik o‘z xususiyatiga ko‘ra rasman e’lon qilinmagan qurolsiz kurash va yashirin agressiya ko‘rinishida amalga oshiriladi.

Manbalarda mafkuraviy qo‘poruvchilik tushunchasiga ko‘plab ta’riflar keltirilgan. Ularning aksariyati bir - birini u yoki bu darajada takrorlaydi. Jumladan:

Mafkuraviy qo‘poruvchilik – davlatdagi siyosiy vaziyatni beqarorlashtirish maqsadida ataylab yolg‘on va chalg‘ituvchi siyosiy yoki boshqa axborotlarni tarqatish, haqiqatga mos kelmaydigan ayblovlar, faktlar, nazariyalar va boshqalarni targ‘ib qilishdir[114].

Mafkuraviy qo‘poruvchilik – raqibning o‘ta muhim tuzilmalariga zarar yetkazish, uning siyosiy - ijtimoiy tizimini ishdan chiqarish, shuningdek davlat va jamiyatni nobarqarorlashtirish maqsadidagi axborot kurashidir[115].

Mutaxassislarning fikriga ko‘ra, mafkuraviy qo‘poruvchilik ta’siri ostida jamoatchilikning qadriyat darajasining pasayishi kuzatiladi[116].

Shu o‘rinda, O‘zbekiston Respublikasi milliy xavfsizligini ta’minlash kesimida, quyidagi mualliflik ta’rifi ishlab chiqildi: mafkuraviy qo‘poruvchilik – destruktiv kuchlar tomonidan davlatning ichki va tashqi siyosatiga ta’sir o‘tkazish hamda uning barqarorligini izdan chiqarish maqsadida aholiga mafkuraviy ta’sir ko‘rsatishga qaratilgan axborot va targ‘ibot faoliyati hisoblanadi.

114 Коровкин А. М., Макаров Ю. В. Идеологические диверсии против мира и соsиального прогресса. – 1987.
115 Вельяминов Г. М. Толкование истории российского государства как инструмент идеологической диверсии (о книге Ричарда Пайпса'Россия при старом режиме') //政治与社会. – 2006. – №. 2. – С. 147-151.
116 Алматов С. З. Экстремизмга қарши курашиш–долзарб вазифа //Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академиясининг ахборотномаси. – 2021. – С. 121.

Mafkuraviy qo‘poruvchilik haqida gapirganda, uni amalga oshiruvchi tuzilma sifatida faqatgina davlat tushunilmasligi zarur, chunki mafkuraviy qo‘poruvchilik assimetrik kurash usuli bo‘lib, boshqa tuzilmalar, misol uchun ekstremistik va terroristik tashkilotlar tomonidan amalga oshirilishi mumkin.

Mafkuraviy qo‘poruvchilik qurolli agressiyadan farqli ravishda raqib mamlakatdagi davlat va jamiyat munosabatlari barqarorligini bosqichma - bosqich izdan chiqarish, xalqaro munosabatlar yo‘nalishini siyosiy, mafkuraviy va iqtisodiy jihatdan o‘zi uchun foydali tomonga qaratishni maqsad qiladi. Ushbu maqsadda aholining ma’lum qatlamlariga salbiy ta’sir o‘tkazishga qaratilgan mafkuraviy yo‘nalishdagi maxsus tadbirlar, operatsiya va aksiyalar rejalashtiriladi hamda amalga oshiriladi.

Ushbu ta’sir ikki o‘zaro bog‘liq, ya’ni g‘oyaviy - siyosiy va g‘oyaviy-psixologik yo‘nalishlarda amalga oshirilishi mumkin. G‘oyaviy - siyosiy yo‘nalishdagi mafkuraviy qo‘poruvchilikda asosiy e’tibor xalq jipsligiga ziyon yetkazish, davlat mustaqilligining g‘oyaviy - siyosiy asoslarini buzish, aholi ongida begona hulq va tushunchalar namunalarini shakllantirishga qaratiladi. Bu jarayonda davlat qurilishi jarayonida yuzaga kelayotgan obyektiv qiyinchiliklar, kamchiliklar va qarama - qarshiliklarga alohida urg‘u beriladi va ulardan o‘z maqsadlariga erishishda keng foydalaniladi. Shu bois, nodo‘stona kayfiyatdagi davlat va nodavlat tuzilmalar mamlakatdagi vaziyatni izdan chiqarish va siyosiy inqirozni keltirib chiqarishga intiladi.

G‘oyaviy - psixologik yo‘nalishdagi mafkuraviy qo‘poruvchilik esa, davlat va jamiyat qurilishining tanlangan yo‘li noto‘g‘ri ekanligi to‘g‘risida ommaviy tushunchani shakllantirish maqsadida aholi turli qatlamlari, yoshlar va millatlar psixologiyasiga bosqichma - bosqich ta’sir o‘tkazishga qaratilgan tadbirlar majmuasini ifoda etadi.

Qo‘poruvchilik faoliyatining boshqa turlari kabi makfuraviy qo‘poruvchilik ham ushbu yo‘nalishdagi faoliyat uchun mo‘ljallangan maxsus subyektlar

(tuzilmalar) tomonidan amalga oshiriladi. Ular qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin:

- xorijiy davlatlar maxsus xizmatlari;
- xorijiy targ‘ibot organlari;
- xorijdagi ilmiy - tadqiqot muassasalari;
- ekstremistik harakterdagi xorijiy tashkilotlar;
- O‘zbekiston ichidagi antikonstitusiyaviy tuzilmalar;
- O‘zbekistonga nisbatan dushmanlik kayfiyatidagi alohida shaxslar.

Mafkuraviy qo‘poruvchilikni amalga oshirish shakliga ko‘ra ikki yo‘nalish, ya’ni qo‘poruvchilik targ‘iboti va razvedkaviy - tashkiliy faoliyatga bo‘lish mumkin. Qo‘poruvchilik targ‘iboti – bu xorijiy OAV orqali mamlakatdagi siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy va boshqa sohalardagi vaziyatni buzib ko‘rsatishga, aholida davlat boshqaruviga nisbatan norozilikni keltirib chiqarishga qaratilgan faoliyat hisoblanadi. Razvedkaviy - tashkiliy faoliyat esa, mafkuraviy qo‘poruvchilik subyektlari tomonidan ushbu yo‘nalishdagi yashirin amaliy faoliyati majmuasini ifoda etadi.

Shu o‘rinda, mafkuraviy qo‘poruvchilikning asosiy yo‘nalishlari sifatida quyidagilarni keltirish mumkin:

- davlatning obro‘siga zarar yetkazish maqsadida turli xil vositalar yordamida noto‘g‘ri axborot tarqatish;
- xalqning tarixi, madaniy va ma’naviy qadriyatlarini buzib ko‘rsatish;
- axloqsizlikni targ‘ib etadigan turli xil audio, video va bosma mahsulotlarning kirib kelishi;
- turli xil xalqaro tashkilotlar nomidan faoliyat olib borib, davlat ichki ishlariga aralashishga, ijtimoiy - siyosiy barqarorlikni buzishga urinishlar;
- diniy qadriyatlarni soxtalashtirishga urinishlar;
- qo‘shni davlatlardagi terrorizm, diniy ekstremizm elementlarining saqlanib qolganligi va buning natijasidagi mavjud siyosiy beqarorlik;

– demokratiya, ommaviy madaniyat niqoblaridan hamda egotsentrizm (o‘ta manmanlik va xudbinlik, o‘zini hammadan ustun qo‘yish) va kosmotsentrizm (grekchadan olingan bo‘lib, fazo oldida qo‘rquv hamda ta’zim bajo qilishga, birinchi navbatda moddiy dunyoning vujudga kelish muammolariga e’tibor qaratishga va atrof - muhit voqea - hodisalarini izohlashga qaratilgan falsafiy qarashlar tizimi) kabi g‘oyalardan foydalangan holda amalga oshirilayotgan zamonaviy ko‘rinishlari;

– hukumat va boshqaruv organlarining axborot ta’minotini sustlash-tirish, idora qilishga oid yanglish qarorlar chiqarilishi uchun ig‘vogarlik ishlarini olib borish;

– aholi orasida davlat organlari hamda vazirlik va idoralar faoliyatiga oid yolg‘on ma’lumotlar tarqatish va ularni obro‘sizlantirish.

Darhaqiqat axborotdan foydalanish madaniyatining to‘liq shakllanma-ganligi, mafkuraviy qo‘poruvchilik ko‘p jihatdan axborot tarqatilishi holatlari bilan uzviy bog‘liqligini ko‘rsatayapti.

Mafkuraviy qo‘poruvchilik ko‘p jihatdan axborot - psixologik urush tushunchasi bilan yaqin mazmunga ega. Mafkuraviy qo‘poruvchilik singari axborot - psixologik urush tushunchasi ham siyosiy va ijtimoiy tizimlar, shu jumladan, davlat va jamiyatning barqarorligini izdan chiqarish uchun aholiga ommaviy ruhiy ta’sir o‘tkazish maqsadlarida axborot maydonida davlatlar tomonidan bir - biriga qarshi olib boriladigan kurashishni ifoda etadi. Shu jihatdan olib qaralsa, mafkuraviy qo‘poruvchilikni axborot - psixologik kurashishning tarkibiy qismi sifatida hisoblash mumkin.

Axborot urushi tushunchasi AQShda XX asrning 90 - yillari boshida paydo bo‘lgan. Ushbu tushuncha bugungi kunda turli siyosiy maqsadlarga erishish uchun axborot maydoni va ommaviy axborot vositalarida olib borilayotgan kurashishni nomlash variantida qo‘llaniladi.

Siyosiy tushuncha sifatida axborot urushi tushunchasi raqib davlat aholisi ongiga o‘tkaziladigan ta’sir usullarining majmuasi sifatida tushuniladi. Ushbu

ta’sirlar raqib davlat aholisiga asosiy ijtimoiy va tabiiy hodisalar haqidagi bilimlarni buzib ko‘rsatish va bu bilan jamiyat asoslarini zaiflashtirish yoki ularga putur yetkazish maqsadida o‘tkaziladi.

Axborot urushi jamiyat hayotining barcha sohalari, jumladan, iqtisodiyot, siyosat, ijtimoiy munosabatlar, ma’naviy hayot va ayniqsa, mafkura sohasida olib borilishi mumkin. Mafkuraviy sohadagi axborot urushida dushman davlatning ma’naviy va madaniy asoslarni buzish, aholi ongida chalkashliklar tug‘dirish, o‘z kelajagiga bo‘lgan ishonchdan mahrum qilib, soxta iqtisodiy va axloqiy tushunchalarni singdirish amalga oshiriladi.

Ommani chalg‘itish, yolg‘on xabar va ma’lumotlar tarqatish tadbirlari, odatda, ommaviy axborot vositalarining barcha turlari orqali uzoq vaqt davomida, maxsus idora va muassasalar tomonidan ishlab chiqilgan texnologiyalar bo‘yicha amalga oshiriladi. Qarshi kurashayotgan tomonning ommaviy axborot vositalariga ta’sir qilish orqali, ushbu xalqning ijtimoiy ongiga ta’sir o‘tkazish, uni tegishli mafkura sari yetaklash, singdirib boriladigan mafkuraga bo‘ysundirish uchun imkon yaratiladi.

Shu tariqa, axborot - psixologik xavfsizlik axborot urushining ta’sir obyektiga aylanadi. Bunday urush ko‘zlanadigan maqsadlar, hal etiladigan vazifalar, yashirin operatsiyalar o‘tkazadigan kuch va vositalarni operativ, taktik va strategik pog‘onalarda shakllantirish va qo‘llash tavsifini belgilab beradi.

Umuman olganda, mafkuraviy qo‘poruvchilik davlatning mustaqil siyosati va milliy manfaatlarini qo‘porish, amaldagi konstitusion tuzumni o‘zgartirish va jamiyat barqarorligini izdan chiqarishga yo‘naltirilgan, adovat ruhidagi tashqi kuchlar tomonidan nihoyatda puxta rejalashtirilgan xatti - harakatlar majmuasini ifoda etadi.

Bashariyatning globalizatsiya davriga kirib kelishi hamda hayot kechirish uchun ommaviy madaniy shart - sharoitlar yaratilishi, eskirgan xalqaro ijtimoiy munosabatlarni engib o‘tishning yangi shakllarini qidirilishi bois, mafkuraviy

qo‘poruvchilikning xalqaro va milliy xavfsizlikka ko‘rsatadigan salbiy ta’sir ko‘lami va darajasi ortib boraveradi.

Yuqoridagi manbalarga asoslanib, biz bugungi kunda yoshlarga tahdid solayotgan omillarning shaklini o‘zgartirib, intellektuallashib borilayotganligi bois ularda salbiy ta’sirlarga qarshi immunitetni shakllantirish mexanizmlarini zamonaviy ko‘rinishda takomillashtirish lozim deb hisoblaymiz. Salbiy ta’sirga qarshi immunitet quyidagi funksiyalarni o‘zida mujassamlashtiradi: yo‘naltiruvchi (mudofaani ta’minlash maqsadiga yetaklash); informatsion (turli mazmundagi xabarlardan voqif bo‘lish); kognitiv (g‘oya yoshlarning qaysi sathiga (sferasiga) qaratilganligini aniqlash); mafkuraviy (diniy, radikal, separatistik va boshqalarni ajrata bilish); regulyativ (salbiy va ijobiy mazmundagi axborot vositasida ruhiy ta’sirlarni ajratish); refleksiv (axborot hujumida o‘z aksini topgan salbiy g‘oya’ni ajrata olish); himoyalovchi (barcha salbiy ta’sirlarga tushmaslikni ta’minlash).

Shularni inobatga olib, mafkuraviy qo‘poruvchilikka qarshi kurashishda, birinchi navbatda, uning zararli oqibatlarini oldindan to‘g‘ri baholay olishga va shu asosda tegishli chora - tadbirlarni ishlab chiqish hamda ularni amalga tatbiq etishga e’tiborni qaratish maqsadga muvofiq.

## 2.2. Radikalizmning milliy xavfsizlikka ta’siri

O‘tgan davrlar insoniyat taraqqiyotida noyob, o‘ziga xos iz qoldirish barobarida, dunyo miqyosida kutilmagan muammolarni, turli-tuman xavf-xatarlar hamda tahdidlarni keltirib chiqardi. Bunda xavf-xatarlarning ba’zilari an’anaviy bo‘lib, asrlar davomida o‘z yechimini topa olmaganligi bois, bugungi kungacha saqanib qolayapti, ayrimlari esa keyingi 30-40 yil mobaynida dunyo taraqqiyotida ro‘y bergan noan’anaviy o‘zgarishlar bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan o‘ziga xos yangi xavf-xatar va tahdidlardir.

Muayyan bir davr o‘tgandan so‘ng qaytariladigan xavf-xatarlarni bartaraf etish, ularga nisbatan ishonchli to‘siqlar kashf etish unchalik qiyin kechmagan. Insoniyatda ularga nisbatan qandaydir immunitet shakllangan yoki ularning oldini

olish bo'yicha tajribalar tizimi mavjud bo'lgan. Noan'anaviy tahdidlar esa insoniyat uchun ko'pqirrali jumboq tarzida namoyon bo'ladi. Buning asosiy sababi, bugungi xalqaro hamjamiyatda ushbu xavf-xatarlarni keltirib chiqargan shart-sharoitlar, harakat mexanizmi haqida zarur manbalarning, axborotning etishmasligi, ularni bartaraf etishda eski an'anaviy sinovdan o'tgan uslublar va mexanizmlar deyarli yordam bermasligi bilan bog'liq. Demak, davlatlar xavfsizligini ta'minlashga doir yangi mexanizmlarni yaratish dolzarb vazifa hisoblanadi.

Ilmiy-tahliliy, nazariy-amaliy adabiyotlarda davlatlar milliy xavfsizligiga tahdidlar tarkibiga axborot hurujlari, geosiyosiy ustunlikni qo'lga kiritish, mojarolarni keltirib chiqarish, dinlararo va tamaddunlararo shubhalanish vaziyatni vujudga keltirish, radikalizm, individual va jamoaviy genotsid, terrorizm va boshqalar kiritiladi.

Mualliflar tomonidan xavf-xatar va tahdidlar ilmiy talqinida ushbu harakat ishtirokchilarining o'ziga xos xususiyati va sifatlariga e'tibor qaratilib, ishtirokchilar o'zlarining siyosiy maqsadlariga erishishlari uchun foydalanadigan radikal usul va vositalar o'rganilgan. Manbalarda harakat ishtirokchilari u yoki bu yo'nalishga mansubligidan qat'i nazar, radikal g'oyalarga moyilligi va ular har doim ham tushunarli emasligi keltirilgan[117].

Bizning nazarimizda, keyingi paytda davlatlar, jamiyatlar rivojlanishi va milliy xavfsizligiga jiddiy to'siq bo'layotgan eng katta tahdid - radikalizm sanaladi. Yaqin davrgacha radikalizm katta harakat maydoniga ega bo'lmagan. Biroq bevosita G'arb va Sharq dunyosiga radikalizmning mafkuraviy yo'nalishdagi ta'sirining kengayishi ushba xavf-xatarning keng harakat maydoniga chiqqanligini namoyon qiladi.

---

[117] Воронина Е. Ю. Политический радикализм как объект политологического анализа //Дисс. Канд. Полит. н., М. – 2013.; Бенько Л. А., Должиков В. А. Радикализм как «угроза» natsиональной безопасности в современной Российской Федератsии //Известия Алтайского государственного университета. – 2012. – №. 4-1 (76). – С. 234-237.; Смертин А. Н. Политический радикализм: некоторые аспекты определения понятия //Вестник Челябинского государственного университета. – 2007. – №. 9. – С. 109-112.

Tadqiqotning birinchi bobida bevosita radikalizm termini tahlilini keng ilmiy asoslantirdik. Manbalarni o‘rganishda biz radikalizmga to‘g‘ri baho berish maqsadida olim va siyosatchilar tomonidan “radikal”, “radikallashuv” va “radikalizm” kabi asosiy atamalar bir necha etimologik ma’noda qo‘llanilganligini aniqladik. Masalan, bizning fikrimizcha birinchi ikkita tushuncha, zamonaviy “inqilobchilar”ning siyosiy harakatlarining ma’nosini aniqlash uchun adekvat deb hisoblash mumkin bo‘lsa, unda uchinchisidan keng foydalanishning qonuniyligiga asosli shubhalarni keltirib chiqaradi. Darhaqiqat, savol tug‘iladi: birinchidan, siyosiy mafkura sifatida radikalizm nima, ikkinchidan, radikalizmning zamonaviy milliy xavfsizlikka tahdidi qanchalik yuqori?

Ushbu savollarga javob berish, radikallashuv jarayonini anglashda birinchi navbatda milliy xavfsizlik masalasi tahlilini amalga oshirsak.

Yangi O‘zbekistonning taraqqiyoti, bevosita xavfsizlikni, shu jumladan mudofaa (tizimini) xavfsizligini ta’minlash bilan bog‘liq bo‘lib, bunda mamlakatda kechayotgan iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy va madaniy jarayonlar dinamikasini barqaror kechishini ta’minlash ham alohida o‘rin tutadi. Xavfsizlik atamasi dastavval harbiy fenomen sifatida yuzaga kelgan.

“Xavfsizlik» tushunchasi tahlilida olimlar keng qamrovli ta’rif berishga harakat qilganlar. arab siyosatchisi Abdulmunim al Mashat ta’rifiga ko‘ra, “xavfsizlik – bu millatning uning yashashiga solinadigan, boshqa mamlakatlardan yoki o‘z mamlakatining ichidan chiqayotgan xavfga qarshilik qilish uchun yetarli bo‘lgan iqtisodiy va harbiy qudratini ta’minlovchi holatdir”. B.Deacon tomonidan keltirilgan ta’rifda xavfsizlik jarayon sifatida to‘liq yoritib berilgan: “xavfsizlik – bu xalqaro munosabatlarning, erkin dunyoning buzilishini, xalqlarning xavfsizligiga har qanday shaklda bo‘lmasin tahdid solinishini istisno qiluvchi holatdir”[118].

---

[118] Deacon B. with Hulse M., Stubbs P. Global social policy: International organizations and the future of welfare. – L.; Thousand Oaks (Ca.): SAGE, 1997. – 252 p.

Rossiyalik olim V.N. Panin "Xavfsizlik – muhim qadriyatlarning tahdidlardan himoyalanganlik holatidir" – deb, ta'rif beradi[119]. V.N. Kuznetsov: "Xavfsizlikning mazmuni xavf tug'ilmagan hayot faqatgina qaysidir obyektga nisbatan xavf ehtimoli tug'ilgandagina xavfsizlik fenomeni yuzaga keladi"[120], deb hisoblasa, V.I. Mitroxin: "Xavfsizlik tushunchasi ostida shaxs, ijtimoiy guruhlar, davlat, jamiyat va umuman sivilizatsiya qadriyatlari, sha'ni, qadr-qimmatining himoyalanganlik darajasini anglash lozimligi"[121]ni ko'rsatadi. N.A. Severev va V.K. Dednovlar bu tushunchani «shaxs, jamiyat va davlatning hayotiy muhim manfaatlarini ichki va tashqi tahdidlardan himoyalanganlik holati"[122], deb ta'riflaganlar.

Mahalliy olimlarimizdan R.Samarov tadqiqotlarida xavfsizlikka ma'lum tizim sifatida qaralgan[123]. A.E. Ishmuhammedov "Xavfsizlik tushunchasini, jamiyat hayotiga aloqador deyarli hamma masalalarni - chegara xavfsizligi, region ichidagi tinchlik, ekstremistik, milliy guruhlarning yo'qligi, poraxo'rlik, jinoyat ko'rsatkichlarining kamayishi omillarini o'z ichiga oladi"[124], - deb hisoblaydi. H.P. Abulqosimov "Xavfsizlik tushunchasi ko'p qirrali bo'lib, turlicha ma'noda talqin qilinadi. Shunga qaramasdan, ularda umumiy g'oya ham mavjud bo'lib, bunga ko'ra xavfsizlik insoniyat hayotining turli sohalarida vujudga keladigan xavf-xatardan himoyalanish, kafolatlanish ma'nosini anglatadi. Xavf-xatar esa davlat va jamiyat rivojlanishiga normal amal qilishiga tahdid soluvchi potensial yoki peal kuch, omil hisoblanadi"- deya ta'kidlaydi[125].

O.O.Sirojov tadqiqotida "Xavfsizlik" atamasiga berilgan ta'riflarni umumlashtirib "Xavfsizlik - shaxs, jamiyat va davlatning xatarlardan

---

[119] Панин В. Н. Международная и региональная безопасность: некоторые теоретико-методологические аспекты исследования. –В.6.
[120] Кузнеsов В.Н. Соsиология безопасности. М. Книгаи бизнес, 2003. —С. 82.
[121] Митрохин В.И. Конsептуальные основы стратегии natsиональной безопасности России. // Соsиаольно политческий журнал. –М., 1995. No 6. – С.23.
[122] Системный анализ и моделирование безопасности. Учебное пособие (Н.А.Северев, В.К.Деднов). – М.: Высшая школа, 2006. – С. 27
[123] Самаров Р.С. Хавфсизликнинг методологии асослари. – I "Akademiya», 2010. –Б. 14.
[124] Ишмуhаммедов А.Э. Иqтисодий хавфсизлик (ўqув qўлланма). –Т.: ТДИУ, 2004. – Б. 18
[125] Абулqосимов Н.П. Иqтисодий хавфсизлик. – Т.: «Akademiya», 2006. -Б. 6

himoyalanganlik holati” sifatida talqin qilinishini keltirilgan. Olim xavfsizlik turlari to‘g‘risida fikr yuritib, xavfsizlik - mintaqaviy, siyosiy, iqtisodiy, biologik, demografik, geokosmik kabi bir necha o‘nlab turlari mavjudligini ilmiy asoslagan[126].

Manbalarda olimlar xavfsizlik obyeki sifatida manfaatlar ro‘yxatiga emas, balki ularning tashuvchisiga ahamiyat beradi. Xavfsizlik ko‘p qirrali, murakkab va ziddiyatli muammo. Shu bois, uning to‘liq mazmunini ochib beruvchi yagona ta’rif bugungi kunga qadar ham mavjud emas, chunki davrlar o‘zgarib borishi bilan xavfsizlikning mohiyati o‘zgaradi, unga tahdid soluvchi yangi kuchlar paydo bo‘ladi. Umuman olganda, ilmiy adabiyotlarda xavfsizlik atamasiga “muayyan bir subyektning tahdiddan, zarar, ziyon va yovuzlikdan himoya qilinganlik holati va himoyalanish me’yori” sifatida ta’rif beriladi.

Keng ma’noda xavfsizlik – bu davlatning fuqarolarga o‘zini namoyon etish uchun me’yordagi sharoitlarni ta’minlash, ularning hayot erkinligi va mulkini boshqa inson, tashkilot, yoki davlatning o‘zi tomonidan bo‘ladigan tajovuzlardan himoya qilishdir. Xavfsizlik bu davlatlar orasidagi munosabatning shunday holati bo‘lib, bunda ularga uriush xatari yoki, tashqaridan bo‘ladigan boshqa tajovuz tahdid solmaydi.

Shuni ta’kidlash kerakki, O‘zbekiston Respublikasining 1997- yil 29- avgustdagi “O‘zbekiston Respublikasi Milliy xavfsizligi konsepsiyasida to‘g‘risida”gi 467-I-sonli qonunida xavfsizlikning ayrim turlarini “milliy xavfsizlik” tushunchasi bilan birlashtirgan holda tushuncha bergan (davlat xavfsizligi, jamoat xavfsizligi, ekologik xavfsizlik, shaxsiy xavfsizlik), lekin qonunda ularning mazmuni to‘liq ochib berilmagan[127]. Bundan tashqari, xavfsizlik turlari ro‘yxati ochiq qoldirilgan va ular belgilanishi kerak bo‘lgan boshqa qonun hujjatlariga e’tibor qaratilgan.

---

[126] Sirojov O.S., Sirojov O.O. Sharq mamlakatlarida xavfsizlik muammolari. O'quv qo'llanma. – T.: Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti, 2022.

[127] Ўзбекистон Республикасининг 1997 йил 29 августда қабул қилинган 467-I-сонли “Миллий хавфсизлик консепсияси тўғрисида”ги Қонуни

Milliy xavfsizlik tushunchasi mazmunini kengroq yoritish uchun, xavfsizlikning boshqa soha yo'nalishlari, uning turlariga murojaat qilsak. Xavfsizlikning deyarli barcha turlari (davlat, ijtimoiy, milliy, ekologik, axborot, oziq-ovqat, transport va boshqalar) davlat tomonidan tartibga solinadi va bu bevosita davlatning ko'p funksiyalaridan biri hisoblanadi. Bularning barchasi bevosita milliy xavfsizlikning tarkibiy qismi sifatida namoyon bo'lsada, ularning asosida shaxsning ma'naviy dunyosi mujassamlashgan, refleksiya esa dolzarbligicha qolaveradi.

A.S. Skvorsov va D.A. Kruglov xavfsizlikka shunday ta'rif berishgan: "...xavfsizlik milliy xavfsizlikning muhim tarkibiy qismi bo'lib, uning mazmunidan shaxs, jamiyat va davlatning tashqi va ichki taxdidlardan himoyalanganlik holatini tushunish lozim"[128].

"Ma'naviy xavfsizlik – bu har bir shaxs va jamiyat ma'naviy hayoti, fuqarolarning turmush tarzi, tarixi, o'tmishi va kelajagiga, milliy o'zligi, mafkurasi, bunyodkor g'oyalariga rivojlanishiga to'sqinlik qiluvchi va degradatsiyaga olib boruvchi salbiy ta'sirlardan himoyalanganlik darajasi aytiladi"[129].

X.Abulqosimov tadqiqotida "Ijtimoiy xavfsizlikning mumtoz mazmuni - mamlakat va aholining ijtimoiy sohadagi manfaatlarini himoya qilish, jamiyatda ijtimoiy tuzilmalar va munosabatlar, hayot ta'minoti tizimlari va kishilarni ijtimoiylashtirish, hozirgi va kelajak avlodlar ehtiyojlari taraqqiyotiga muvofiq turmush tarzini rivojlantirish bo'yicha chora-tadbirlar yig'indisini ifodalaydi. Ijtimoiy xavfsizlik milliy xavfsizlikning bir qismi sifatida shaxs, aholi ijtimoiy guruhlar va jamoalarning hayotiy muhim manfaatlari, huquqlari va erkinliklarining buzilishi tahdidlaridan himoyalanganlik holatidir" deb ta'riflaydi[130].

---

[128] Скворsов А. С., Круглов Д.А. Тенденsии изменения содержания военных угроз военной безопасности Российской Федератsии на среднесрочную перспективу / Военная безопасност Российской Федератsии в XXI веке. Сборник научных статей. Под общей редакsией Квашнина А.В. –М.: ГШ ВС РФ, 2004. // http://www.mvlast.ru/geopolitics/russia_war_security.doc.

[129] Давидов У. Миллий-маънавий хавфсизлик ва миллий ўзликни англаш тушунчаларининг ижтимоий-сиёсий адабиётлардаги диференsиацияси //Международный журнал консенсус. – 2023. – Т. 4. – №. 1. - Б. 33

[130] Абулқосимов Н.П. Иқтисодий хавфсизлик. –Т.: «Akademiya», 2006. – Б. 6

A.Kravchenko tadqiqotida "Ijtimoiy xavfsizlik bugungi kunda davlat, jamiyat va fuqarolar tomonidan jamiyatning ijtimoiy sohasini barbod etish yoki degradatsiyalashga qodir bo'lgan xavf va tahdidlarning oldini olish, qaytarish va bartaraf etish uchun qo'llaydigan chora-tadbirlar", deya izohlanadi. Ijtimoiy xavfsizlikka bevosita axborot xavfsizligining ta'siri mavjud, bunda uzatilayotgan ma'lumot, qabul qilinayotgan xabar va unga nisbatan munosabat kabilar alohida o'rin tutadi. Axborot xavfsizligi mamlakatning shunday holatiki, bunda fuqarolar, jamiyat va davlatga mamlakatning axborot sohasiga ta'sir ko'rsatish orqali sezilarli zarar yetkazilishi mumkin bo'lmasligi sifatida belgilanadi[131].

Xavfsizlik turlarini xavf manbalariga qarab, ularning paydo bo'lish muhiti, tabiiy, texnogen va ijtimoiy xavfsizlikka ajratish mumkin.

Masala tadqiqida "milliy xavfsizlik" tushunchasini alohida ta'kidlash kerak. V.A.Malsev yuridik adabiyotlarni o'rganar ekan, milliy xavfsizlikning uchta asosiy turi, ya'ni shaxsiy, jamiyat va davlat xavfsizliklariga ajratadi hamda 290 dan ortiq turli xil xavfsizlik turlarini, shu jumladan 168 turdagi davlat xavfsizligi, 83 turdagi jamiyat xavfsizligi va 39 turdagi shaxsiy turdagilarni hisobga olgan[132].

"Milliy xavfsizlik atamasi ilk marotaba siyosiy lug'atga AQSH Prezidenti T.Ruzvelt tomonidan 1904 yilda kiritilgan bo'lib, keyinchalik mazkur tushunchaning mazmun doirasi ijtimoiy munosabatlar, globallashuv va integratsiya jarayonlari, shuningdek, xilma-xil ko'rinishdagi tahdid va tahlikalarni izohlash bilan uzviy bog'liq ravishda kengayib bordi. Bugungi kunda mamlakat hayoti uchun xatarli bo'lgan har qanday muammo milliy xavfsizlikka tahdid sifatida baholanishi mumkin"[133].

---

[131] Кравченко Л. А. Основные функsии и принsипы соsиальной защиты населения //Актуальные проблемы современной науки: взгляд молодых. – 2019. – С. 321-325.

[132] Малsев В.А. Соотношение и взаимосвяз между различными видами безопасности в России: (конституsионной, наtsиональной, государственной, общественной, личной, информаtsионной) // Проблемы правоведения. 2003. –№ 1. –С. 57.

[133] Каримов Д.С. Нарбий хавфсизликни таъминланиши манфаатида давлат хавфсизлиги - ҳарбий-сиёсий тадқиқот объекти сифатида // "PEDAGOGS" international research journal. Volume-36, Issue-1, June-2023. –Б. 184-191

Milliy xavfsizlik – bu shaxs, jamiyat va davlat uchun tinch va osoyishta hayot ta'minlanishidir. Shu jihatdan milliy xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha qadim ajdodlarimiz merosini o'rganish va davlatchiligimiz tajribalariga amal qilish muhim ahamiyat kasb etadi[134].

A.I.Staxov tadqiqotida "milliy xavfsizlik jamoat, davlat va shaxsiy xavfsizlik bilan bir qatorda ajralib turadigan va millatning konstitusiyaviy va boshqa qonuniy manfaatlarini himoya qilish holati sifatida qaraladigan nuqtai nazarni topish mumkin, jismoniy va yuridik shaxslarning tabiiy yoki texnogen ekologik omillarning qonuniy harakatlarining ushbu manfaatlarga zarar yetkazish ehtimoli bilan bog'liq bo'lmaganligi, ushbu ekologik omillarning paydo bo'lishini aniqlash yoki rivojlanishini shuningdek huquqbuzarliklar va huquqiy hodisalar bo'lmaganidan iborat bo'lgan huquqiy normalar yig'indisidir"[135] – deya ta'rif berilgan.

R.Samarov milliy xavfsizlikka quyidagicha ta'rif beradi: "Milliy xavfsizlik har bir insonni jinsi, millati, e'tiqodi, ijtimoiy kelib chiqishidan qat'i nazar, hayotiy muhim manfaatlarining himoyalanganligi, jaimiyatning moddiy, ma'naviy boyliklari, ijtimoiy me'yorlari hamda davlatning konstitusiyaviy tuzimi, suvereniteti, hududiy yaxlitligini tashqi hamda ichki turli xavf-xatarlardan himoya qilish maqsadida institutsional tarzda yaratiladigan shart-sharoitlar majmuasidir"[136].

Milliy xavsizlik tushunchasi keng qamrovli tushuncha bo'lib, u inson, jamiyat, davlat hayotining barcha sohalarini ta'minlash zaruriyati bilan bog'lisdir. Shu bois, ham bu tushunchaning ma'no-mohiyati, barcha sohalardagi o'rni va ahamiyatini aniqlashga bo'lgan qiziqish ortib bormoqda. Barcha ta'riflarda ko'rinib turibdiki, avvalo, bu tushunchaning turli yo'nalishlarini o'zida mujassamlashtirgan siyosiy mohiyatni ifoda ettirgan aniq tahlilni ishlab chiqishga zarurat bor.

---

[134] Каримов И.А. Ўзбекистон: миллий истиқлол, иқтисод, сиёсат мафкура. –Т.: Ўзбекистон, 1993.
[135] Стахов А.И. Административно-публичное обеспечение безопасности в Российской Федераtsии. – М.: ЮНИТИ-ДАНА, Закон и право, 2006. –С. 23
[136] Самаров Р.С. Хавфсизликнинг методологии асослари. –Т "Akademiya», 2010. –Б. 14.

Shunday qilib, “milliy xavfsizlik” – bu alohida olingan bir millatning xavfsizligini anglatib mohiyatan bir millatning manfaati ustunligi bilan harakterlanadi.

Milliy xavfsizlik – bu birinchi navbatda millatning, shuningdek mamlakat hududida yashayotgan boshqa millatlarning xavfsizligidir. Milliy xavfsizlik deganda – shaxsni, jamiyatni va davlatni ichki va tashqi tahdidlardan himoya qilinganligi holati tushuniladi, bu esa fuqarolarning konstitusiyaviy huquqlari, erkinliklari, munosib turmush darajasi va sifatini, O‘zbekiston Respublikasining yaxlitligi va barqaror rivojlanishi, davlatning mudofaasi va xavfsizligi, suverenitetini, hududiy manfaatlarini ta’minlashga imkon beradi.

Xulosa qilib aytganda, xavfsizlik – xavfsizlik subyekti manfaatlarining bevosita hech qanday to‘siqlar va tahdidlarsiz ta’minlanish jarayonidir. Murakkab globallashuv sharoitda milliy-ma’naviy xavfsizlikning ta’minlanishi millatning ma’naviy va moddiy qadriyatlari, milliy manfaatlari umumiyligidan kelib chiqqan holda millat jipslashuviga imkon yaratadi. Bizning fikrimizcha, milliy o‘zlikni anglash millat mavjudligining asosiy tamoyillarini shakllantiradi, odatlar, an’analar, tarixiy tajriba, milliy madaniyatning avloddan-avlodga yetkazilishida ishtirok etadi. Demak, milliy-ma’naviy xavfsizlik ta’minlanishi bir millatning boshqa millatlar vakillari to‘g‘risidagi tasavvuri asosida boshqa shunga o‘xshash jamiyatlar o‘rtasidagi o‘z o‘rnini anglash bilan chambarchas bog‘liq holda kechadi. Bunday vaziyatda milliy-ma’naviy xavfsizlik ta’minlanishi turli xalqlarni bir-birlari hamda atrof-muhit bilan muayyan munosabat va aloqalarda turuvchi unsurlar majmuidan iborat bo‘lgan murakkab shakllangan yaxlitlik sifatida ko‘rib chiqilish zarur”[137]. Tahdidlar jamiyat hayotining qaysi sohasiga qaratilgan bo‘lma-sin harbiy tus olmoqda, bunga turli destruktiv guruhlarning paydo bo‘lganligi, xalqaro terrorchilik hurujlarining namoyon bo‘lishi bilan bog‘liq turli sa’y-harakatlar misol bo‘la oladi.

---

[137] Давидов У. Миллий-маънавий хавфсизлик ва миллий ўзликни англаш тушунчаларининг ижтимоий-сиёсий адабиётлардаги диференsиацияси //Международный журнал консенсус. – 2023. Т.4. – №. 1. –Б. 30-35

XX-XXI asrdagi voqealar rivoji natijasida millionlab insonlarning qalbidan joy olgan parokandalik, istiqboldan shubhalanish hissiyotining kuchayishi, insoniyatning mo‘ljaldan adashishi va boshqa ko‘plab yangi jarayonlar radikalizmning rivojlanishi uchun yangi qulayliklar yaratdi. Insoniyat uchun voqealar rivojining chalkash girdobida ildiz otgan bu misli ko‘rilmagan o‘ta zararli jarayonga qarshi kurashishga nafaqat undan aziyat chekayotgan xalqlar va davlatlar, balki butun jahon hamjamiyati tayyor emasligi, yaqqol ko‘zga tashlanib qoldi. Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov ta’biri bilan aytganda, “Bugungi kunda xalqaro terrorizm, ekstremizm va radikalizmga qarshi kurashish dunyo mamlakatlarini birlashtiradigan asosiy omil bo‘lib qolmoqda”[138].

Xavfli tahdidlaridan biri - radikallashuvning milliy xavfsizlikka ta’siri sabablari yoki turtkilari borasida fikrlar tabiiyki bir xil emas. Ayrim mutaxassislar radikalizm asosan g‘oyaviy yoki ijtimoiy sohalardan kelib chiqqanligi uchun siyosat bilan bevosita bog‘liq emas, degan fikrni ilgari surishadi. Mohiyatan, shunday ham. Lekin ijtimoiy hayot faoliyatining barcha sohalari, bir-biri bilan o‘zaro bog‘lig‘ligini va biri ikkinchisini keltirib chiqarishini yoki siyosat uning xohishidan qat’i nazar, u yoki bu darajada boshqa ijtimoiy sohalar ichiga kirib borishini e’tiborga olsak, masala butunlay boshqacha ekanligiga guvoh bo‘lamiz. Aslida ular o‘rtasidagi o‘zaro aloqadorlik, qolaversa, biri ikkinchisi bilan munosabatga kirmasdan qandaydir alohida yashash shart- sharoitlarining o‘zi ularni o‘zaro bog‘liq qilib qo‘yadi. Ammo tajriba va kuzatishlar shuni ko‘rsatadiki, bu tamoyil, birinchidan, abadiy va azaliy, ikkinchidan esa normal holat hamda unchalik xavfli emas.

Mavzuga doir adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatmoddaki, jahon hamjamiyatining radikalizmga nisbatan qarashida uning “ustki qatlami”ni, ya’ni mafkuraviy jarayonini “ostki qatlamlari”dan ayrim, mustasno holda tasavvur etish ustuvorlik qilayotganligi kuzatiladi. Chunki siyosiy yoki siyosiylashgan radikalizm hurujlari

[138] Каримов И.А. Бизнинг бош мақсадимиз - жамиятни демократлаштириш ва янгилаш, мамлакатни модернизация ва ислоҳ этишдир. –Т.: Ўзбекистон, 2005. –Б.64.

aynan shu “ustki datlam” hisoblanadi, ya’ni yaxlit jarayon emas, balki uning hosilasidir, mazmun emas, xossadir, mohiyat emas, balki shakldir[139].

Shunday ekan, insoniyat, jahon hamjamiyati bugun radikalizm muammosiga mutlaqo yangicha yondashmog‘i, yangicha konsepsiyalarni ishlab chiqishi zarur. Radikalizm tahdidining ustki va ostki qatlamlarini barobar e’tiborga olish, to‘g‘rirog‘i, ostki qatlam, ya’ni uni keltirib chiqaruvchi chuqur ijtimoiy, siyosiy va mafkuraviy muammolarni bartaraf etish mexanizmini yaratishi lozim.

Tahlillar shundan dalolat beladiki, xavfning vujudga kelishi bevosita inson xatolari bilan aloqador. Garchand radikallashuv siyosat bilan o‘zidan-o‘zi bog‘lanmaydi, balki uni siyosiylashtirishadi. Professor G.P.Ovraxning ta’kidla-ganidek “Umuman barcha mojarolar, bir tomondan, sof siyosat sohasida sodir bo‘lib turadigan, ya’ni siyosiy kelishmovchiliklar, ikkinchidan esa, ular iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy hamda boshqa sohalarda yuz berish asnosida davlatlar, sinflar va etnoslarga tegishli demografik, mintaqaviy yoki ayrim olingan kichik bir makondagi munosabatlarga bevosita daxldorlik kasb etishi bois, siyosiy ahamiyat yoki yo‘nalishga ega bo‘luvchi mojarolardan tarkib topadi”[140]. Ayrim xalqaro o‘yinchilar o‘zlarining geosiyosiy manfaatlaridan kelib chiqib, mintaqalardagi ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy vaziyatni beqarorlashtirmoqda. Gohida diniy ekstremizm va terrorizmning destruktiv ta’siri ular tomonidan tashqi siyosiy imkoniyat yoki mexanizm sifatida qo‘llab-quvvatlanayotganligi bugungi kunning eng dolzarb muammolari sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Siyosiy radikalizm bugungi kunning eng murakkab va xavfli hodisalaridan biri sanaladi. Uning ko‘rinishi, odatda, ommaviy qurbonlarga, moddiy va ma’naviy, hatto tiklab bo‘lmas boyliklarni vayron etishga olib keladi. U ijtimoiy va milliy guruhlar orasida ishonchsizlik va nafratni keltirib chidaradi, ba’zan butun bir avlod hayoti davomida ham bartaraf etib bo‘lmaydi. Dunyoda terroristik

---

[139] Доклад Группы высокого уровня по увозам, вызовам н переменам ООН. II Безопасност Евразии. №1, 2005, –С. 130-131.; Мухамедшин Ф. Исламский мир глазами профессионального политолога. II Труд, 5.05.06.

[140] Оврах Г.П. Теория соѕиальных и политических. Владивосток, 1996. – С.95-96.

harakatlarning ortib borishi unga qarshi kurashishning xalqaro tizimini barpo etish, turli davlatlar sa'y- harakatlarini eng yuqori darajada muvofiqashtirish zaruratini keltirib chiqardi.

"1990-yillarning boshidan radikalizm mohiyati biroz boshqacha talqin qilingan, ya'ni radikalizm mafkurasi birinchi navbatda "siyosatda hal qiluvchi usullar va harakatlarga intilish" bilan ajralib turishi keltirilgan"[141].

Ko'plab insonlar, guruhlar va tashkilotlar uchun diniy radikalizm o'zining siyosiy, diniy, milliy, shaxsiy va boshqa muammolarini hal etish vositasiga aylanib qoldi. Ochiq, jangda, siyosiy muholifatda etnik o'zligini asrab qolishda va mo'ljallarini amalga oshirishda muvaffaqiyatsizlikka uchraganlar ko'proq, shu yo'lni tanlamoqda. Shu nuqtai nazardan, A.Solovyovning «Separatizm tobora islom fundamentalizmi bilan birlashib ketmoqda. Milliy ayirmachilar xalqaro fundamentalistik markazlar va tashkilotlar bilan birlikda va ularning homiyligida o'z xalqi uchun sharoit yaratishning barcha noharbiy yo'llarini inkor etishadi», - degan fikri e'tiborni jalb etadi[142].

Masalan, ma'naviyat sarchashmasi sifatida din qanday siyosat olib borilishiga, uning kimning manfaatlariga xizmat qilishiga va dunyo siyosiy jarayonlarida qanday o'zgarishlar ro'y berishiga bevosita aralashmaydi. Zero, bir zamonlar, taxminan to'rt yuz yillar avval G'arbda «shohga-shohona va xudoga esa xudoga yarasha ish» bo'lishi lozim degan fikr o'rtaga tashlangan. Bunda «siyosatchiga siyosat, din uchun esa diniy yumushlar» lozim deya siyosat dindan, din esa siyosatdan ajratilgan. Uni insoniyatning eng dolzarb xulosalardan biri deb hisoblash zarur bo'ladi. Afsus, bu zarur tamoyilligicha qolib ketaverdi, ya'ni uni tamomila faromush etganlarning safi borgan sayin ko'payib bordi. Bugun ham shu jarayon davom etmoqda.

Ta'kidlash joizki, bir necha asrlar davomida Sharq dunyosiga ta'sir qilib kelayotgan sabablarga e'tibor qaratadigan bo'lsak, bugungi radikalizm uchun

---

[141] Политология: энзиклопедический словарь. – М., 1993. –С.43.
[142] Соловьев А., Чаевнч А. Глобализация, интеграция и natsиональная безопасност России, II Вестник Москва, университета. Сер. 12, Политический науки, №5,2006, –С. 23-24.

islom dinini ayblash amaliyoti mutlaqo asossiz ekanligini va u dunyoni beqarorlashtirishga qaratilganligini anglash mumkin. “Zamonlar o‘tib, turli jarayonlar, siyosiy voqeyliklar oqibatida vujudga kelgan global qiyinchiliklar, jumladan, insoniyatning turli sabablar tufayli munosib hayot kechirishdan mahrum bo‘lishi yangi xalqaro avantyura uchun ijtimoiy hamda g‘oyaviy zamin hozirladi. Tabiiyki, radikalistik kuchlar qanchalik siyosiy muvaffaqiyatsizlikka yuz tutsalar-da diniy ekstremizm orqali dunyoning turli joylarida millionlab marginallashgan kishilarning boshini qovushtirishga harakat qilmoqda”[143].

Global siyosiylashgan diniy radikalizmning yana bir «tashvishli makoni» biz Sharqiy Osiyoda shakllanayotganligini guvohi bo‘lmoqdamiz. Buning asosiy sababi xalqaro munosabatlarda, qolaversa, ijtimoiy- ma’naviy sohalarda ro‘y berayotgan salbiy tendensiyalarda yaqqol ko‘zga. tashlanmoqda. Sivilizat-siyalararo munosabatlardagi taranglik, ayrim qudratli davlatlarning bevosita ta’siri ostida mintaqadagi rivojlanayotgan davlatlarga nisbatan iqtisodiy hamda siyosiy tazyiqning avjiga chiqishi, mintaqada ustuvorlikni qo‘lga kiritish yo‘lida geosiyosiy o‘yinlar va raqobatning kuchayishi, o‘z taraqqiyot modeliga sodiq qolayotgan mamlakatlarga milliy mentalitetga zid bo‘lgan modellarni zo‘ravonlik bilan kiritish, taraqqiy etgan mamlakatlarning mintakdda geosiyosiy imkoniyatlarini kengaytirish yo‘lida olib borayotgan amaliy ishlari va mintaqa davlatlarini birini-biriga nisbatan «tiyish» siyosatiga ko‘niktirish, nufuzli davlatlarning jahon iqtisodiyoti va siyosatida mustaqil subyekt darajasiga chiqishiga to‘sqinlik qilish, shuningdek, sharqona qadriyatlarga nisbatan agressiya uyushtirish va boshqa salbiy tendensiyalar siyosiy va diniy ekstremizm uchun ijtimoiy ma’naviy ko‘mak bermoqada, uni mintaqa midyosida rag‘batlantirmoqda.

Darhaqiqat bugungi kunda insoniyat ulkan tafakkur yangilanishi, ijtimoiy hodisalarga batamom yangicha yondoshuvlarni kashf etish bilan bog‘liq jarayonni boshidan kechirmoqda. Shu bois, asrlar davomida tafakkurimizdan mustahkam

[143] Арипов Ш.И. Жамият тараққиётига диний радикализм таҳдидининг замонавий хусусиятлари: Сиёс. фан. номз. дисс. ... –Т., 2008. –Б. 36.

o‘rin olgan barcha muammolarni harbiy yo‘l bilan hal etish, ya’ni zo‘ravonlikka nisbatan zo‘ravonlik ishlatish tamoyilidan voz kechish, diniy radikalizmga barham berishning samarali, lekin ancha intellektual faollikni talab qiluvchi yo‘lini izlash lozim. Birinchi Prezidentimiz aytganidek, “uni yuzaga keltiradigan sabablar”, ya’ni uning zamirida pishib yetilgan, unga ijtimoiy, siyosiy va mafkuraviy asos bo‘lib qolayotgan global ijtimoiy illatlar bilan kurash olib borish zarur.

Birinchi navbatda hukumat va fuqarolar o‘rtasidagi siyosiy munosabatlarning harakteri siyosiy hayot ishtirokchilarining mentaliteti, qadriyat yo‘nalishlarining shakllanishi va madaniy jihatlari asosida belgilanadi. Radikalizmning siyosiy tizimga ta’siri mamlakat tarixiy rivojlanishining xususiyatlari, siyosiy tizim va siyosiy hayotning o‘ziga xos xususiyatlariga asoslanib, muhim ijtimoiy-siyosiy o‘zgarishlarni o‘zida aks ettiradi.

Rossiyalik olimlar G.I. Avtsinova, A.S. Akhiezer, Y.L. Belyakova, E.G. Efimova, S.E. Krapivnenskiy, N.I. Lapina, A.N. Smertina radikalizm fenomenini shuningdek, siyosiy radikalizm masalasini, radikalizmning siyosiy tizimga ta’siri masalalarini ilmiy ishlarida tahlilga tortgan[144]. Githens-Mazer tadqiqotida siyosiy radikallashuv “siyosiy qarashlar va va xatti-harakatlarning keskinlashuvi bilan ajralib turadigan jarayon” deb keltirilgan[145].

---

[144] Авsинова Г.И. Политический радикализм в России: cosиокультурный аспект. - Киев, 1995; Авsинова Г.И. Политический радикализм как одна из российских традиsий // «Власть», М., 1996, № 3; Авsинова Г.И. Политический радикализм в России: конsептуальные подходы к понятию и пути нейтрализatsии. // Вестник Московского государственного университета. Серия 12. Политические науки. М., 1995, № 3; Авsинова Г.И. Революsионарпзм как феномен российского общества: проблемное поле исследований // Первая русская революsия: взгляд через столетие. Материалы научной конференsии. - М. 2006; Авsинова Г.И. Революsионер в России: история и теория. - КР «Политехник», типография ПИКП «Укртиппроект», 1995.; Авsинова Г.И. Русские мыслители о феномене политического радикализма // «Cosиально-политический журнал» (cosиального-манитарные знания). 1997, № 1; Авsинова Г.И. Феномен запоздалости как cosиокультурная основа политического радикализма в России. // «Cosиально-политический журнал» - М., 1995, № 6; Ахиезер А.С. Россия: критика исторического опыта. В 3-х томах. М., 1993; Ахиезер А.С. Cosиокультурная динамика России. К методологии исследования //Политические исследования, 1991, № 5; Белякова Ю.Л. Cosиокультурный подход: этапы формирования и основные императивы// Государственное управление. Электронный вестник. 2011, № 2; Крапивенский С.Э. Cosиокультурная детерминанта исторического проsecca // Общественные науки и современность. 1997, № 4; Соловьев А.И. Культура власти. М., 1991.

[145] Githens-Mazer J. Rethinking the Causal Concept of Islamic radicalisation // Committee on Concepts and Methods Working Paper Series. – 2010. – № 42. – 32 p.

Siyosiy radikalizm - inqirozlar, beqarorlik, avvalgi tuzumning tubdan parchalanishi davrida faollashgan ijtimoiy-siyosiy hayotdagi salbiy qarashlarni oʻzida aks ettiradi. Globallashuv davrida siyosiy radikalizmning oʻziga xos yangi shakllari: kiberterrorizm, rangli inqiloblar, fleshmob, smartmob, nanomitinglar va boshqalar vujudga keldi. Siyosiy radikalizm transformatsiyalashuvi bevosita axborot tizimining keng rivojlanishi va siyosiy jarayonlarning teatrlashtirilganligi bilan bogʻliq deb xulosa qilishga asos boʻladi.

Ba'zi siyosatshunoslar radikalizmni "odamda dolzarb muammolarga nisbatan haddan tashqari tashvish tuygʻusining ortishi va uni bema'nilik darajasiga koʻtarilishi hamda oʻrnatilgan munosabatga muvofiq harakatning ongsiz istakka aylanishi" deb izohlaydi[146]. Siyosiy radikalizmning "asosiy maqsadlaridan biri jamiyatni oʻzgartirishga yoʻnaltirilgan gʻoyalarni qabul qilish va unga intilishga qaratilgan jarayonni qamrab oladi"[147].

Bugungi demokratiya eksporti niqobi ostidagi yangi koʻrinishdagi mustamlakachilik, gegemonizm va buyuk davlatchilik shovinizmi, radikallashuv, ekstremizm va terrorizm mamlakat tinchligi, ma'naviy qadriyatlar, davlatchilik an'analari, milliy taraqqiyotni izdan chiqaruvchi, shaxs ijtimoiylashuviga destruktiv ta'sir koʻrsatuvchi tahdid ekanligini anglash va ularga qarshi ogoh va hushyor boʻlish, ularga qarshi qat'iy va izchil kurash olib borish dolzarb vazifalardandir.

Xulosa sifatida keltirish lozimki, tizimning shakllanishi ikkilamchi dialektik jarayon boʻlib, unda murakkablik, keng qamrovlilik va ziddiyat kabi qonuniyatlarda oʻz ifodasini topadi. Agarda xavf va xatarlarni ajrata bilish jarayoni shaxsda samarali kechsa shundagina, u ziddiyatlarni taktik va strategik jihatlarini toʻgʻri aniqlab oladi.

---

[146] Gustafson D.L. White on whiteness: becoming radicalized about race // Nursing Inquiry. – 2007. – № 14(2). – P. 61 153 p.
[147] Veldhuis T., Staun J. Islamist Radicalisation: A Root Cause Model // The Hague: Clingendael, 2009. – 8-93 p.

## 2.3. Radikallashuvning yoshlar ongida aks etishi bilan bog‘liq salbiy oqibatlar tahlili

Dunyoda inson ongiga ta’sir qiluvchi bunyodkor va buzg‘unchi g‘oyalarning paydo bo‘lishi, ularning ta’sir darajasini va mafkuraviy bo‘shliqning oqibatlarini o‘rganish, mafkuraviy tahdidlarni bartaraf etish mexanizmlarini takomillashtirish bo‘yicha olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlar qamrovini kengaytirish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Xususan, aholining ma’naviy-ruhiy holatini doimiy ravishda o‘rganib borish, tahlil qilish, mafkuraviy tahdidlarning ijtimoiy xavflilik darajasiga baho berish va shaxslar ongida mafkuraviy immunitetni shakllantirishning zarurligini asoslash hamda tahdid solayotgan xavf-xatarlarga ilmiy baho berish, mudofaa taktikasini yanada takomillashtirish choralarini ilmiy asoslash yetakchi o‘rin egallamoqda. Bunda, mafkuraviy tahdidlarga qarshi kurashish, radikallashuvning oldini olishning yangi modellarini yaratish bo‘yicha chuqur ilmiy tadqiqotlar olib borishga ehtiyoj oshmoqda.

Barqarorlikni ta’minlash uchun tahdidlarning har qanday ko‘rinishiga qarshi kurashishning zarurligi davrlar davomida o‘z dolzarbligini saqlab kelmoqda. Xususan, AQSH Kongressida Markaziy razvedka boshqarmasi (SRU) direktori Allen Dallas ta’kidlaganidek “Biz barcha boyliklarni va barcha moddiy kuchlarni insonlarni yo‘ldan og‘dirmoqqa va aldamoqqa tashlaymiz... Inson miyasi va ongi o‘zgarish qobiliyatiga egadir. Biz sezdirmasdan ularning qadriyatlarini qalbakilashtiramiz va bezalgan qalbaki qadriyatlarga ishontiramiz, u yerda xaos urug‘ini sochamiz.... Biz davlat boshqaruvida tartibsizlik va chigalliklarni yaratamiz. Biz sezdirmasdan, ammo faol va doimiy ravishda poraxo‘rlikni, qat’iyatsizlikni rivojlantiramiz. Biz shu tarzda ularni avloddan-avlodga zaiflashtirib boramiz. Bu faqatgina masalanngi ijtimoiy jihati. Ammo, uni harbiy va siyosiy jihati mudofaa qobiliyatiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi bilan belgilanadi”[148].

[148] Конопатов С.Н., Юдин В.В. Традиsионный смысл понятия «война» устарел // Военная мысль. - Москва, 2001, № 1. - С. 56.

Yuqoridagi fikrdan koʻrinib turibtiki "tarixan radikal, ekstremist va terrorchilik siyosiy taktika sifatida shakllangan boʻlib, ularning asosiy maqsadi natijasiga erishish uchun barcha vositalardan foydalanish va bu yoʻlda shaxslarni majbur etish hisoblangan"[149]. Hozirgi kunda ekstremist va terroristlar oʻz mafkuraviy asosini yaratish maqsadida radikal kuchlar bilan birlashmoqda. Chunki, ular oʻz atrofiga dini, millati, jinsidan qat'i nazar radikal ruhdagi guruh va shaxslarni umumlashtirmoqda. "Bu siyosiy, iqtisodiy yoki diplomatik vositalar orqali erishib boʻlmaydigan hollarda qullanadigan gʻayriinsoniy usuldir"[150]. Ushbu jarayonda mafkura va diniy qarashlar asosida oʻzaro hamkorlik oʻrnatiladi. "Ekstremist uchun gʻoyaviy-ritorik komponentlar juda muhim hisoblanadi. U shu ma'noda shaxsiy qonunbuzarlikni amalga oshiradiki, oʻz qurboniga shaxsan aloqador boʻlmaydi va bilmaydi. Oddiy jinoyatchidan farqli oʻlaroq, ekstremist gʻoyaviy jinoyatni amalga oshiradi".

Radikal kayfiyatdagi kishilar guruhlarga birlashishga, maqsadlarga erishish yoʻlida zoʻravonlik ishlatishga, oʻzlariga qarshi chiqqanni noqonuniy yoʻllar bilan bartaraf etishga, gʻoyalarini yoyish uchun hech narsadan qaytmaslikka moyil boʻladilar. Aynan shu jihat jamiyat uchun xatarli hisoblanadi. Tahlillarda olimlar tomonidan keltirilgan mulohazalarga koʻra "mafkura va dinda jamoaviy, guruhiy dunyoqarash ustuvorlik qilganligi bois "ommaviy ongga ta'sir etish" tomonlarni birlashtirib turadi. Ularga haqiqatni bir yoqlama tushuntirish amaliyotidan foydalaniladi"[151].

Mavzuning mantiqiy davomi sifatida ommaviy ongga ta'sir etish usullarini tahlilga tortamiz. Olimlarning ta'kidlashicha "insoniyat oʻzining paydo boʻlishidan boshlab atrof dunyoni anglab borar ekan, uni yanada tushunarli qiladigan ikkita qarama-qarshi tamoyilni ajratib oldi. Shu sababli, barcha bilim tizimlari binarlik (qarama-qarshilik) tamoyiliga koʻra mavjud boʻlgan hamma narsani belgilaydigan

---

149 Олшанский Д. Психология терроризма. СПб. 2002, -С.5.

150 Арипов Ш.И. Жамият тараqqиётига диний радикализм таhдидининг замонавий хусусиятлари: Сиёс. фан. номз. дисс. ... -Т., 2008. -Б.118.

151 Соколов В. Субъектно-объектная сут философии и ее проявления в sивилизatsионном и историко-философском проsессе. // Вестник Москва ун-та. Сер.7, философия, №3, 1999, -С.8.

ikkilik yondashuvdan foydalanish orqali shakllangan. Atrofdagi voqelik va hayot tarzi insonga dunyoni binarlik tamoyili bo‘yicha idrok etishga majbur qilgan: yorug‘lik va zulmat, kunduz va tun, tinchlik va urush, yaxshilik va yomonlik, haqiqat va yolg‘on. Binarlik yondashuvi ta’sirida odamlar o‘rtasidagi munosabatlar ham shakllangan: do‘stlar va dushmanlar, o‘zimizniki va begonalar”[152].

“Inson o‘zligini anglash jarayonida identiklikka erishadi, zotan unda inson tafakkuri ishtirok etadi. Erishilgan identiklik inson shuurida ifodalanib, uning mavjud borliq va imkoniyat o‘rtasida uni mustaqil va alohida idrok etishni amalga oshirishiga imkon beradi. Aynan o‘zlikni anglashgina insonga o‘z identikligini o‘rnatishiga imkon beradi. Inson turmushidagi ijtimoiy sharoitlarning ayni paytda o‘zgarishi identiklik inqirozining uni izlash va qo‘lga kiritishga sharoit yaratadi. Axborotlashgan jamiyatning globallashuv sharoitida rivojlanishi uning atomlashuvi tendensiyalarining chuqurlashuvi bilan hamohang bo‘lib, radikal plyurallikni vujudga keltiradi”.

Ijtimoiy jarayonlarda ishtirok etish orqali shaxs o‘z hayoti tarzini o‘zgartiradi. Shaxs o‘z ishtiroki davomida shaxsiy hayot chizig‘ini aniqlab, uni rivojlantirib boradi. Aniqroq aytganda o‘zini anglash va o‘z hayotiy faoliyatini muvofiqlashtirishda shaxsning jamoaviy faolligi asosiy omil hisoblanadi.

Inson hayoti va faoliyatida transformatsiyalashuvning jadallashuvi natijasida shaxsning moddiy ehtiyojlari oshganini, uning iqtisodiy, siyosiy qarashlarida o‘zgarishlar yuz berayotganini ta’kidlash joiz. Xususan, bugungi globallashuv sharoitida shaxs dunyoqarashida iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy va madaniy transformatsiyalashuv natijasida unda moddiy ehtiyojlarni qondirish ustuvor ahamiyat kasb etmoqda va ma’naviy kamolot masalasi ikkinchi darajaga tushib qolmoqda. Globallashuv jarayonlari, etnik lokallashuv, integratsiya, tor ixtisoslashuv, tarmoq kommunikatsiyalari, insonning o‘zidan va o‘zgalardan begonalashuvi, texnologiyalar jamiyatning har bir a’zosiga yangi vaziyatlarni

[152] Айтжанова Д.А. Опыт европейских стран в противодействии религиозному экстремизму: Дисс. ... д-ра по проф. – Нур-Султан, 2021. – С.38

taqdim etmoqda. Natijada inson va jamiyat munosabatlarining shakli o‘zgarib, inson bu bilan o‘zini identifikatsiya qilmoqda.

Zamonaviy inson o‘zining ijtimoiy intilishlari va dunyoqarashi tuzilmasini ham ijobiy, ham salbiy tanlovi imkoniyatiga ega bo‘lmoqda. Bu transformatsiya-ning nisbatan harakterli va ziddiyatli jihati tez sur’atlarda jadallashgan globallashuv va lokal sivilizatsiyalarning yangi avlodini shakllanishidadir. Bu ikki tendensiya o‘zaro bog‘liq va bir-biriga zid hisoblanadi.

Ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va ma’naviy-madaniy islohotlar o‘tkazilayotgan bugungi kunda shaxs strukturasini yaqqol tasavvur etish, uning rivojlanishiga taalluqli masalalar ko‘lamini tahlil qilish muhim ahamiyatga ega.

Tadqiqotchi Pol Virilyo “inson shaxsi ikkiga bo‘linib qolayotganini e’tirof etadi. Xususan, Birinchi bo‘limdagi inson real koordinatalarga ega hayotda, ya’ni real jamiyatda va davrda yashayotgan, hayot kechirishi uchun zarur haqiqiy ehtiyojlari mavjud va u ishlashga, odamlar va jamiyat bilan aloqa qilishga majbur. Ikkinchi bo‘limdagi inson vaqt makondan begonalashib virtual sun’iy yaratilgan gipervoqelikda yashab, unda hayotning o‘tishi, mavjud jarayonlardan virtual makondagi hayolot olami ustunlik qiladi. Natijada inson shaxsiyati va “Men”i, real hayot va sun’iy virtual hayot, real vaqt va virtual voqelik o‘rtasida uning g‘oyaviy qarashlari tafovvuti vujudga keladi va u mavjud reallikdan va hattoki o‘z yaqinlaridan ham sun’iy vertual hayot uchun voz kechishgacha boradi”[153]. Chunki uning ruhiyati, ongi va qarashlari radikal g‘oyalar va vertual voqeyliklar asosida transfarmatsiyalashadi.

Ba’zi olimlar fikriga ko‘ra, ushbu holat muammolar zanjirining yangi halqasini keltirib chiqarmoqda. Uni delegitimizatsiya deb atash mumkin. Delegitimizatsiya-haqqoniylikni, qonuniylikni, haq-huquqni yo‘qotishni anglata-di. Biz mulohaza yuritayotgan kontekstda u insonning borliq mohiyatidan, ontologik asoslaridan ajralib qolayotganini, undagi o‘z o‘rnini va atrofida uni o‘rab

[153] Virilio P. Speed and Politics. – N-York, 1986.; Virilio P. The Lost Dimension. - N-York, 1991. Virilio P. Ground Zero. - London, 2002.

turgan muhitni obyektiv anglashdan, haqqoniylashtirishdan mahrum bo‘layotganini anglatadi. Bunda shaxs haqqoniylikni, reallikni hayolotdan ajrata olmay qoladi.

Shaxs XX asrga kelib o‘zi bajarayotgan ijtimoiy rolni uddalay olmayotganini ba’zi olimlar shaxsning shakllanishi va rivojlanishi uchun zarur bo‘lgan shart-sharoit qolmagani deb hisoblashgan. Ushbu jarayonni olimlar R.Xiggins va E.Frommlar “shaxsning o‘limi” deb atagan[154].

Axborot tahdidi shunday bir universal harakterga egaki, u shaxs dunyoqarashiga, jamiyat barqarorligiga, davlat tinchligiga salbiy ta’sir o‘tkazib, jamoatchilik fikrini chalg‘itadi va oxir oqibatda har bir mamlakatning ma’naviy, madaniy jihatdan yuksalishiga putur yetkazadi. Shaxslarning ma’naviy xavfsizligini ta’minlashda, mazkur jihatlar alohida inobatga olinishi shart.

Ijtimoiy tarbiya shaxs ongu tafakkuri, ma’naviy-ma’rifiy olamini jamiyatning maqsad va vazifalariga uyg‘un hamda hamohang ravishda shakllantirish va rivojlantirish jarayoni, kishilarni ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotda faol ishtirok ettirishga da’vat etadigan barcha ezgu ta’sir hamda omillar majmui hisoblanadi. Ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimida amalga oshiriladigan ma’naviy, ma’rifiy va madaniy ishlarning axborot va targ‘ibot texnologiyalarini qo‘llagan holda ta’sirchan tashkil etilishi shaxsiy tarkibda milliy mafkuraga zid bo‘lgan yot g‘oyalarga qarshi tanqidiy qarash va mafkuraviy immunitetini mustahkamlab, ularda o‘ziga ishonch, hushyorlik va ogohlik tuyg‘ularini mustahkamlaydi.

Ilmiy-texnika taraqqiyoti jadallashib ketgan, moddiylik primati hukm surayotgan bir sharoitda shaxs shakllanishi bilan bog‘liq muammolarga e’tiborsizlik uning ma’naviy qiyofasiga salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi omillarning vujudga kelishi va ildiz otishiga olib keladiki, bu omillar E.Fromm ta’biri bilan aytganda, insonni robotga aylantirib qo‘yishi hech gap emas[155].

Globallashuv jarayonlarining ziddiyatli ko‘rinishi - bu zamonaviy dunyoning shubhasiz dalilidir. “Jamiyatda yuzaga kelgan turli tendensiyalar

---

[154] Фромм Э. Бегство от свободи. -М. АСТ, 2011.; Fromm E. The Sane Society. - Toronto, 1960

[155] Fromm E. The Sane Society. - Toronto, 1960. P. 363/

insonlarning bir-biridan begonalashuvi, o‘zining sun’iy virtual tor dunyosiga kirib olib, individuallik va jamoaviylik kabi ikki asosiy insoniylik belgisini yo‘qota boshlagani hamda ularning mashinaning, internet olamining bir bo‘lagiga va asiriga aylanib qolayotganidadir”[156].

Rossiyalik olim Y.Pavlov ta’kidlaganidek “bugungi kunda «marginal odam»lar qatlami paydo bo‘ldi. Bir vaqtning o‘zida u ikki muhit, ya’ni “ikki dunyoda” yashashni istamoqda. Bu singari odam o‘z yolg‘izlanishini nima qilib bo‘lsa ham uzaytirish maqsadida allaqanday yashirin tashkilotlarga kirishi, o‘z taqdirini “yangi bir dunyo”, jinoiy ish, magiya yoki boshqa bir unsurlar bilan bog‘lashga intilmoqda”[157].

Dunyoda sodir bo‘layotgan jarayonlar tahlilida so‘nggi paytlarda radikal kuchlar safiga intelektual yetuk, zamonaviy bilimlarga ega, aloqa va qurol-yarog‘ vositalari bo‘yicha kuchli mutaxassislar ham qo‘shilayotgani kuzatiladi. Masalan, “Rossiya va AQShda maxsus qo‘shinlarni tayyorlash maktablarida harbiy tayyorgarlik o‘tgan, Tojikiston prezidenti gvardiyasida xizmat qilgan. Tojikiston Ichki ishlar vazirligining maxsus bo‘linmasi qo‘mondoni polkovnik Gulmurod Halimovning ISHID safiga qo‘shilishi misol bo‘la oladi”[158]. Bundan xulosa qilish mumkinki, “har qanday vaziyatda dushman tomonidan ta’sir ko‘rsatishdan kuzatiladigan yagona maqsad o‘zining g‘alabasini ta’minlashdan iborat”[159].

Yoshlarni radikal g‘oyalar ta’siriga tushmasligini ta’minlash uchun radikal, radikallashuv, radikalizatsiya va deradikalizatsiya’ning mazmun-mohiyati haqida aniq tasavvurga ega bo‘lishlari talab etiladi. Chunki, zamonaviy to‘qnashuvlar harakteridan kelib chiqqan holda shaxslarning ma’naviy-ruhiy tayyorgarligini ta’minlash tizim samaradorligini oshirishda yetakchi omil hisoblanadi.

---

[156] Костина А.В. Массовая култура как феномен постиндустриалного обшества. –М., 2011. –С.74.

[157] Павлов Ю. Мировой политический прosecc современные тенденsии и пути их изучения. II Вестник. Москва ун-та, Сер. 12, Политические науки, №5,2001, –С.70.

[158] https://www.bbc.com/uzbek/uzbekistan-54644473; https://kun.uz/09805903?q=%2F09805903#!

[159] Караяни А.Г. Психологическое обеспечение боевых действий личного состава частей Сухопутных войск в локальных военных конфликтах. – М., 1998. – С.39–41.

Shunday ekan, vujudga kelgan jarayonlarda shaxs ma'naviy qiyofasiga ta'sir o'tkazuvchi obektiv shart-sharoitlar va subektiv omillarni mufassal tahlil qilish, ularga salbiy ta'sirini kamaytirish yo'llarini izlash dolzarb masalalardan biriga aylanmoqda. Bu o'z navbatida ilmiy-texnika taraqqiyoti va texnologiyalar rivojlanishi zaruratidan kelib chiqib, shaxs tabiatiga xavf soluvchi tendensiyalarni o'rganishni taqozo qilmoqda.

Chunki, odamzotning moddiy olami qanchalik murakkab yoki serqirra bo'lmasin, uning ma'naviy olami ham shunchalik murakkab va rang-barangdir. Dunyodagi g'oya va mafkuralar, tuyg'u va tushunchalar qadriyat va an'analar, qarashlar insonning ichki olami, uning ma'naviy ehtiyojlari ham g'oyat jozibali, aql bovar qilmaydigan darajada tez o'zgaruvchan ekanligini ko'rsatadi. Bizning mamlakatimiz Sharq va G'arb sivilizatsiyasi tutashadigan Markaziy Osiyo mintaqasida joylashgani uchun bu yerda qadimdan turli davlatlarning siyosiy kuchlari manfaatlarini birlashtirib kelingan.

"Radikalizmning kelib chiqishi dastlab nafaqat dunyoni binar va diniy idrok etishdan, balki milliy izolyatsiyadan ham boshlanadi. Radikalizmning bu shakli suverenitetga intilish bilan tavsiflanadi va shuning uchun davrlar mobaynida shakllanib, etnik hamjihat yashash, assimilyatsiya va qo'shilish bilan bog'liq"[160].

Bugungi kunda bunday jarayon globallashuv va axborot asrida yangicha shaklda namoyon bo'lmoqda. Voqelik shu darajadaki axborot davrini man etish eng kuchli davlatning ham qo'lidan kelmaydigan ishga aylandi. Natijada, dunyo xalqlarini tahlikaga soluvchi «Axborot urushi», «Psixologik urush» kabi tushunchalar bu davrning asosiy tushunchalariga aylanib qoldi. B.Y. Dereshko tadqiqotida Suriya misolida gibrid urushlarning ma'naviy-ruhiy ta'siri yoritilgan[161].

---

[160] Айтжанова Д.А. Опыт европейских стран в противодействии религиозному экстремизму: Дисс. ... д-ра по проф. – Нур-Султан, 2021. – С.36

[161] Дерешко Б.Ю. Морально-психологическое обеспечение противоборства в гибридных войнах: правовые аспекты https://millaw.ru/uploads/2018/05/55-60.pdf

Yuqorida keltirilgan jihatlarga asoslangan holda yoshlarni har tomonlama yetuk, hozirgi zamon va kelajak talablariga javob berishlari hamda ularning professional, intellektual darajasiga erishishlari uchun, eng avvalombor, ta'lim, tarbiya masalasiga katta ahamiyat berish lozim.

Dunyoda kechayotgan jarayonlar tahlili natijasida biz quyidagi salbiy holatlar shaxsga ta'sir ko'rsatishi mumkinligini aniqladik:

- informatsion, jismoniy va ruhiy zo'riqish. Ushbu jarayon shaxslarning aql-zakovati, ruhiyati, ongi, ma'naviy va mafkuraviy qarashlari, diniy e'tiqodi, axloqi va jismoniy holatini izdan chiqarishga qaratiladi;

-mojaro va qurolli to'qnashuvlarning an'anaviy usul va vositalaridan yiroqlashgan holda sun'iy (sintetik) tus olishi.

Ta'kidlash joizki, "ta'lim va tarbiya bor joyda albatta ilm, albatta madaniyat va taraqqiyot bo'ladi. Ta'lim va tarbiya rivojlangan jamiyatda radikalizm va ekstremizm kayfiyatlari hech qachon ildiz otolmaydi"[162]. Bundan kutiladigan natija xavf va tahdidlarni o'z vaqtida aniqlash va oldini olish, yoshlarda radikal ta'sirlarga qarshi immunitetni shakllantirish, radikal ta'sirlarga tushmaslikni yakka tartibda va jamoaviy (guruhiy) tarzda ta'minlash hisoblanadi.

Shaxslarning ma'naviy-ma'rifiy bilimlarini oshirish, ularning har qanday yot g'oyalarga nisbatan mafkuraviy immunitetitini mustahkamlash dunyoning mafkuraviy manzarasida kuzatilayotganligi ikkita kuchning o'zaro kurashi bilan uzviy bog'liq. Bularning birinchisi – taraqqiyot sari intilayotgan xalqlarning ilg'or mafkurasi, ikkinchisi esa, ana shu taraqqiyot natijalaridan foydalanib, ularning yo'liga g'ov bo'lishga urinayotgan zararli va buzg'unchi radikal mafkuralar. Lekin dunyo manzarasi qanchalik murakkaab bo'lmasin, unda bunyodkor g'oyalarning asrlar davomida insoniyatga xos bo'lib kelgan sog'lom aql-idrokning ustunligi yaqqol ko'rinib turibdi. Shu boisdan dunyoda gegemonlik qilishga urinayotgan ayrim davlatlarning internet va boshqa tezkor vositalardan tarqatilayotgan radikal

---

[162] Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг 2022 йил 15 ноябрдаги Кичик ёшдаги болаларни тарбиялаш ва таълим бериш бўйича иккинчи Бутунжаhон конференsияси очилиш маросимидаги нутqи

mafkuraviy hurujlarga qarshi kurashishning birdanbir yo‘li tarbiyadir. Bunda, milliy tarbiya’ni kuchaytirish va shu orqali yoshlarda har qanday yot g‘oyalarga nisbatan mafkuraviy immunitetitini mustahkamlash muhim vazifalar sarasiga kiradi. Tarbiya zaminida vatanparvarlik, insonparvarlik umumbashariy qadriyat-larga hurmat tuyg‘usi yuqori darajada turishi lozim.

Chunki radikallar o‘z saflarini intellektual jidatdan ancha rivojlangan, hozirgi davrdagi shart-sharoit, vaziyatni chuqur tahlil qila oladigan mutaxassislar hisobiga kengaytirib bormoqda, ya’ni ular o‘zlarining infrastrukturalarini yaratmoqda va mustahkamlamoqda. Asosiy maqsad g‘oyaviy namoyondalar va mushtaraklar bilan jahonning turli burchaklaridan turib, o‘zaro aloqa bog‘lash, bir-birlarini har tomonlama qo‘llab-quvvatlab turadigan aloqa va moddiy ta’minot tizimini shakllantirish hamda mavjudlarini rivojlantirib borish. Natijada bugungi kunga kelib “radikallar faoliyatini har tomonlama ta’minlay oladigan tizim vujudga keldi” [163].

Yoshlarni radikal g‘oyalar ta’siridan himoya qilish uchun radikal g‘oyalar tushunchasiga aniqlik kiritish lozim bo‘ladi. Radikalizm ijtimoiy hodisa sifatida qarashlar, g‘oyalar va tushunchalarni ifodalashning ekstremal shakli sifatida tavsiflanadi. Ilmiy manbalarda radikalizm, radikal g‘oya terminiga bir qancha ta’riflar keltirilgan. Bizning nazarimizda radikal g‘oya – bu ijtimoiy munosabat-larning buzilishiga sabab bo‘ladigan, nazariyalar, qarashlar, me’yorlar yig‘indisi-dan iborat salbiy g‘oyalardir. Radikal g‘oya radikallik darajasiga qarab aniqlanadi. ya’ni, “radikallashuvni tushunish uchun zo‘ravonlik elementiga aniqlik kiritish lozim. Chunki, zo‘ravonlik elementining mavjud darajasi radikallashuvni zo‘ravonlik va zo‘ravonliksiz ekanligini farqlab olish juda zarur. Zo‘ravon radikallashuv, bu shunchaki zo‘ravonlikka olib keladigan radikallashuvni

---

[163] Арипов Ш.И. Жамият тараққиётига диний радикализм таҳдидининг замонавий хусусиятлари: Сиёс. фан. номз. дисс. ... –Т., 2008. –Б.116.

anglatadi, zo‘ravonliksiz radikallashuv esa odamlarning radikal qarashlarga ega bo‘lsada, lekin zo‘ravonlik yo‘lini tutmaslik jarayonidir”[164].

Radikalizm noqonuniy xatti-harakatlardan foydalanishni, jamoat yoki siyosiy institutlarga zarar yetkazishni anglatmaydi. “Radikal qarashlar tarafdori, agar ular huquqbuzarlik sodir etishga yoki ijtimoiy jarayonlarga salbiy ta’sir ko‘rsatishga qodir bo‘lmasa, ular o‘z radikal qarashlarini bildirgani uchun jinoiy yoki ma’muriy javobgarlikka tortilishi mumkin emas”[165]. Lekin, radikallashuv zamirida muayyan radikal guruhlar va kuchlarning g‘arazli manfaatlarini ifoda etayotgan turli radikal g‘oyalarni tarqatish yotadi.

Hozirgi axborotlashgan jamiyatda shaxslarni radikal g‘oyalarga ergashtirishda quyidagi jihatlarga e’tibor qaratilmoqda:

- kishining ongini tez va tubdan o‘zgartirishga umumiy e’tibor qaratish;
- o‘z tarafdorlarini jalb qilish va saqlab qolish maqsadida shaxs ongini psixologik qayta ishlashda g‘ayriinsoniy usullardan foydalanish;
- ta’limotni so‘zsiz qabul qilish va “diniy ko‘rsatmalar”ni bajarishning qat’iy talablarini singdirish;
- shaxsning ijtimoiy munosabatlarini butunlay yo‘qqa chiqarish va doimiy “dindoshlar” jamoasida yashash ko‘nikmasini shakllantirish;
- iymonli, sof e’tiqoddagi shaxsni “mutaassib dindor”ga aylantirish.

Yuqoridagi fikrlarga asoslanib, radikal guruhlarning asosiy maqsadi shaxsni g‘oyaviy-ruhiy jihatdan tobe’ qilish, pirovard natijada esa uni butkul qaram qilib olishga yo‘naltirilgan, ushbu holatni, sohalarda g‘oyaviy ekspansiya’ning natijasi deb hisoblanadi.

Mutaxassislarning fikricha, shaxslarda radikallashuv jarayonining sodir bo‘lishida quyidagilar asosiy omil sifatida namoyon bo‘ladi:

---

[164] Айтжанова Д.А. Опыт европейских стран в противодействии религиозному экстремизму: Дисс. ... д-ра по проф. – Нур-Султан, 2021. – С.37

[165] Колов А.М. Актуальные проблемы деятельности органов внутренних дел по противодействию экстремизму: лекция. – Домодедово: ВИПК МВД России, 2008. – 14 с.

insonning shaxs sifatida shakllanayotgan “o‘smirlik yoshi”dagi tajribasizligi va his-hayajon, shuningdek boshqa hayotiga ta’sir ko‘rsatadigan omillarning ustunligi;

ishonuvchanlik;

tashqi ta’sirlarga o‘ta beriluvchanlik;

ichki va tashqi ruhiy holatning o‘zgaruvchanligi;

hayot qiyinchiliklariga va boshqa ruhiy zarbalarga nisbatan chidamsizlik;

o‘ta e’tibortalablik, ammo o‘sha e’tiborni o‘zi kutgan odamlardan topa olmasligi;

atrofda bo‘layotgan voqeliklarga qiziquvchanlik;

har qanday axborotlarga tez ishonishi va ularni bosiqliq bilan tahlil qila olmasligi;

o‘zini qaysi yo‘l bilan bo‘lsada, “qahramon” shaxs sifatida ko‘rsatishga nisbatan oshiquvchanlik.

Ma’lumki radikalizm uning ta’siriga tushgan shaxsning rivojlanganlik darajasiga va u joylashgan ijtimoiy muhitga qarab keskinlashadi. O‘tkir ijtimoiy inqirozlar davrida radikal dunyoqarash buzg‘unchilik qudratiga ega bo‘ladi. Shaxsni ijtimoiy hayotning mavjud modelini yo‘q qilish uchun faol harakatlarga undaydi. Bunday sharoitda radikal qarashlar tarafdorlari hokimiyatga da’vogar kuchlar tomonidan siyosiy maqsadlarga erishish vositasiga aylantiriladi. Bugungi kunda dunyoda sodir bo‘layotgan jarayonlar tahlilida diniy radikalizmga siyosiy mazmun berilib, undan hokimiyat uchun kurash vositasi sifatida foydalanilayotgani kuzatiladi. Radikal kuchlarning maqsadi o‘zlari ta’sir olib borayotgan mamlakatda siyosiy vakolatlar uchun kurash emas, balki shu davlatdagi tizimni to‘liq vayron qilishdir.

Radikallashish avvalida xavfli bo‘lmaydi – ko‘rinishlari anchayin beozor bo‘ladi: shunchaki keskinroq fikrlar, biron bir o‘ziga ma’qul bo‘lmagan gap aytilganda asabiylashish kuzatiladi. Bu hali ikkilanish bosqichi. Bu bosqichda kishi radikal harakatlarga qodir bo‘lmaydi hamda fikrlarini o‘zgartirishi, mo‘tadillikka

qaytishi mumkin bo‘ladi. Radikallashuv kuchayganda esa u... e’tiqodga aylanadi – neofashizm, neonatsizm, shovinizm, ultramillatchilik va hokazolar – shular qatorida. “Afg‘oniston va Iroqda asir olingan bir guruh terrorchilar bilan ish olib borgan amerikalik olimlarning tadqiqotlari davomida yuzaga kelgan islomiy terrorchi portreti hayratga soldi. Aksariyat paytlarda o‘rtacha terrorist, deganda savodi haminqadar bo‘lgan diniy fanatik, Fapb madaniyati va qadriyatlarini tushunmaydigan, iqtisodiy jihatdan qashshoq (kambag‘al) yoki diniy «murabbiy-lar» nazorati ostidagi aksilijtimoiy shaxs gavdalanar edi. Amalda esa voqealardan boxabar, o‘qimishli, o‘ziga to‘q, o‘rta va hatto oliy tabaqaga mansub, Fapb mada-niyati siru asrorlarini chuqur egallagan, ammo o‘z dunyoqarashi va tamoyillariga mos kelmagani uchun Fapb qadriyatlarini tan olmaydigan kishi namoyon bo‘ladi. Ularning aksariyati oddiy insonlar bo‘lib, oila a’zolari yaqinlari tanlagan yo‘l to‘g‘riligiga ishonib, ular bilan xatto faxrlanishlari va qo‘llab-quvvatlashlarini ma’lum qilganlar. Bunday fikrlar o‘z isbotini topmoqda. Yuqorida tasvirlangan terrorchi, hatto G‘arbda yashagan taqdirda ham jamiyatdan alohida ajralib turmagan, ya’ni ko‘zga tashlanmagan”[166].

Demak, radikal fikrlar e’tiqodga aylanganda kishi bemalol ma’naviy chegaralardan hatlab o‘tadi. Bir qarashda u yaxshi maqsadlar uchun kurashyapti, deylik, millat sha’nini tiklash haqida gapiryapti, adolatni tiklashni yoqlayapti, ammo harakatlari o‘sha millat manfaatlariga zid, adolat ilinjida qilinayotgan ishlari esa – adolatsizlik. Millatparvar kishi radikallashganda shovinizm – “bir millat boshqasidan ustun”, “bir millat, boshqasini diskriminatsiya qilsa bo‘ladi” degan tushunchalar... e’tiqodiga aylanadi, ya’ni radikal o‘z millati sha’nini yuksaltirish yoki tiklash uchun ma’naviy nizomlarni buzadi.

Agarda yuqorida keltirilgan radikal ta’sirga shaxs tushsa u sog‘lom fikr yuritishdan mahrum bo‘lib, uning tafakkuri defunksional holatga tushadi, oqibatda individual va jamoaviy tarzda bir qator salbiy jihatlar sodir bo‘lishi kuzatiladi.

[166] Арипов Ш.И. Жамият тараққиётига диний радикализм таҳдидининг замонавий хусусиятлари: Сиёс. фан. номз. дисс. ... –Т., 2008. –Б.102-103.

Shaxslarning mafkuraviy immuniteti ichki va tashqi ta'sirlar asosida mustahkamlanadi va aksincha uning barbod bo'lishi ham ichki va tashqi ta'sirlar asosida amalga oshiriladi. Shu jihatdan olim S.Rubinshteyn shaxsning defunksional holati tahlilida axloqiy-ruhiy tayyorgarlik masalasiga alohida to'xtalib o'tgan[167]. Chunki, axloqiy-ruhiy tayyorgarlik – bu shaxslarda muhim bo'lgan kasbiy sifatlarni shakllantirish va rivojlantirish maqsadida alohida ta'sir ko'rsatish vazifalarni maqsadli bajarish uchun olib boriladigan dasturiy bo'lgan tarbiyaviy jarayondir.

Mutaxassislarning fikricha radikallashuv, ekstremizm va terrorizmga doir qarashlarni shakllantirishda shaxsning unga nisbatan munosabatini aniqlash muhim[168].

Shaxslar o'rtasida radikal qarashlarning keng tarqalishining asosiy motivlari yoki sabablari asosan ikki xil bo'lib, ularni quyidagi holatlarda ko'rish mumkin:

Birinchi motiv - ruhiy holatga tez va kuchli ta'sir ko'rsatadigan diniy, milliy adovatni qo'zg'aydigan, toqatsizlikka sabab bo'ladigan axborotlarning hech bir to'siqlarsiz "nishonga" yetib borishi, diniy, siyosiy yoki millatchi targ'ibotchilarning siyosiy va mafkuraviy maqsadga qaratilgan ma'ruzalarining, video va audio roliklarini shaxslar ma'naviy va ruhiy olamiga jiddiy zarar yetkazishi bilan bog'liq jarayonlar;

Ikkinchi motiv – o'z shaxsiga nisbatan, yon-atrofidagilarga yoki qarindosh-urug'lariga nisbatan yetkazilgan ba'zi bir adolatsizliklar (karyerasida uzoq vaqtlar o'zgarish bo'lmasligi, ijtimoiy ta'minot, o'zlarini haqli hisoblasalarda, uzoq vaqt uy-joyga ega bo'lolmaslik, ishda nohaq jazolanish yoki bo'shatilish, qarindoshlarga kimlar tomonidandir nohaq deb hisoblaydigan darajada zarar yetkazilishi va hokazo) shaxslarda radikal kayfiyatni vujudga keltiradi va ularda jamiyatga, davlatga nisbatan norozilik kayfiyati tug'ilishiga sabab bo'ladi.

---

[167] Рубинштейн С.Л. Советская психология в условиях Великой Отечественной войны / Под знаменем марксизма. 1943. № 9–10. – С. 45-61.

[168] Суханова Н.В. Определение экстремизма и исследование социальных представлений об экстремизме в молодежной среде // Противодействие экстремизму. – СПб., 2005. – С.8–58.

Xulosa qilib aytganda dunyoda sodir bo‘layotgan voqeyliklar radikalizmga qarshi kurashishning zaif nuqtalarini ko‘rsatib bermoqda. Chunki “globallashuv jarayoni radikal va ekstremistlarga keng hududlardagi kadrlar, moliyaviy-iqtisodiy va texnologik bazalardan foydalanish uchun zamin yaratdi, bu esa “yo‘q qilinishi rejalashtirilgan tizim”ni, ya’ni ma’rifiy dunyoni nafaqat ichidan, balki tashqaridan ham yemirish, zaiflashtirish imkonini kengaytirdi[169]. Shunday ekan, radikallashuv va ekstremizmni bartaraf qilish, hech bo‘lmaganda uni zaiflashtirish uchun keng tarmoqli maxsus xizmat, zamonaviy texnika bilan qurollangan razvedka va kontrarazvedka tizimlarini shakllantirish, ularning faoliyatida ilmiy tadqiqot muassasalari, jamoatchilik fikrini o‘rganish tashkilotlari hamda soha yo‘nalishlari bo‘yicha mutaxassis va olimlar bilan hamkorlikni mustahkamlash lozim. Radikallashuvga qarshi kurashishda unga oppozitsiyada turuvchi tuzilmalarning mushtarakligi va tezkorligi, rahbarlarning qat’iyati va ijrochilarning professional malakalari, o‘zaro yakdillik va hamkorlik alohida ahamiyat kasb etadi.

### 2.4. Radikalizmga qarshi kurashish tizimini takomillashtirishning strategik yo‘nalishlari va mafkuraviy asoslari

Bugungi kunda mamlakat miqyosida ekstremizm va radikalizmning vujudga kelishiga sabab bo‘layotgan quyidagi turlarini alohida ajratib ko‘rsatish mumkin:

birinchidan - radikalizm va ekstremizm aksariyat hollarda marginal muhitda shakllanadi. U doimiy ravishda inson ongiga jamiyatda kimlarningdir mavqei yoki egallagan holati, unga salbiy ta’sir ko‘rsatganlik qarashini singdiradi. Shuning uchun ham shaxslarning ruhiy va ijtimoiy holatidan doimiy xabardorlik talab etiladi;

ikkinchidan - radikal qarashlar va ekstremizm ko‘pincha qonunga itoat qilish, davlat institutlari bilan konsensusga erishishga qaratilgan normativlar, me’yorlar yo‘qligi bilan harakterlanadigan tizimlar va vaziyatlarda namoyon bo‘ladi;

[169] Дискуссия. Исламский мир и внешняя политика России // Международная жизнь, №5. 2005. С. 89-91

uchinchidan - radikalizm o‘zi-o‘zini hurmat qilish darajasi past bo‘lgan, shuningdek, inson huquq va manfaatlari har doim ham hisobga olinmaydigan jamiyatlarda va guruhlar ichida sodir bo‘ladi;

to‘rtinchidan - radikalizm ko‘p hollarda, milliy yoki davlat mafkurasi zaiflik ko‘rsatayotgan, milliy g‘urur darajasi pasayayotgan, madaniy evrilishlar va o‘zgarishlar sodir bo‘layotgan, ijtimoiy yoriqlar kuzatilayotgan jamiyat va davrlarda sodir bo‘ladi;

beshinchidan - radikal va destruktiv qarashlar zo‘ravonlik mafkurasini qabul qilgan, axloqiy-ma’naviy qarashlari yemirilgan, maqsadlari aniq bo‘lmagan jamiyatlar va guruhlar faoliyatiga mos keladi.

Yuqoridagilar va umuman mavzuning asosiy maqsadidan kelib chiqqan holda, alohida e’tirof etish kerakki, bugungi kunda yoshlar, aholining turli qatlamlari va toifalari, shuningdek, yoshlar o‘rtasida radikalizmning profilaktikasi, ya’ni oldini olish, bu “kasallik”ka chalinganlik oqibati bilan kurashishdan ko‘ra jamiyat uchun anchayin foydali. Shu nuqtai-nazardan shaxslarda radikalizmga qarshi kurashish tizimini yaratishning strategik yo‘nalishlari va mafkuraviy asoslarini ishlab chiqish va uni hayotga joriy qilish borasida quyidagi xatti-harakatlarni va vazifalarni bajarish lozim:

birinchidan – shaxslarda huquqiy madaniyatni shakllantirish tadbirlarini kuchaytirish. Zero, zamonaviy huquq va burch, majbariyatlarning insoniyat taraq-qiyoti va soha, shuningdek, xalq farovonligi uchun muhimligini chuqur anglatish ularda fikriy, tafakkuriy va madaniy yuksalishning omili bo‘lib xizmat qiladi.

ikkinchidan – yoshlarda maktab davrlaridan boshlab, bag‘rikenglik dunyoqarashni, boshqa dinlar va madaniyatlarga, millatlar va elatlarga nisbatan tolerant munosabatni singdirish, faqatgina shu yo‘l bugungi ma’rifatli dunyo taraqqiyotining asosi ekanligini anglatishga qaratilgan maxsus dasturlarni ishlab chiqish va joriy qilish. Zero, bunday qadamlarning samaradorligi turli shakl va ko‘rinishdagi radikalizm, ekstremizm, terrorizm, millatchilik va ijtimoiy mutaassiblikka qarshi kurashishga yordam beradi.

uchinchidan – shaxslarning madaniy va ma’naviy hordiq olish masalalarini sifat jihatdan butunlay takomillashtirish, klublar, madaniyat uylari, kinoteatrlar, muzeylar va boshqa madaniyat muassasalar faoliyatini kengaytirish va ular orqali yoshlarda zamonaviy va dunyoviy madaniyatni yanada rivojlantirish mumkin.

to‘rtinchidan – shaxslarning ijtimoiy, moddiy himoyalanganlik darajasini mustahkamlash, ularning o‘z hayotidan qoniqishlarini ta’minlash, uy-joy bilan o‘z vaqtida adolatli ta’minlanishi bilan bog‘liq dasturlarni joriy qilish. Bunday ishlar shaxslarga ularni doimiy davlat himoyasi va g‘amxo‘rligi ostida ekanlini anglatib turadi. Shuningdek, ularni turli qonunga va davlat manfaatlariga zid faoliyatlaridan tiyilishiga yordam beradi.

